

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI



AXBOROT TEXNOLOGIYALARI KAFEDRASI  
KOMPYUTERLARGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH  
fanidan o'quv – uslubiy majmua



Guliston – 2024

## **1-MAVZU. MIKROPROSESSORLAR HAQIDA ASOSIY TUSHUNCHALAR**

**(2 soat ma’ruza)**

### **Reja**

1. Kompyuterning zamonaviy texnik va dastuyriy ta’mnoti fani haqida;
2. Markaziy prosessor, arifmetik – mantiqiy qurilma, berilgan va adreslar shinasi, registrlar; buyruqlar hisoblagichi, kesh haqida tushuncha;
3. O’zgaruvchi nuqtali sonlar matematikasi soprosessori haqida tushuncha.

**Mikroprotsessor** (MP) shaxsiy kompyuter (SHK)ning markaziy bloki bo’lib, u mashinaning barcha bloklari ishini boshqarish hamda axborot ustida arifmetik va mantiqiy amallarni bajarish uchun mo’ljallangan. Mikroprotsessor tarkibiga quyidagi qurilmalar kiradi.

**Boshqarish qurilmasi** (BQ): mashinani hamma bloklariga kerakli vaqtda aniq boshqarish signallarini shakllantiradi va uzatadi (boshqaruvchi impulslarni), bu signallar bajarilayotgan amal xususiyati va oldingi amallar natijalari bilan belgilanadi; bajarilayotgan amal ishlataladigan xotira yacheykalarini adreslarini shakllantiradi va bu adreslarni EHM ni mos bloklariga uzatadi; boshqarish qurilmasi impulslarning tayanchli ketma-ketligini taktli impulslar generatoridan oladi.

**Arifmetik-mantiqny qurilma** (AMK) — sonli va belgili axborot ustida barcha arifmetik va mantiqiy amallarni bajarish uchun mo’ljallangan (SHK larning ba’zi modellarida amallarni bajarilishini tezlashtirish uchun qo’shimcha matematik soprocessor ulanadi).

**Mikroprotsessorli xotira** (MPX) — mashina ishlashining eng yaqin taktlaridagi hisoblashlarda bevosita ishlataladigan axborotni qisqa vaqt saqlash, yozish va uzatish uchun mo’ljallangan; MPX registrlar asosida quriladi va mashinaning yuqori tezkorligini ta’minalash uchun ishlataladi, negaki asosiy xotira (AX) tez ishlovchi mikroprotsessorning samarali ishlashi uchun kerak bo’lgan ma’lumotni yozish, qidirish va o’qish tezligini har doim ham ta’minalayvermaydi. Registrlar — turli xil uzunlikdagi xotiraning tez ishlovchi yacheykalarini (1 bayt standart uzunlikka ega bo’lgan va tezkorligi nisbatan pastroq AX yacheykalaridan farqli o’laroq).

Mikroprotsessorning interfeysli tizimi SHKning boshqa qurilmalari bilan ulash va aloqa qilish uchun mo’ljallangan, u o’z ichiga MPning ichki interfeysi, buferli eslab qolish registrlari va kiritish-chiqarish portlarini (KCHP), boshqarish sxemalari va tizimli shinani oladi.

**Interfeys** (interface) — kompyuter qurilmalarini o’zaro moslash va aloqa qurilmalari to’plami bo’lib, ularning o’zaro samarali ishlashini ta’minalaydi.

**Kiritish-chiqarish porti** (I/O port) — ulash texnik aviyurasi bo’lib, mikroprotsessorga boshqa qurilmalarni ulash imkonini beradi.

Taktli impulslar generatori chastotasi shaxsiy kompyuterning asosiy tavsiflaridan biri hisoblanadi va ko’p jihatdan uning ishlash tezligini aniqlaydi, negaki mashinadagi har bir amal ma’lum taktlar soni davanida bajariladi.

**Tizimli shina** — kompyuterning asosiy interfeysli tizimi bo'lib, u kompyuterning barcha qurilmalari orasidagi o'zaro ulanishni va aloqani ta'minlaydi.

Tizimli shina quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- qiymatlarning kodli shinasi (AQSH), u operand sonli kodining (mashina so'zi) hamma razryadlarini parallel uzatish uchun simlar va ulash sxemalarini o'z ichiga oladi;
- adresning kodli shinasi (AQSH), u asosiy xotira yacheykalarining va tashqi qurilma kiritish-chiqarish portlarining adreslari kodining hamma razryadlarini parallel uzatish uchun simlar va ulanish sxemalarini o'z ichiga oladi;
- ko'rsatmalarning kodli shinasi (KKSH), u mashinaning hamma bloklariga ko'rsatmalarni (boshqaruvchi signallarni, impulslarni) uzatish uchun simlar va ulanish sxemalarini o'z ichiga oladi;
- ta'minot (tok) shinasi, u energo ta'minot tizimiga SHKning bloklarini ulash uchun simlar va ulanish sxemalarini o'z ichiga oladi.

Mikroprotsessorlar haqida gapirar ekanmiz asosiy muhim tushinchalarga to'xtalib utishimiz lozim bo'ladi. Mirkoprotsessorga nisbatan amal bajaruvchi har qanday tashqi qurilma **periferiya deb** atash mumkin.

**Registr-** qurilmalarning o'ziga xos tengliklar birlashmasini anglatadi, ularning vazifasi ma'lumotlarni saqlash hamda ma'lumotlarga tezkor murojat qilish imkoniyatini beradi. Ushbu qurilmalar integral sxemada triggerlarda foydalilanildi. Trigger o'z navbatida tranzistor o'tkazgichlarda amalga oshiriladi (ya'ni elektron kalitlar). N trigger registrda N bit ma'lumotni tushinish mumkin.

**Port** –shunday sxemaki odatda o'ziga bir qancha registrlarni qamrab oluvchi hamda ulanish imkoniyatini beruvchi vositadir, masalan pereferiya qurilmasi mirkoprotsessorni tashqi shinasiiga ulanishida ko'rishimiz mumkin. Amalda xar mikrsxema har xil maqsadlar uchun ishlataladi. SHaxsiy kompyuterda har bir port o'ziga xos unikal raqamiga ega bo'ladi. SHuni aytib o'tish joyizki portlarni raqami mohiyatan registrlarning kiritib chiqarish manzili bo'lib xizmat qiladi. SHuningdek manzil kengligi asosiy xotira va kiritib chiqarish porti bilan kesishmaydi.

**Uziliksizlik** – tushinchasi asinxron jarayonning xabarini anglatadi (ya'ni protsessor qandaydir asinxron jarayonni tushinadi). Ushbu holatda buyruqlarning ketma-ketligi to'xtatiladi. Uning o'rniga esa boshqa bir ketma-ketlik amalga oshiriladi.

### Test savollari

#### 1. Kirish shinalaridagi ma'lumotlarni yagona chiqishga o'lovchi - .....

- a) shifrator
- b) kalit
- c) \*multipleksor
- d) tranzistor

#### 2. Bu texnologiyani qo'llab, qo'shimcha plata o'rnatilganda, shk yoki biror sozlovchini o'chirishni talab etilmaydi?

- a) midi
- b) pci

- c) \*plug & play
- d) play & boy

## **2-MA'RUZA. MIKROPROTSESSOR TARIXI VA UNING TURLARI.** **(2 soat ma'ruza)**

### **Reja**

1. Qisqacha EHM rivojlanish tarixi haqida.
2. Mikroprotsessor tuzilishi hamda funksiyalari haqida tushuncha
3. Zamonaviy mikroprotsessor turlari.

Kompyuterlarni tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak albatta 1940 yillardan boshlab EXMlarga asos solina boshlagan. Rivojlanish Mini EHMLar, o'rta EHMLar va super EHMLar ga ajraladi. Bular sekundiga minglab va o'n minglab amallar bajarishi bilan farq qilib boradi.

**Mikroprotsessor** istalgan shaxsiy yoki mikro EHMLarni muhim qismi hisoblanadi. Ushbu element orqali mikro EHMyoki shaxsiy kompyuterlarni hisoblash imkoniyatlarini beradi va uni yuragi hisoblanadi. Hozirgi paytga qadar shartsiz etakchi bo'lib hamda zamonaviy mikroprotsessorlarni yaratadigan firma Inteldir. Mikroprotsessor istalgan shaxsiy yoki mikro EHMLarni muhim qismi hisoblanadi. Ushbu element orqali mikro EHMyoki shaxsiy kompyuterlarni hisoblash imkoniyatlarini beradi va uni yuragi hisoblanadi. Hozirgi paytga qadar shartsiz etakchi bo'lib hamda zamonaviy mikroprotsessorlarni yaratadigan firma Inteldir. Mikroprotsessor risoladagidek, o'ta murakkab bo'lgan integral sxemalardan tashkil topgan bulib yarimutkazgich va kristallar funksiyalarni bajarishda markazimy protsessorga kuylaylik yaratadi. Integralli mikrosxemalarnikismini chiplar (chips)deb yuritiladi. Boshqarish blogiga vaqurilmasiga shartli komponentlar arifmetik – mantikiy qurilma mikroproyessor tegishli. U tezlik(taktikali chatota) bilan xarakterlanadi, razryadli eki uzun suz (ichki va tashki) xamda buyruqlar tuplami va arxitekturalar asosida ishlaydi.

### **x88/x86 mirkoprotsessorlar guruhi**

Birinchi mirkoprotsessor i4004 – 1971 yilda Intel (INTEGRATED Electronics) korxonasi tomonidan ishlab chikarilgan. Aytib utish joizki ushbu mirkoprotsessorlarning maksimal ishlash tezligi bor yugi 750 KGts ni tashkil kilgan. Intel firmaisning sotuvga chikarilgan keyin avlodi i8080 mirkoprotsessori bulgan.

### **i8088**


**i8088** mirkoprotsessorlari 1979 yilda Intel korxonasi tomonidan rejalashtirilgan edi. 1981 yilda esa IBM firmasi ushbu mirkoprotsessorlarni uzining birinchi shaxsiy kompyuterlar avlodi uchun kullagan. Yangi chip urtacha 29000 tranzistorlarni uz ichiga kamrab olgan.

#### **1-Guruuh uchun topshiriq**

Mirkoprotsessorning tuzilishi haqida doklat tayyorlash

#### **2-Guruuh uchun topshiriq**

Mirkoprotsessorlar guruhi haqida doklat tayyorlash



### Test savollari

**1. Pentium PRO mikroprotsessori plata-kartridj kurinishida ishlangan. Unda nechta tranzistor bor?**

- a) 1 mln
- b) 3,7 mln
- c) 4,5 mln
- d) \*5,5 mln

**2. Ikkinci darajali kesh-xotira kaerda joylashgan?**

- a) \*Bosh platada
- b) Microprotsessor ichida
- c) Tashki xotirada
- d) Akustik tizim ichida

## 3-MA’RUZA. MIKROPROTSESSORNING TUZILISHI (2 soat ma’ruza)

### Reja

1. DEQQ yacheykalaridan boshqaruvchi signallarni (impulslarni) o’qish
2. Mikroprotsessorli xotira
3. Asosiy xotiraning fizik strukturasi
4. Diskda ma’lumotni adreslash

Mikroprotsessorning tuzilishini biz asosan birinchi mavzuda ko’rib o’tilgan bo’lsa-da, ayrim qurilmalari ishi bilan kengroq tanishamiz.

*Buyruqlar registri* — eslab qoluvchi registr bo’lib, unda buyruq kodi: bajariladigan amal kodi (BAK) va amalda qatnashuvchi operandlar adreslari saqlanadi. Buyruqlar registri MP ning interfeysli qismida, buyruqlar registrlari blokida joylashgan.

*Amallar deshifratori* — mantiqiy blok bo'lib, u buyruqlar registridan kelayotgan amalning kodiga (BAK) mos ravishda unda mavjud bo'lgan chiqishlardan bitgasini tanlaydi.

*Mikrodasturlarni* doimiy eslab qoluvchi qurilma (DEQQ) o'zining yachevkalarida boshqaruvchi signallarni (impulslarni) saqlaydi, ular SHK bloklarida ma'lumotlarni qayta ishlash amallari jarayonini bajarish uchun kerak. Impuls amallar deshifratori tanlagani bo'yicha amallar kodiga mos ravishda mikroprogrammalarini DEQQ, dan boshqaruvchi signallarning kerakli ketma-ketligini o'qiydi.

*Adresni shakllantirish uzeli* (MP ning interfeysli qismida joylashgan) buyruqlar registridan va MPX registrlaridan keluvchi rekvizitlar bo'yicha xotira yacheykasining (registrining) to'liq adresini hisoblovchi qurilmadir.

*Ma'lumotlarning, adreslarning va ko'rsatmalarning kodli shinalari* — mikroprotsessor ichki interfeysli shinasining qismi.

Umumiy holatda BQ, quyidagi asosiy jarayonlarni bajarish uchun boshqaruvchi signallarni shakllantiradi:

- MPX ning buyruqlar adresining registr-hisoblagichidan dasturning navbatdagi buyrug'i saqlanayotgan TEQQ, yacheykasining adresini tanlab olish;
- TEQQ yachevkalaridan navbatdagi buyruqlar kodini tanlab olish va o'qilgan buyruqni buyruqlar registriga qabul qilish;
- amallar kodini va tanlangan buyruqlar belgilarining nimaligini aytib berish (shifrini ochish);

**Mikroprotsessorli xotira (MPX)** — unchalik katta bo'limgan, lekin o'ta tezkor xotiradir (MPX ga murojaat qilish vaqt, ya'ni bu xotiradan ma'lumotlarni o'qish, qidirish yoki yozish vaqtinan sekundlar — mikrosekundning mingdan bir ulushlari bilan o'lchanadi).

U mashina ishlashining yaqin taktlarida hisoblashlarda qatnashadigan ma'lumotlarni qisqa vaqt saqlash, yozish yoki berish uchun mo'ljallangan; MPX mashinaning yuqori tezkorligini ta'minlash uchun ishlatiladi, negaki asosiy xotira (AX) tez harakat qiladigan mikroprotsessorni samarali ishlashi uchun kerak bo'lgan ma'lumotlarni qidirish, o'qish va yozish tezligini har doim ham ta'minlay olmaydi.

Mikroprotsessorli xotira razryadliligi mashina so'zidan kam bo'limgan tez harakat qiladigan *registrlardan tashkil* topgan. Registrlarni soni va razryadliligi turli mikroprotsessorlarda turlicha: 8086 MP da 14 ta ikki baytli registrlardan to Pentium MP dagi turli uzunlikdagi bir nechta o'nlab registrlargachadir.

*Mikroprotsessor registrlari* umumiy vazifali va maxsus registrlarga bo'linadi.

*Maxsus registrlar* turli adreslarni (xotira segmentlarining adreslari —  $A_{segm}$ , xotira yachevkalarining segmentlar ichida siljish adreslari —  $A_{baza}$ ,  $A_{qayd}$ ,  $A_{sil}$  buyruqlar va b. ), amallarni bajarilish natijalari va SHK ning ish rejimlari belgilarini (masalan, bayroqchalar registri) va b. saqlash uchun ishlatiladi.

*Umumiy vazifali registrlar* universal hisoblanadi va istalgan ma'lumotlarni saqlash uchun ishlatilishi mumkin, lekin ularning ba'zilari bir qator jarayonlarni bajarishda albatga ishlatilgan bo'lishlari shart.

MPX registrlarining tarkibi va vazifalari to'g'risidagi batafsilroq ma'lumotlarni [4] ishda ko'rib chiqish mumkin.

## **Asosiy xotira** **Asosiy xotiraning fizik strukturasi**

*Asosiy xotira ( AX )* o'z ichiga tezkor (RAM — Random Access Memory) va doimiy (ROM — Read Only Memory) eslab qolish qurilmalarini oladi.

**Tez eslab qolish qurilmasi** (TeEQQ SHK ishining joriy bosqichidagi hisoblash jarayonida bevosita qatnashayotgan axborotlarni (dasturlar va qiymatlar) saqlash uchun. mo'ljallangan.

TeEQQ — *energiyaga bog'liq xotira*: kuchlanish uzilganda unda saqlanayotgan ma'lumot yo'qoladi. TeEQQ, asosini yarim o'tkazgichli eslab qolishelementlarining (triggerlarni) matricasini o'z ichiga olgan katta integral sxemalar tashkil etadi. Eslab qoluvchi elementlar matricaning vertikal va gorizontal shinalarining kesishishida joylashgan; ma'lumotlarni yozish va o'qish tanlangan xotira yacheysiga tegishli bo'lgan elementlar bilan ulangan matricaning shinalari bo'yicha elektr impulslarni berish orqali amalga oshiriladi.

Konstruktiv jihatdan tezkor xotira elementlari ayrim xotira modullari ko'rinishda bajariladi — katta bo'lмагan plataga bitta yoki bir nechta mikrosxemalar kavsharlangan.

Qo'llaniladigan modullar tiplari:

— DIP (Dual In Line Package) va SIPP (Single In Line Package), hozir juda kam qo'llanilmoqda;

— SIMM (Single In Line Memory Module); SIMM modullari 256 Kbait, 1, 4, 8, 16, 32 yoki 64 Mbait sig'imga ega, saqlanayotgan bitlar juftligini nazorat qilinadi va nazorat kilinmaydi; kompyuterning bosh platasi raz'jomlariga mos keluvchi 30 - («qisqa» — eskirgan variant) va 72-kontaktli («uzun») raz'jomlarga ega bo'lishi mumkin; uzun modullar RAM EDO xotirasini tashkil etishda ham qo'llaniladi.

— DIMM (Dual In Line Memory Module) — 168-kontaktli raz'jomlarga ega bo'lgan yangi tipdagi moduldир; shunday mos raz'jomlarga ega bo'lgan faqat yangi tipdagi tizimli platalarga o'rnatilishi mumkin. DIMM modullari RAM EDO va SD RAM xotiralarni tashkil etishda qo'llaniladi.

486 MP uchun bosh platalarda 30- va/yoki 72-kontaktli modullar ishlataladi, Pentium-mashinalarda esa odatda 72-kontaktli SIMM modullar yoki 168-kontaktli DIMM modullar qo'llaniladi. 30-kontaktli SIMM modulning uzunligi 10 sm dan oshiqroq, DIMM modulning uzunligi esa 13 sm atrofida. Bosh platala xotira modullarini o'rnatish uchun bir nechta raz'jomlar gURO'hi (banklar) bo'lishi mumkin, bitta bankka bir xil sig'imli bloklarni qo'yish mumkin, masalan, faqat 1 Mbaitdan yoki faqat 4 Mbaitdan, turli xil sig'imli bloklarni faqat turli banklarda o'rnatish mumkin. Ko'pchilik mikrosxemalarda murojaat qilish vaqtি 60 yoki 70 ns; agar bosh plata 60 nanosekundli modullarga mo'ljallangan bo'lsa, unga 70 nanosekundli modullarni o'rnatish mumkin emas, teskarisiga esa mumkin.

Hozir tez saxifali murojaat qilinadigan FPM (Fast Page Mode) xotira bilan bir qatorda Pentium va Pentium Pro MP lari uchun ishlab chiqilgan ko'paytirilgan tezkorlikli DRAM xotirasining ushbu yangi tiplari paydo bo'ldi: RAM EDO (Extented Data Output) va SD RAM (Synchronous DRAM).

**RAM EDO xotirasi** MP uchun qiymatlarni TeEQNing o'qishiga kerak bo'ladigan vaqtini qisqartiradi, xususan, EDO da registr «zanjirlar» to'plani qo'shilgan, ularning hisobotiga chiqishdagi qiymatlar mikrosxemaga keyingi so'rovgacha ushlanib turilishi mumkin (bugungi kunda RAM EDO tipidagi xotira o'rtacha 45 nanosekund murojaat qilish vaqtiga va 264 Mbayt/s processor—xotira qiymatlarni maksimal uzatish tezligiga egadir.

**SD RAM xotirasi** tizim unumdorligini, TeEQQ, ishlash tezligining processor shinasini ishlash tezligi bilan bir-biriga moslashishi hisobiga oshiradi (SD RAM hozir 200 MGc chastotalargacha ishlashi mumkin). Bu xotirada qiymatlarga murojaat qilish vaqt MP ning ichki taktli chastotasiga bog'liqdir va 6—10 ns ga etadi, qiymatlarni processor—xotira bo'yicha maksimal uzatish tezligi 528 Mbayt/s (!) (haqiqatda processor—kesh xotira bo'yicha uzatish tezligiga teng). SD RAM xotirasi SHK ning unumdorligini umumiyligi 25 % ko'paytiradi va ayniqsa jonli videografikalarni ko'rib chiqishda va uch o'lchamli grafika bilan ishlashda qulaydir.

Aslida ta'kidlash kerakki, oxirgi raqam SHK kesh-xotirasiz ishlashga xosdir — kuchli kesh bor bo'lganda unumdorlikdagi yutuq bir necha foizlarni tashkiletishi mumkin.

Xotiraning har bir yacheykasi o'zining yagona adresiga (qolgan hammasidan farq qiladigan) egadir. Asosiy xotira TeEQQ va DEQQ, uchun umumiyligi adres kengligiga egadir.

Adres kengligi asosiy xotiraning bevosita adreslanadigan yacheykalarini imkon boricha maksimal sonini belgilaydi.

*Adres kengligi* adresli shinalar razryadliligiga bog'liqdir, negaki turli adreslarning maksimal soni ikkilik sonlarning har xilligi bilan aniqlanib, bu sonlarni  $p$  ta razryad bilan tasvirlash mumkin, ya'ni adres kengligi  $2p$  ga teng, bu yerda ya — adres razryadliligi.

SHKda asos qilib uzunligi bo'yicha mashina so'zi o'lchaniga teng bo'lgan 16-razryadli adresli kod olingan. 16-razryadli adres kodi bor bo'lganda bevosita jani  $2^{16} \times 65536 \times 64 \text{ K}$  ( $K = 1024$ ) xotira yacheykasini adreslash mumkin. Mana shu segment deb ataluvchi 64 kilobaytli xotira maydoni AX mantiqiy strukturasining asosidir. Ta'kidlash kerakki, *himoya* qilingan rejimda segment o'lchani boshqacha va 64 Kbaytdan birmuncha ko'p bo'lishi mumkin.

Zamonaviy SHK lar (oddiy maishiy kompyuterlardan tashqari) sig'imi 1 Mbaytdan sezilarli katta bo'lgan asosiy xotiraga ega: 1 Mbayt sig'imli xotira AX ning yana bitta muhim strukturali tashkil etuvchisidir — uni *bevosita adreslanadigan xotira* deb atayniz (u faqat *haqiqiy rejim* uchun tegishlidir).

1 M  $\times 2^{20} \times 1048576$  ta bevosita adreslanadigan xotira yacheykalarini adreslash uchun 20 razryadli kod kerakdir, uni SHKda AX yacheykasi adreslarini strukturlashning maxsus uslublarini ishlatib olish mumkin.

Absolyut (to'liq, fizik) adres ( $A_{abs}$ ) bir nechta tashkil etuvchilar yig'indisi ko'rinishida shakllanib, bu tashkil etuvchilardan ko'proq ishlataladiganlari segment adresi va siljish adresidir.

### Test savollari

**1. Aksariyat qurilmalar har bir oniy vaqtida faqat bitta masalaga xizmat kilishi mumkin. qurilmalarning bunday ko'rinishda ishlashi kompyuterdan .....foydalanishga olib keladi.**

- a) tezkor
- b) \*noeffektiv
- c) parallel
- d) ketma-ket

**2. Buyruq protsessori xotiraga yuklanganda doimo xotirada saqlanadigan qismi qanday?**

- a) segment
- b) blokirovka
- c) \*rezident
- d) stek


## 4-MA'RUZA. ARIFMETIK-MANTIQIY QURILMA (2 soat ma'ruza)

### Reja

1. Arifmetik-mantiqiy qurilma qisqacha ma'lumot.
2. Arifmetik-mantiqiy qurilmaning strukturasi
3. Arifmetik- mantikiy qurilmani funktsional tashkil etuvchilari
4. AMQ- ning qo'shish va ko'paytirish amallari algoritmi

**Arifmetik-mantiqiy qurilma (AMK)** — sonli va belgili axborot ustida barcha arifmetik va mantiqiy amallarni bajarish uchun mo'ljallangan (SHK larning ba'zi modellarida amallarni bajarilishini tezlashtirish uchun qo'shimcha matematik soprocessor ulanadi).

*Arifmetik-mantiqiy qurilma (AMK)* —axborotni o'zgartirishni arifmetik va mantiqiy amallarini bajarish uchun mo'ljallangan.




## *Mikroprotsessorli xotira*

Mikroprotsessorli xotira (MPX) — uncha katta bo'lмаган sig'imli, lekin o'ta yuqori tezkor xotira — SHK ning eslab qoluvchi qurilmalari bobida qisqacha ko'rib chiqilgan

### **1. Arifmetik – mantiqiy qurilma va uning vazifalari**

Arifmetik- mantiqiy qurilma arifmetik va mantiqiy operatsiyalarni amalga oshiruvchi qurilmadir.

Arifmetik-mantiqiy qurilma (AMQ)- tomonidan qo'shish, ayirish, ko'paytirish, bo'lish mantiqiy qo'shish va ko'paytirish, siljitisht kabi amallar bajariladi. Fuktsional arifmetik mantiqiy qurilma ikkita registrdan, summator hamda boshqarish sxemalaridan tashkil topgan.



Umumlashgan AMQ sxemasida summator– hisoblovchi sxema sifatida kirish yulidagi ikkilik kodlarni qo'shish uchun xizmat qiladi. Unga ikkilik kodlarni registrlar uzatadi.

### **2. Arifmetik- mantiqiy qurilmaning strukturası**

2-rasmida arifmetik- mantiqiy qurilma blok- sxema ko'rinishida keltirilgan. Arifmetik- mantiqiy qurilma dasturchi murojaati uchun ruxsat etilgan 3 ta 16 bitlik registrga ega:

x,u- operandalar registri;

R- natija registri.

Arifmetik- mantiqiy qurilmaning arifmetik holatda bitni o'tkazuvchi kirish signalidan foydalaniladi.

Arifmetik -mantiqiy qurilma 6-ta statik signalni generatsiyalaydi:

- natija(AZ)
- manfiy(AN)
- o'tkazish(AC)
- natija to'lib-toshishi (AV)

- ishora(AS)
- holati(AQ)


Sikl oxirida arifmetik statusga ega bo‘lgan signallar o‘z holatlarini o‘zgartiradi (ASTAT):

X kirish porti 2-ta manbadan ma’lumot qabul qilishi mumkin:

AX- registr blokining va natijalar shinasidan natijalar shinasi (R) barcha hisoblovchi qurilmalarning kirish registrlarini birlashtiradi.

AX- registrlar bloki ikkita registrdan tashkil topgan:

AX0 va AX1-lar. Bu registrlar DMD shinasi orqali o‘qilishi va yozilishi mumkin.




### 3. Arifmetik- mantiqiy qurilmani funktsional tashkil etuvchilari

Arifmetik- mantiqiy qurilmani funktsional qismi jihatdan ikkiga bo‘lish mumkin:

A) Mikrodasturli qurilma (boshqarish qurilmasi) u mikrobuyruqlar ketma-ketligini beradi.

B) Operatsion qurilma (Arifmetik- mantiqiy qurilma) mikrobuyruqlarni bajaradi.



Arifmetik-

mantiqiy qurilmaning strukturaviyko 'rinishivaboshqamashinaqismlaribilanaloqasiquy idagirasmdakeltirilgan. Arifmetik- mantiqiy qurilmaning tarkibiga Rg1 – Rg7 registrlarkiradi, ularda operativ (tezkor) xotiradankelayotganaxborotqaytaishlanadi.

Axborotni qayta ishlash qonuniyati M mikrokomandas bilan beriladi. U  $A_1, A_2..A_n$  ketma-ketlikdagi mikrokomandalar sifatida yoziladi. Shu yerning o'zida mikrokomandalar ikki xilga farqlanadi:

1). Tashqi mikrokomandalar ya'ni bular arifmetik- mantiqiy qurilmaga tashqi qurilmalardan keladigan buyruqlar;

2). Ichki mikrokomandalar, ya'ni arifmetik- mantiqiy qurilmada yaratiladigan va mikrodastur qurilmasiga ta'sir etadigan. Masalan: arifmetik-mantiqiy qurilma hisoblash natijalariga qarab turib holatlarni generatsiyalashi mumukin. Arifmetik-mantiqiy qurilmada hisoblashlar natijalari  $u_1, u_2..u_n$  kodli shinalar orqali beriladi.(rasm.)

Arifmetik -mantiqiy qurilma tarkibiga kiruvchi registrlar funktsiyalari:

Rg1- summator, arifmetik -mantiqiy qurilmaning asosiy registri, unda hisoblash natijalari yaratiladi.

Rg2, Rg3- qo'shiluvchi, ko'payuvchi, bo'luvchi registrlari.

Rg4- adresli registr operandalar adresini va natija adresini eslab qolishga mo'ljallangan.

Rg6- adreslarni tashkillashtirish uchun kerakli indeksli registr. Rg7- qo'shimcha yordamchi registr, u dastur xohishiga qarab akkumulyator, indeksli registr yoki oraliq natijalarni eslab qoluvchi xotira sifatida ishlatalishi mumkin.

Operativ registrlar bir qismi dasturiy murojaatli hisoblanadi, ya'ni ular buyruqlar bilan adreslanishi mumkin.

Ularga quyidagilar kiradi: 1) summator. 2) Indeksli registr

3) Ba'zi yordamchi registr

Qolgan registrlar dasturiy murojaatga tegishli emas, ya’ni ular dasturda adreslanishi mumkin emas. Operatsion qurilmani qayta ishlanadigan ko‘rinishiga qarab klassifikatsiyalash mumkin.

Arifmetik-mantiqiy qurilmaning to‘liq kvalifikatsiyasi chizmada keltirilgan. Arifmetik- mantiqiy qurilmaning mantiqiy strukturasining qiyinligini arifmetik-mantiqiy qurilmaga qo‘yilgan masalani yechishda ishlatiladigan mikrodasturlar, ko‘pligi bilan tushuntiriladi.

Har bir registrning kirish yo‘liga tegishli mantiqiy sxemalar yig‘ilgan. Ular registrlararo muloqotni qo‘llashda ishlatiladi.

So‘zlar ustida olib boriladigan operatsiyalarni bajarilishi so‘zлarni o‘zgartiradigan va arifmetik-mantiqiy qurilmada so‘zлarni yetkazadigan mikrobuyruqlarga olib boriladi. Mikrobuyruqlarning bajarilish tartibi bajariladigan operatsiyalar algoritmi bilan aniqlanadi. Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, arifmetik- mantiqiy qurilma registrlar va ular bajaradigan funktsiyalar bo‘ladigan operatsiyalarning uslubiga bog‘liq: arifmetik- mantiqiy, maxsus arifmetik.

Arifmetik-mantiqiy qurilma bajaradigan operatsiyalar ro‘yxati raqamli hisoblash mashinasi turiga bog‘liqdir.

Shu tariqa arifmetik-mantiqiy qurilma strukturası berilgan arifmetik- mantiqiy va maxsus operatsiyalarni bajarilishi bilan belgilanadi. Arifmetik-mantiqiy qurilma qurilishi esa mikrodasturlarda bajariladigan mikrobuyruqlar bilan belgilanadi. Arifmetik- mantiqiy qurilmaning undanda soddarоq sxemasini olish uchun arifmetik- mantiqtsiy operatsiyalardan eng minimalini tanlash lozim. Bunda arifmetik-mantiqiy qurilmaning berilgan tezkorligini hisobga olish zarur.

#### **4. Arifmetik-mantiqiy qurilmaning qo‘sish va ko‘paytirish amallari algoritmi**

Mikrodasturning sxematik ko‘rinishi rasmda keltirilgan. Ushbu algoritm quyidagilardan tashkil topgan:

1. Birinchi qo‘siluvchi Rg1- da joylashadi, uning ishorasi tahlildan o‘tadi, agar ishora manfiy bo‘lsa, operand Rg3-ga yuboriladi, agar musbat bo‘lsa, inversiyasiz Rg2 va Rg3-ga uzatiladi.
2. Ikkinci qo‘siluvchi ham Rg1-ga keladi va uning ishorasi tekshiriladi, agar ishora manfiy bo‘lsa operand invertsiyadan o‘tadi aks holda Rg2-- dagi operandlar yig‘indisi hisoblanadi(summator).
3. Qo‘silgandan keyin natija ishorasi tekshiriladi, agar natija manfiy bo‘lsa, u invertsiyadan o‘tkaziladi, agar musbat bo‘lsa +1 qo‘siladi.
4. Mashina razryad setkasi to‘lishi yuz bersa  $\varphi$  to‘lib toshish holati bajariladi, aks holda qo‘sish mikrodasturining oxirida boriladi.

Endi ko‘paytirish algoritmini ko‘rib o‘tamiz. Fiksirlangan vergulli ikkilik sonlarni ko‘paytirishni surilish va qo‘sishlar ketma – ketligi ko‘rinishida ifodalash mumkin.

Quyidagi algoritm eng qulay va ixchamroq hisoblanadi. Ko‘paytirish ko‘paytmaning kichik razryadlaridan boshlanadi, ular unga suriladi, qisman yig‘indilar summasi ham o‘ngga suriladi, kupaytuvchi joyida qoladi (rasm).

1. Boshida barcha registrlar 0 holatiga keltiriladi.
2. Ko‘payuvchi va ko‘paytuvchi tegishli registrlarda joylashadi, shuningdek qisman yig‘indalar alohida regisrlarga ajratiladi.
3. Kupaytuving kichik razryadi tekshiriladi, agar u 1 bo‘lsa u holda qisman yig‘indiga ko‘payuvchi qo‘shiladi.
4. Qisman yig‘ilgan summa va ko‘paytma bir razryad o‘ngga siljiydi.
5. 3 va 4 amallar n marta takrorlanadi.

Algoritmdan ko‘rinib turibdiki, bunday ketma-ketlikda amallarni bajarish qurilmaning vaqtini tejaydi.

### Test savollari

**1. . . . dasturi xotira va tashqi qurilmalar orasidagi kiritish-chiqarish operatsiyalarini boshqaradi?**

- a) \* IO.SYS
- b) MSDOS.SYS
- c) COMMAND.COM
- d) SYS.COM

**2. Apparat qurilmalarini boshqarish uchun buyruqlarni saqlovchi maxsus dastur yoki fayl... deyiladi?**

- a) OT
- b) \* qurilmalar drayveri
- c) diskvod
- d) xotira

## 5-MA’RUZA. REGISTRALAR (2 soat ma’ruza)

### Reja

1. Registrlar haqida boshlang‘ich ma’lumotlar.
2. Interfeys va Kiritish-chiqarish porti haqida tushunchasi.
3. Mikroprotsessor registrlari va turlari.
4. Registrli kesh-xotira va mikroprotsessorli xotira (MPX)haqida.

**Registr-** qurilmalarning o‘ziga xos tengliklar birlashmasini angladatadi, ularning vazifasi ma’lumotlarni saqlash hamda ma’lumotlarga tezkor murojat kilish imkoniyatini beradi.

**Interfeys** (interface) — kompyuter qurilmalarini o‘zaro moslash va aloqa qurilmalari to’plani bo’lib, ularning o‘zaro samarali ishlashini ta’minlaydi.

**Kiritish-chiqarish porti** (I/O port) — ulash texnikaviy urasi bo’lib, mikroprotsessorga boshqa qurilmalarni ulash imkonini beradi.

Taktli impulslar generatori chastotasi shaxsiy kompyuterning asosiy tavsiflaridan biri hisoblanadi va ko'p jihatdan uning ishlash tezligini aniqlaydi, negaki mashinadagi har bir amal ma'lum taktlar soni davonida bajariladi.

Mikroprotsessorli xotira razryadliligi mashina so'zidan kam bo'lмаган tez harakat qiladigan registrlardan tashkil topgan. Registrlarni soni va razryadliligi turli mikroprotsessorlarda turlicha: 8086 MP da 14 ta ikki baytli registrlardan to Pentium MP dagi turli uzunlikdagi bir nechta o'nlab registrlargachadir.

*Mikroprotsessor registrlari* umumiyl vazifali va maxsus registrlarga bo'linadi.

*Maxsus registrlar* turli adreslarni (xotira segment larining adreslari —  $A_{segm}$ , xotira yacheykalarining segmentlar ichida siljish adreslari —  $A_{baza}$ ,  $A_{qayd}$ ,  $A_{sil}$  buyruqlarva b.), amallarni bajarilish natijalari va SHKning ish rejimlari belgilarini (masalan, bayroqchalar registri) va b. Saqlash uchun ishlatiladi.

*Umumiy vazifali registrlar* universal hisoblanadi va istalgan ma'lumotlarni saqlash uchun ishlatilishi mumkin, lekin ularning ba'zilari bir qator jarayonlarni bajarishda albatga ishlatilgan bo'lishlari shart.

MPX registrlarining tarkibi va vazifalari to'g'risidagi batafsilroq ma'lumotlarni [4] ishda ko'rib chiqish mumkin.

MPX registrlarining tarkibi va vazifalari to'g'risidagi batafsilroq ma'lumotlarni [4] ishda ko'rib chiqish mumkin.

*Registrlar* turli uzunlikdagi tez harakat qiluvchi xotira yacheykalaridir: Registr 1 (Rg 1) ikkilangan 30'z razryadliligiga, Registr 2 (Rg 2) esa so'z razryadliligiga egadir.

Amallarni bajarishda Rg1 ga amalda qatnashuvchi birinchi son, amal tugagandan keyin esa natija joylashtiriladi; Rg2 ga — amalda qatnashuvchi ikkinchi son joylashtiriladi (amal tugagandan keyin undagi ma'lumot o'zgarmaydi). Registr 1 ma'lumotlarni kodli shinalaridan qabul qilishi va unga ma'lumotlarni berishi mumkin; registr 2 bu shinalardan ma'lumotlarni faqat olishi mumkin.

*Registrlar* kesh-xotira — nisbatan katta sig'imli yuqori tezlikli xotira bo'lib, u AX va MP o'rtasida buferdir va amallar bajarish tezligini oshirish imkonini beradi. Uni berish generatorining taktli chastotasi 40 MG c va undan yuqori bo'lgan SHK larda yaratish maqsadga muvofiqdir.

Kesh-xotira registrlariga foydalanuvchi murojaat etaolmaydi, shuning uchun ham uni kesh (Cache) deb nomlangan, bu ingliz tilidan tarjima qilganda «maxfiy joy» ma'nosini bildiradi.

Kesh-xotirada MP olgan yoki o'z ishining yaqin taktlarida oladigan qiymatlar saqlanadi, bu qiymatlarga tezda murojaat qilish dasturning navbatdagi buyruqlarini bajarish vaqtini qisqartirish imkonini beradi. Dasturning bajarilish vaqtida AX dan birmuncha ilgari uqilgan qiymatlar kesh-xotiraga yoziladi.

Natijalarni yozish prinstipi bo'yicha kesh-xotiraning ikki tipi bor:

- «teskari yoziladigan» kesh-xotirada amallarning natijalari u AX ga yozilishidan oldin kesh-xotirada qayd qilinadi, keyin esa kesh-xotira nazoratchisi bu qiymatlarni mustaqil ravishda AX ga qaytadan ko'chirib yozadi;

- «to'g'ridanto'g'riyoziladigan » kesh-xotirada amallarning natijalari bir vaqtning o'zida parallel ravishda ham kesh-xotiraga, ham AX gayoziladi.

80486 MP lardan boshlab mikroprotsessorlar o'zining *sozlangan xotirasiga* (*yoki 1-darajali kesh-xotiraga*) ega, shu bilan, xususan, ularning yuqori unumдорлиги келиб чиқади. Pentium va Pentium Pro mikroprotsessorlari qiymatlar uchun alohida va buyruqlar uchun alohida kesh-xotiraga ega: Pentium da bu xotira sig'imi katta emas — 8 Kbaytdan, Pentium MMX da — 16 Kbaytdan, Pentium Pro da 1-darajali kesh-xotiradan tashqari, mikroprotsessor platasiga sozlangan va mikroprotsessorning takli chastotasida ishlaydigan, sig'imi 256 yoki 512 Kbayt bo'lgan 2-darajali kesh-xotira ham mavjuddir.

Shuni inobatga olish kerakki, hamma MP larda **2-darajali** qo'shimcha kesh-xotira ishlatalishi mumkin, u MP dan tashqarida bosh platada joylashtiriladi va sig'imi bir necha megabaytlargacha etishi mumkin.

*I*zox, Tezkor xotira dinamik (Dynamic Random Access Memory — DRAM) yokistatik (Static Random Access Memory — SRAM) tipidagi mikrosxemalarda qurilishi mumkin. Xotiraning statik tipi sezilarli darajada yuqoriroq tezkorlikka ega, lekindinamiktipga qaraganda qimmatroqdir. SRAM registrli xotiraning (MPX vakesh-xotira) asosihisoblanadi, asosiy xotirada TeSKJK, ning asosini odatda DRAM-mikrosxemalartashkil etadi.

Protsessor tarkibida o'n ikkita 16 razryadli programmoviy adreslanuvchi registrlardan iborat.

### Berilganlar registrlari

<b>AX</b>	Akkumlyator
AH   AL	
<b>BX</b>	Baza registri
BH   BL	
<b>CX</b>	Sanagich
CH   CL	
<b>DX</b>	Berilganlar registri
DH   DL	

### Ko'rsatgich registrlari

<b>SI</b>	Manba indeksi
<b>DI</b>	Qabul indeksi
<b>BP</b>	Baza ko'rsatgichi
<b>SP</b>	Stek ko'rsatgichi

### Segment registrlari

<b>CS</b>	Buyruq segmenti registri
<b>DS</b>	Berilganlar segmenti registri
<b>SS</b>	Stek segmenti registri
<b>ES</b>	Qo'shimcha berilganlar segmenti registri

## Boshqa registrlar

IP	Buyruq ko‘rsatgichi
FLAGS	Bayroqlar registri

### Protsessor registrlari

Ularni uch guruhgaga ajratish mumkin: *berilganlar registrlari*, *registr ko‘rsatgichlar* va *segment registrlari*. Berilganlar registrlari va ko‘rsatgich registrlari umumiy registrlar deyiladi. Bundan tashqari protsessorga buyruq ko‘rsatgichi va bayroq registri kiradi.

Berilganlar registrlariga to‘rtta registr: *AX*, *BX*, *CX* va *DX* registrlar kiradi. Programma tuzuvchi bu registrdan o‘z hohishiga ko‘ra turli programma ob’ektlarni (berilganlar va adreslarni) saqlashda va ular ustida amallar bajarishda fyodalanishi mumkin. Bundan tashqari bu registr bir-biriga bog‘liqmas ravishda *kattayarmiga* (*AH*, *BH*, *CH* va *DH*) va *kichik yarmiga* (*AL*, *BL*, *CL*, va *DL*) murojaat qilishi mumkin. Masalan, *movBL*, *AH* buyrug‘ida *BX* registrining kichik baytiga *AX* registrining katta bayti uzatiladi. Buyruqda oldin *qabul qiluvchi* operand verguldan keyin operand- *manba* yoziladi.

Berilganlar registrlari umuman olganda teng kuchli (ekvivalent), lekin ko‘p hollarda *AX* registri ishlatiladi. Ayrim buyruqlar *AX* (yoki uning yarmi *AL*) ishlatilsa tezroq bajariladi. Boshqa tomondan, shunday buyruqlar borki, oshkormas ravishda ma’lum bir registrlarni ishlatadi, masalan, takrorlash buyruqlari takrorlash qadamini sanash uchun *SX* registrini ishlatadi. Xuddi shunday ko‘paytirish va bo‘lish amallari *AX* va *DX* registrlarini ishlatadi, o‘qish-yozish amallarini faqat *AX* va *AL* registrlari orqali amalga oshirish mumkin va hakoza.

Xuddi shunday *SI* va *DI* registralari ham har xil maqsadda ishlatilishi mumkin, lekin ularni asosiy vazifasi - xotiradan operandni tanlashda indekslarni yoki biror bazaga nisbatan (massiv boshiga nisbatan) siljishni saqlashdir. Bunda baza adresi *VX* yoki *VR* baza registrlarida bo‘lishi mumkin. Satr bilan ishlashda *SI* va *DI* registrlar qayta ishlanayotgan satrlar ko‘rsatgichi sifatida ishlatiladi. *BP* registr stek ko‘rinishdagi strukturalarda baza ko‘rsatgichi sifatida ishlatiladi, lekin u boshqa arifmetik va mantiqiy amallarda ham ishlatilishi mumkin. *SP*-maxsus registr bo‘lib, u faqat stek uchini ko‘rsatish uchungina ishlatiladi. Buyruq ko‘rsatgichi *IP* “*programma bajarilishini kuzatib*” boradi, ya’ni bajarilayotgan buyruqdan keyingi buyruqning nisbiy adresini ko‘rsatib turadi. IP registriga programmadan murojaat qilish mumkin emas. *IP*- bu registrning qisqartirilgan nomi, programmadagi mnemonik nom emas. *IR* registr qiymatini o‘zgartirishni mikroprotsessorning o‘zi amalga oshiradi.

*Bayroqlar registri* (uni *FLAGS* deb nomlashadi) bilan protsessor holati haqida ma’lumotni o‘zida saqlaydi. Unda 6 ta holatlar razryadli, 3 ta protsessor ishlashini boshqarish razryadlari bo‘ladi.

15	14	13	12	11	10	09	08	07	06	05	04	03	02	01	00
				O F	D F	IF	TF	SF	ZF		A F		PF		CF

**Bayroqlar registri** holatlar bayrog‘i protsessor tomonidan har bir navbatdagi amal bajarilganda o‘zgartiriladi. Bu holat bo‘yicha bajarilgan buyruq haqida mulohaza yuritish mumkin.

*CF (Carry Flag)* - o‘tishbayrog‘i. Arifmetik amallar bajarilganda olib o‘tish (yoki olish) holati yuz bergenligini bildiradi. Olib o‘tish holati deb buyruq bajarilishi natijasida 16 ta ikkilik razryaddan ortiq joy egallovchi son hosil bo‘lgan holatiga aytildi, ya’ni son registr yoki xotira katagiga sig‘may qoladi. Aytaylik, AX registrida 60000 soni, VX- 40000 bo‘lsin. Qo‘shish amalini bajarish buyrug‘i

addAX, BX

bajarilganda qabul qiluvchi AX registrida 100000 soni hosil bo‘lishi kerak va bu son AX registriga sig‘maydi. Bunday holat ro‘y bergenligini CF razryadidagi 1 qiymati bildiradi, chunki AX registrida  $100000-65536=34464$  soni, ya’ni noto‘g‘ri natija hosil bo‘ladi.

Shuni ta’kidlash kerakni, programma bajarilishida ro‘y bergen xatolar hech qanday oqibatlarga olib kelmaydi. Bunday holatlarni boshqarish programma tuzuvchisi zimmasiga yuklanadi. Yuqorida holat uchun maxsus jc (*jampifcarry* - olib o‘tish bo‘lsa, o‘tish) buyrug‘i mavjud.

addAX, BX

*jcerror ; xato bo‘lsa error nishoniga o‘tilsin*

*... ; normal holatda davom etish*

*PF (ParityFlag)*- paritet bayrog‘i. Agar amal natijasida 1 son miqdori juft bo‘lsa 1 qiymatni qabul qiladi, aks holda 0. Bu bayroqdan berilganlarni uzatishdagi xatolikni aniqlashda foydalanish mumkin.

*AF (AuxiliaryFlag)* - yordamchi o‘tish bayrog‘i. *Ikkilik-o‘nlik ko‘rinishidagi sonlar* ustida amal bajarilganda ishlatiladi va u katta 4 bitdan o‘tish ro‘y bergenligini bildiradi. Ikkilik-o‘nlik usulida bayt yarmida (4 bitda) o‘nlik raqamning ikkilik kodi saqlanadi. Bunda bir baytda 0 dan 99 gacha bo‘lgan sonlarni saqlash mumkin.

Ikkilik-o‘nlik ko‘rinishdan o‘lchash qurilmalari bilan ma’lumot almashish uchun ishlatiladi. Bu sonlar uchun maxsus buyruqlar aniqlangan. Bu buyruqlar bajarilganda AF bayrog‘i holatini tekshirishga to‘g‘ri keladi.

*ZF (ZeroFlag)*- nol bayrog‘i. Amal natijasi 0 bo‘lsa ZF=1. Masalan, 5 dan 5 ayirish, 20 ga -20 ni qo‘shish amalida.

*SF (Sign Flag)* - ishora bayrog‘i. Bayroq qiymati 1 bo‘ladi, agar amal natijasi manfiy son bo‘lsa. Umuman olganda, protsessor sonlarni ishorasiz hamda manfiy va musbat bo‘lishi mumkin bo‘lgan ishorali butunlarni bir-biridan ajrata oladi. Ishorali sonning manfiylig alomati - katta razryadda 1 bo‘lishi (15 razryadda yoki 7 razryadda). Masalan, ishorali butun sonlar uchun 8000h...FFFFh oralig‘idagi sonlar manfiy hisoblanadi).

*OF (Overflow Flag)* - to‘lib ketish bayrog‘i. Ishorali sonlar uchun natijani chegaradan chiqib ketishini fiksirlaydi. Masalan musbat sonlar 7FFFh dan oshmasligi kerak. Ikkita musbat sonlarni qo‘shishda manfiy son hosil bo‘lsa (natija

7FFFh sonidan katta katta bo'lsa) yoki manfiy sondan ayirishda natija 8000h sonidan kichik bo'lsa OF=1 bo'ladi.

Boshqaruv bayroqlari real rejim bayroqlari registrida uchta.

*TF (TraceFlag)* - trassirovka bayrog'i. Programmani qadamlab bajarishni ta'minlaydi. TF=1 bo'lsa, har bir buyruq bajarilgandan keyin 1 nomerli vektor bo'yicha uzilish bajariladi (04 fizik adresdagi). Bu bayroq sozlash programmalarida boshqa programmalarini qadamlab bajarishni tashkil qilishda keng foydalaniladi.

*IF (Interrupt Flag)* - uzilish bayrog'i. Protssessor tomonidan tashqi qurilmalardan bo'ladigan uzilishlarga aks ta'sir qilish (IF=1) yoki qilmaslik (IF=0) shartini aniqlaydi. Bu orqali programmalarining juda muhim qismlarini tashqi ta'sirsiz bajarish imkon tug'iladi.

*DF (Direstion Flag)* - yo'nalishni boshqarish bayrog'i. Satrlarni qayta ishlash buyruqlarida qo'llaniladi. Agar DF=0 bo'lsa, satrkichikadreslardan katta adrestomonto'g'riyo'nalishda, aks holdateskariyo'nalishda qaytaishlanadi.

Boshqaruv bayroqlarini «*o'rnatish*» va “*tashlab yuborish*” uchun maxsus buyruqlar mavjud; Masalan, *sti* (set interrupt - uzilishlarni o'rnatish) vaungateskaricli (clear interrupt - uzilishlarni “*tashlab yuborish*”) buyruqlari IF bayrog'i qiymatini o'rnatadi.

**Mikroprotsessorli xotira (MPX)** — unchalik katta bo'limgan, lekin o'ta tezkor xotiradir (MPX ga murojaat qilish vaqtiga, ya'ni bu xotiradan ma'lumotlarni o'qish, qidirish yoki yozish vaqtiga nanosekundlar — mikrosekundning mingdan bir ulushlari bilan o'lchanadi).

U mashina ishlashining yaqin taktlarida hisoblashlarda qatnashadigan ma'lumotlarni qisqa vaqt saqlash, yozish yoki berish uchun mo'ljallangan; MPX mashinaning yuqori tezkorligini ta'minlash uchun ishlatiladi, negaki asosiy xotira (AX) tez harakat qiladigan mikroprotsessorni samarali ishlashi uchun kerak bo'lgan ma'lumotlarni qidirish, o'qish va yozish tezligini har doim ham ta'minlay olmaydi.

Mikroprotsessorli xotira razryadliligi mashina so'zidan kam bo'limgan tez harakat qiladigan *registrlardan tashkiltopgan*.

Registrlarni soni va razryadliligi turli mikroprotsessorlarda turlicha: 8086 MPda 14 ta ikki baytli registrlardan to Pentium MP dagiturlari uzunlik dagi birnechta o'nlab registrlargachadir.

*Mikroprotsessor registrlari* umumiyligi vazifali va maxsus registrlarga bo'linadi.

*Maxsus registrlar* turli adreslarni (xotira segmentlarining adreslari —  $A_{segm}$ , xotira yacheykalarining segmentlar ichida siljish adreslari —  $A_{baza}$ ,  $A_{qayd}$ ,  $A_{sil}$  buyruqlar va b. ), amallarni bajarilish natijalari va SHKning ish rejimlari belgilarini (masalan, bayroqchalar registri) va b. saqlash uchun ishlatiladi.

*Umumiy vazifali registrlar* universal hisoblanadi va istalgan ma'lumotlarni saqlash uchun ishlatilishi mumkin, lekin ularning ba'zilari bir qator jarayonlarni bajarishda albatga ishlatilgan bo'lishlari shart.

MPX registrlarining tarkibi va vazifalari to'g'risidagi batafsilroq ma'lumotlarni ishda ko'rib chiqish mumkin.

## **Test savollari**

### **1. Dastlabki 640 Kbayt xotira ... xotira deb ataladi?**

- a) Kesh
- b) Yuqori
- c) Katta
- d) \* Asosiy

### **2. Jarayonlarni bajarish uchun operatsion tizim ... dan joy ajratadi?**

- a) Doimiy xotira qurilmasi
- b) Tashqi xotira qurilmasi
- c) \* OZU tezkor xotira qurilmasi
- d) KESh xotira

## **6-MA’RUZA. PENTIUM MIKROPROTSESSORLARIDA REGISTRALAR BLOKI (2 soat ma’ruza)**

### **Reja**

1. Pentium mikroprotsessorlarida regisrlar bloki
2. Pentium Pro mikroprotsessorlari
3. Pentium MMX mikroprotsessorlari
4. Pentium II mikroprotsessorlari

80586 (R5) mikroprotsessorlari Intel firmasi tomonidan patentlangan Pentium tavar markasi bo'yicha ko'proq ma'lumdir (boshqa firmalarning 80586 MP boshqacha belgilanishga ega: AMD firmasida K5, Cyrix firmasida M1 va b.). Bu mikroprotsessorlar besh pag'onali konveyerli strukturaga ega bo'lib, u ketma-ket buyruqlarning bajarilish taktlarini ko'p marotaba birgalikda ishlashini ta'minlaydi va yana boshqarishni shartli uzatish buyruqlari uchun kesh-buferga ega bo'lib, u dasturlarni tarmoqlanish yo'nalishini oldindan aytish imkonini beradi; samarali tezkorligi bo'yicha ular har bir buyruqni go'yoki bir takt ichida bajaradigan RISC MP lariga yaqinlashadi. Pentium 32razryadli adresli shinaga va 64-razryadli ma'lumotlar shinasiga egadir. Tizim bilan qiymatlarni almashish sekundiga 1 Gbayt tezlik bilan bajarilishi mumkin.

Hamma Pentium MPlarida har biriga 16 Kbaytdan alohida buyruqlar uchun, alohida ma'lumotlar uchun sozlangan kesh-xotira va 2-darajali kesh-xotiraning sozlangan nazoratchisi (bu nazoratchini MPning ichki chastotasida ishlashini ta'minlaydi) bor; maxsuslashgan konveyerli texnikaviyli qo'shish, ko'paytirish va bo'lish bloklari bor bo'lib, ular siljib yuradigan nuqtali amallarning bajarilishini jiddiy tezlashtiradi.



## Pentium Pro mikroprotsessorlari

1995 yil sentyabrda savdo markasi Pentium Pro bo'lgan 80686 (R6) MP ning taqdimot marosini bo'ldi va savdoga chiqarildi.

Mikroprotsessor 2 ta kristalldan: MP ni o'zidan va kesh-xotiradan tashkil topgan. Lekin u Pentium bilan to'liq mos kelmaydi va xususan, maxsus tizimli platani talab etadi. Pentium Pro 32-bitli ilovalarda yaxshi ishlaydi, 16-bitli ilovalarda esa xattoki Pentium ga birmuncha yutkazadi.

Yangi sxematenxik echimlar tufayli ular SHKlar uchun yanada yuqoriroq unumdoorlikni ta'minlaydi. Bu yangiliklarning bir qismi "dinamik bajarilish" (dynamic execution) tushunchasi bilan birlashtirilishi mumkin, bu 14 ta pag'onali superkonveyerli struktura (superpi pelining), boshqarishni shartli uzatishlarda dasturning tarmoqlanishini oldindan aytish (branch prediction) va mo'ljallangan tarmoqlanish yo'li bo'yicha (speculative execution) buyruqlarning bajarish borligini bildiradi.

Izox, ko'p masalalarni, ayniqsa iqtisodiy masalalarni echish dasturlarida ko'p sonli boshqarishni shartli uzatishlar mavjud. Agar processor o'tish, tarmoqlanish yo'nalishini oldindan ayta olsa, u holda uning ish unumdoorligi hisoblash konveyerlarini yuklashni optimallashtirish hisobiga sezilarli ortadi. Pentium Pro processorida oldindan to'g'ri aytish ehtimolligi 90%, Pentium da esa 80%.

256 — 512 Kbayt sig'imli kesh-xotira — Pentium processorlaridagi yuqori unumli tizimlarning majburiy xususiyatidir. Lekin ularda sozlangan kesh-xotira katta bo'limgan (16 Kbayt) sig'imga ega, uning asosiy qismi esa processordan tashqarida asosiy platada joylashadi.

Shuning uchun u bilan ma'lumotlar almashish MP ning ichki chastotasida emas, balki odatda 2-3 marta past bo'lgan taktli generator chastotasida amalga oshiriladi, buesa kompyuterning umumiyligini tezkorligini pasaytiradi. Pentium Pro MP da 1-darajali kesh-xotira ham (8 Kbayt dan buyruqlar va qiymatlar uchun) va 256 yoki 512 Kbayt sig'imli 2-darajali kristall kesh-xotira ham bor bo'lib, ular mikroprotsessorning o'zini platasida joylashgan va MP ning ichki chastotasida ishlaydi.

## Pentium MMXva Pentium II mikroprotsessorlari

1997 yil ning yanvarida va iyunida multimedia texnologiyasida ishlash uchun modernizatsiya qilingan va mos ravishda Pentium MMX (MMX — Multi Media eXtention) va Pentium II savdo markalarini olgan Pentium Pro mikroprotsessorlarining taqdimot marosimi bo'ldi.

Pentium MMX MP audio- va videoma'lumotlarni qayta ishlashga mo'ljallangan qo'shimcha 57 ta buyruq, ikki marta kattalashgan (32 Kbait gacha) kesh-xotira, Pentium Pro MP dan olingan tarmoqlanishlarni oldindan aytish yangi blokini va b. o'z ichiga oladi. SHuning hisobiga unda Pentium MP ga nisbatan 1 millionta tranzistorli element ko'proqdir.

Bu mikroprotsessorlarn samarali ishlatish uchun barcha eski dasturlarga (shu jumladan WINDOWS 95, WINDOWS NT operatsion tizimlariga ham) moslashtiruvchi dasturli lavhalarni qo'shish kerak; aslida esa, ularsiz ham Pentium MMX MP oddiy Pentium MP dan birmuncha unumliroqdir. Pentium MMX MP oddiy ilovalarni bajarishda Pentium MPga qaraganda 10-15% tezkorroqdir, yangi 57 ta buyruqni ishlatib multimedia ilovalarini bajarishda esa u 30%ga tezkorroqdir (taqqoslash uchun Pentium Pro MP oddiy ilovalarni bajarishda Pentium MP ga qaraganda, taxminan 20% tezkorroqdir). Pentium MMXning xonalarini hisobga olgan holla yozilgan dasturlar oddiy Pentium MP li SHK larda ishlay olmaydi.

Pentium MMX MP uchun Socket 7 raz'yomli (ajratgich), MMX qo'llab-quvvatlaydigan yangi BIOS li va ikkita ta'minot kuchlanishli (2, 8 va 3, 5 V) tizimli plata talab etiladi.

Pentium II MP boshqa hamma MP larga nisbatan o'zgacha tuzulishga ega, xususan, u uncha katta bo'limgan plata-kartrij ko'rinishida bajarilgan bo'lib, unga processoring o'zi (Pentium Pro da 5, 5 mln ta tranzistor bo'lsa, unda 7, 5 mln ta tranzistor bor) va umumiy hajmi 512 Kbait bo'lgan ikkincha darajali kesh-xotiraning to'rtta mikrosxemasi joylashdirilgan. Processoring o'z mikrosxemasida joylashgan 1-darajali kesh-xotira Pentium Pro MP da bor bo'lgan 16 Kbait o'rniga 32 Kbait sig'imga ega, lekin 2-darajali kesh-xotira MP ning ichki chastotasida emas, balki ikki marta kichik chastotada ishlaydi.

Pentium II MP 0, 35 mikronli texnologiya asosida ishlab chiqariladi va 2, 8 V ta'minot kuchlanishini ishlatadi. Uning uchun, tabiiyki, boshqa barcha Pentium larga nisbatan o'zgacha tizimli plata talab etiladi.

## Test savollari

### 1. Buyruq protsessori faylini ko'rsating?

- a) BIO.COM
- b) DOS.COM
- c) \* COMMAND.COM
- d) MODE.COM

### 2. ...xotira uzida EXMdagi ishlatilayotgan ma'lumotlarni saqaydi?

- a) doimiy
- b) kesh
- c) tashqi
- d) \* tezkor

## **7-MAVZU: SHAXSIY KOMPYUTERLARNING TA'MINOTI HAQIDA TUSHUNCHА, TEXNIKAVIY VA DASTURIY TA'MINOT**

**(2 soat ma'ruza).**

### **Reja**

1. Kompyuterlarning rivojlanish tarixi.
2. Kompyuterning avlodlari.
3. Zamonaviy kompyuterlar va ularning turlari.
4. Dasturiy ta'minot haqida tushuncha.

O'tgan asrning 40-yillaridan boshlab universal EHM larning davri boshlandi desa bo'ladi. Ularning taraqiyotini avlodlarga bo'lib o'rganish tajribasi keng qo'llanib kelingan. Ayni paytda EHMDa qo'llanilgan radiotexnik elementlar bazasi hamda dasturiy ta'minoti kabi tasnif belgilari bo'yicha avlodlarga ajratishdan ham foydalanilgan. Lekin yana bir tasnif belgisi — EHMning arxitekturasidagi farqiga qarab ham u yoki bu avlodga ajratish maqsadga muvofiqdir. Bunga oid gapni «bazaviy EHM»ning arxitekturasi, ya'ni abstrakt modelidan boshlaymiz.


Dastlabki EHM larning yaratilishi davrida, mashxur matematik Jon fon Neyman 1945 yildayoq kompyuter qurilmalari ma'lumotlarni qayta ishlash uchun qanday tarzda universal va maqbul bo'lishi kerakligini aytib o'tgan edi. Shu bois kompyuter tuzilishining asoslari fon Neyman printsipi deb yuritiladi. Deyarli barcha zamonaviy (EHM) kompyuterlar mazkur printsip asosida ishlaydi.

- \* Arifmetik- mantiqiy qurilma – arifmetik va mantiqiy amallarni bajaradi.
- \* Boshqarish qurilmasi - dastur bajarilish jarayonini tashkil qiladi va barcha boshqaruv vazifalarini bajaradi.
- \* Yodda saqlash qurilmasi yoki joriy xotira – ma'lumot yoki dasturlarni o'zida saqlaydi.
- \* Tashqi qurilmalar ma'lumotlarni kiritish va chiqarishni taminlaydi.

Dastlabki EHM larning yaratilishi davrida, mashxur matematik Jon fon Neyman 1945 yildayoq kompyuter qurilmalari ma'lumotlarni qayta ishlash uchun qanday tarzda universal va maqbul bo'lishi kerakligini aytib o'tgan edi. Shu bois kompyuter tuzilishining asoslari fon Neyman printsipi deb yuritiladi. Deyarli barcha zamonaviy (EHM) kompyuterlar mazkur printsip asosida ishlaydi.


- \* Arifmetik- mantiqiy qurilma – arifmetik va mantiqiy amallarni bajaradi.
- \* Boshqarish qurilmasi - dastur bajarilish jarayonini tashkil qiladi va barcha boshqaruv vazifalarini bajaradi.
- \* Yodda saqlash qurilmasi yoki joriy xotira – ma'lumot yoki dasturlarni o'zida saqlaydi.
- \* Tashqi qurilmalar ma'lumotlarni kiritish va chiqarishni taminlaydi.

## Klaster metodi




**Birinchi avlod** mashinalari 50 yillarda ishlab chiqarilgan bo'lib, asosiy komponent-lari elektron lampalardan iborat bo'lgan. Bu EHMLardagi minglab lampalar elektron energiyasini ko'p miqdorda talab qilgan, katta miqdorda issiqlik ajratib chiqargan va ko'p joyni egallagan. Bu mashinalarning amallarning bajarish tezligi past, xotira sig'imi kichik va tez-tez ishdan chiqib turgan. Dasturlar mashina kodida yozilgan. Dastur tuzuvchi o'zi xotira yachekasini dastur orqali taqsimlangan. Sobiq ittifoqda birinchi elektron hisoblash mashinasini akademik

S.A.Lebedev rahbarligida 1951 – yili Ukraina Fanlar Akademiyasi elektron institutida yaratildi va “MESM”(Malaya elektronno-schetnaya mashina) kichik elektron mashinasi deb nom oldi. 1954-yili aniq mexanika va hisoblash texnikasi institutida S.A.Lebedev rahbarligida “BESM”(Bolshaya elektronno-schetnaya mashina) katta elektron mashinasi yaratildi, u 2048 ta xotira yacheykasiga ega bo’lib sekundiga 9 ming amalni bajarar edi. O’sha vaqtda u jahondagi eng tezkor mashina edi. Birinchi avlod mashinalariga BESM -2 strela M-3 , Minsk Ural-1, Ural -2, M-20 va boshqalar kiradi.



ancha oshdi. Bu avlodga mansub mashinalarning o’ziga xos xususiyatlaridan biri ularning qo’llanish sohasi bo’yicha ixtisoslshtirilishidir. Bu mashinalarda qo’yilgan masalalarni yechish uchun dasturlash tillaridan foydalanila boshlandi.



hisoblangan ES-1060 sekundiga 1.5 mln. amalni bajarar edi. ES-ning joriy xotirasi yuzlab kilobayt va megabayt bilan o’lchanadi. Uchinchi avlod EHMLarini joylashtirish uchun maxsus jihozlangan mashina zallari talab qilinadigan.

Katta integral sxemalarning paydo bo’lishi sonli axborotlarni qayta ishlab chiqadigan dastur asosida boshqariladigan qurilmalar – mikroprotsessorlarning yaratilishiga olib keldi.

Sanoatda 70-yillarda mikroprotsessorlar asosida **to’rtinchi avlod** mashinalari – mikro EHM ishlab chiqarila boshlandi. To’rtinchi avlod mashinalari tarkibiga “ELBRUS-2”, “M-10”, “Korvet”, “AGAT-9”, “PRAVES-8A”, IBM PC kompyuterlari ham mansub.



mashinalaridir.

60-yillarning boshlarida elektron lampa o’rniga yarim o’tkazgichli bazasida yaratilgan tranzistorlar ishlatila boshlandi, bu esa mashinaning massasi, o’lchamlari va iste’mol qiladigan energiyani, issiqlik ajratishini keskin kamaytirish imkonini berdi. Yarim o’tkazgichli mashinalar EHMning **ikkinchı avlodı** bo’ldi va ularning ishslash ishonchliligi va tezligi

Apparatlar bloklari – mujassamlangan integral sxemalarning sanoatda ishlab chiqarilishi 60 –yillarning oxirida **uchunchi avlod** EHM larning yaratilishiga olib keldi. Sobiq ittifoqda yaratilgan katta va o’rtacha EHMLar (Ural-11,Ural-12, Ural-15 va yagona tizimli ES EHM lari ) va SM seryali EHMLar shular jumlasiga kiradi. Bu mashinalardan eng quvvatlisi

hisoblangan ES-1060 sekundiga 1.5 mln. amalni bajarar edi. ES-ning joriy xotirasi yuzlab kilobayt va megabayt bilan o’lchanadi. Uchinchi avlod EHMLarini joylashtirish uchun maxsus jihozlangan mashina zallari talab qilinadigan.

**Beshinchı avlod** EHMLari-bu to’rtinchi avlod mashinasidan tarkibida intellektual interfeys (bilimlar bazasi, masalalari avto`matik ravishda yechishni dasturiy ta’minot va muloqot prossesori borligi bilan farq qiluvchi, universal su’niy tafakkur

Beshinchi avlod EHMLari — bu to’rtinchi avlod mashinasidan tarkibida intellektual interfeys (bilimlar bazasi, masalalarini avtomatik ravishda echishning dasturiy ta’minoti va muloqot protsessori borligi bilan farq qiluvchi, universal sun’iy tafakkur mashinalaridir.

**Kompyuterlarni sinflash.** Kompyuterlarning xotirasining hajmi, bir sekundda bajaradigan amallar tezligi, ma’lumotlarning razryad to’rida (yacheykalarda) tasvirlanishiga qarab besh guruhga bo’linadi:

- Supper kompyuterlar (Super Computer);
- Katta kompyuterlar (Mainframe Computer);
- Mini kompyuterlar (Minicomputer);
- Shaxsiy kompyuterlar (PC-Personal Computer)
- Bloknot (noutbook) kompyuterlar.

**Supper kompyuterlar** (TOP 500 kompyuterlar) – juda katta tezlikni talab qiladigan va katta hajmdagi masalalarini yechish uchun mo’ljallangan bo’ladi. Bunday masalalar sifatida ob-havoning global prognoziga oid masalalarini, uch o’lchovli fazoda turli oqimlarning kechishini o’rganish masalalari, global informatsion sistemalar va hokazolarni keltirish mumkin. Bu kompyuterlar bir sekundda 10 trilliardlab amal bajaradi.

Shuni qayd qilish lozimki, supperkompyuterlarning ma’lum yo’nalish masalalarini yechishga qaratilgan turlari ham mavjud.

**Katta kompyuterlar.** – Fan va texnikaning turli sohalariga oid masalalarini yechishga mo’ljallangan. Ularning amal bajarish tezligi va xotira hajmi supperkompyuterlarnikiga nisbatan bir-ikki pog’ona past. Bularga misol sifatida AQSHning CRAY, IBM 390, 4300, IBM ESG’9000, Fransiyaning Borrous 600, Yaponiyaning M1800 rusumli kompyuterlarini va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin.

**Minikompyuterlar.** Hajmi va bajaradigan amallar tezligi jihatidan katta kompyuterlardan kamida bir pog’ona pastdir. Shuni aytish joizki, ularning o’lchamlari tobora ixchamlashib, hatto shaxsiy kompyuterdek kichik joyni egallaydiganlari yaratilmoqda.

**Shaxsiy kompyuterlar.** Hozirda korxonalar, muassasalar, oliy va o’rta maxsus o’quv yurtlarida keng tarqalgan bo’lib, ularning aksariyati Pentium va IBM rusumiga mos kompyuterlardir. Bularni turli kompaniyalar ishlab chiqarishiga qaramay, ham texnik, ham dasturiy ta’minoti mosligi, ya’ni bir-birlariga to’g’ri kelishi nazarda tutiladi.



**Bloknot kompyuterlar(Noutbuk).** Noutbuk kompyuterlar hajmi ancha ixcham bo’lib, ammo amallar soni, xotira hajmi shaxsiy kompyuterlar darajasiga ko’tarilib bormoqda. Ularning qulaylik tomonlaridan biri ham elektr energiyasidan va ichiga o’rnatilgan batareyalar (akkumulyator)da ham

uzluksiz ishlashi mumkinligidir.

Hozirda noutbuk kompyuterlaridan ham ixcham cho'ntak kompyuterlari ishlab chiqarilmoqdayu ular ham, tabiiyki, operatsion sistema boshqaruvida ishlaydi va ular turli soha masalalarini yechishga qodir.

Shaxsiy kompyuter ikkita tashkiliy qismlardan iboratligini biz oldingi bobda aytib o'tgan edik. Bular apparat ta'minot (hardware) va dasturiy ta'minot (software)lardir.

**Apparat ta'minoti — bu, birinchi navbatda kompyuterning asosiy texnik qismlari va qo'shimcha (atrof) qurilmalaridir.**

Dasturiy ta'minot kompyuterning ikkinchi muhim qismi bo'lib, u ma'lumotlarga ishlov beruvchi dasturlar majmuasini va kompyuterni ishlatish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni o'z ichiga oladi. Dasturiy ta'minotsiz har qanday kompyuter bamisol bir parcha temirga aylanib qoladi.

### Test savollari

**1. Kompyuterni ishlash printsipi va mukammal kurinishini taklif etgan olim?**

- a) \*J. Neyman
- b) B. Geyts
- c) Virt
- d) Paskal

**2. Zamonaviy professional ShK lar kanday arxitekturaga ega?**

- a) Bitta platali
- b) Shinali
- c) energiya tejaydigan
- d) Shlyuz

## 8-MAVZU: INTERFEYS TUSHUNCHASI, UNING TURLARI, DASTURIY TA'MINOT TURLARI VA ULARNING KLASIFIKASIYASI (2 soat ma'ruza).

### Reja

1. Operatsion tizim tushunchasi.
2. Windows operatsion tizimi xususiyatlari
3. Windows operatsion tizimi ishchi stoli tuzilishi.
4. Windows operatsion tizimi muhitida ishlash
5. Fayllarni arxivlash. Arxivatorlar.
6. Kompyuter virusi haqida tushuncha
7. Antivirus dasturlar.
8. Viruslarga qarshi chora tadbirlar

Biz hozirgacha kompyuterlarning tuzilishi, texnik ta'minoti (ichki va tashqi qurilmalari) va kompyuterning dasturiy ta'minoti bilan tanishib chiqdik. Umumlashtirib shuni aytish mumkinki, kompyuterning texnik va dasturiy ta'minoti

o'zaro uzviy aloqada bo'ladi hamda birgalikda foydalanuvchi uchun xizmat qiladi. Vaziyatga qarab foydalanuvchi kompyuterning texnik va dasturiy ta'minotini boshqaradi, o'zining maqsadidan kelib chiqib bu qismlar bilan aloqada bo'ladi, boshqacha aytganda, o'zaro ta'sirlashadi. Bu o'zaro munosabatni informatikada interfeys atamasi bilan ifodalashadi:

**Interfeys** (ing. – interface) – bu o'zaro ta'sir, aloqa, birlashtirish, muvofiqlashtirish vositasidir.

Bu atama informatikada keng tushunchalar doirasida ifodalanadi: apparatli interfeys (elektron qismlar darajasida), dasturiy interfeys (dasturiy modullarni tutashtirish haqidagi qoida va kelishuvlar majmuasi), dasturlarning qurilmalar bilan o'zaro munosabati apparatli-dasturiy interfeys va nihoyat, dastur va kompyuterni inson bilan muloqoti va o'zaro ta'sir vositasi sifatidagi foydalanuvchi interfeysi. Hozirgacha foydalanuvchi interfeysi bilan qisman tanishgan edingiz, masalan, Paint yoki MS Word dasrurlarining muloqot oynasi, bu dasturlarning asosiy elementlaridan menyular, ishchi maydoni va uskunalar paneli.

Interfeys vositalarning o'zaro umumiy protokolga (qonun-qoidalarga) rioxiga qilinishini talab etadi. Aks holda bu vositalar o'zaro bog'lana olmaydi. Masalan, elektr lampochkani elektr manbaiga ulash uchun quyidagi shartlar (moslik) bajarilishi kerak:

- ◆ elektr lampochka patronga mos bo'lishi kerak;
- ◆ elektr lampochka elektr manbaidagi kuchlanishga mo'ljallangan bo'lishi kerak.

Keltirilgan misolda interfeys protokoli ikkitagina shartdan iborat bo'lib, ikkalasi ham apparatli interfeysga mansub. Agar bu shartlar bajarilmasa, elektr lampochkani elektr manbaiga ulab bo'lmaydi. Bu holni lampochkani manbaga ulash interfeysi o'zgacha protokolga ega, deyish mumkin. Lekin, lampochkani elektr manbaiga ulash bilan kompyuter sistemasini taqqoslab bo'lmaydi, albatta.

Ma'lumki, kompyuterli tizimda o'nlab qurilmalar bir-biri bilan bog'lanishi va minglab dasturlar ular bilan mutanosib ishlashi kerak.



Kompyuterda apparatli interfeysi kompyuter qurilmalarini ishlab chiqaruvchilar ta'minlaydi. Ular qurilmalarning bir-biri bilan bog'lanishining (ulanishining) mosligi va bir xil kuchlanish bilan ishlashini kuzatib boradilar. Lekin dasturlar bilan qurilmalarning o'zaro munosabati (apparatli-dasturiy interfeys) yoki dasturlarning o'zaro aloqasi (dasturiy interfeys) hech kim tomonidan kuzatilmaydi. Chunki, birinchidan, dasturchilar har bir kompyuterda qanday qurilmalar o'rnatilganini va qanday dasturlar borligini avvaldan bilishmaydi. Ikkinchidan, kompyuter qurilmalarini ishlab chiqaruvchilar esa bu qurilmalarni qanday dasturlar bilan ishlashiga to'g'ri kelishini avvaldan bilishmaydi. Shu sababli dasturiy ta'minot bilan

apparatli ta'minot o'rtasidagi muvofiqlashtirishni maxsus dastur – operatsion sistema o'z zimmasiga oladi.

Foydalanuvchi kompyuter bilan muloqoti jarayonida o'zi sezmagan holda kompyutering apparatli ta'minoti bilan ham, dasturiy ta'minoti bilan ham aloqada bo'ladi. Ammo kompyuterda minglab dasturlar mavjud bo'lib, ularning har biri bilan turlicha muloqot qilishga to'g'ri keladi. Ba'zi dasturlar klaviatura yordamida ishslashga, boshqalari sichqoncha bilan ishslashga, yana birlari joystik yoki boshqa biror boshqarish qurilmalari bilan ishslashga mo'ljallangan bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, ma'lum bir dasturlar ma'lumotlarni ekranga matn shaklida chiqarsa, boshqalari grafik tasvir shaklida, yana birlari esa umuman ekrandan foydalanmasdan tovush yoki nutq ko'rinishida ma'lumot berishi mumkin.

Dasturlar xilma-xil bo'lgani kabi ularning interfeysi ham turlicha bo'ladi. Foydalanuvchi interfeysi xususiyatlariga ko'ra bir necha turga ajratilishi mumkin. Agar dastur bilan muloqot qilish juda qulay bo'lib, foydalanuvchi uchun qiyinchilik tug'dirmsa, bunday dastur qulay foydalanuvchi interfeysiga ega deyiladi. Agar dastur bilan turli xil usullarda ishslash mumkin bo'lsa, bunday dastur yumshoq interfeysga ega deyiladi. Shunday dasturlar ham bo'ladiki, ular bilan ishslashda ma'lum talab va ko'rsatmalardan tashqariga chiqib bo'lmaydi. Bu holda dastur qattiq interfeysga ega deyiladi.

Dasturning ishslash muhitiga (holatiga) qarab, dastur nografik (grafik bo'lmagan yoki matnli – A rasm) yoki grafik (B rasm) interfeysga ega deyish mumkin.



Dastur matnli interfeysga ega deyilishi dastur bilan ishslashda faqat klaviaturadan foydalani-lishi yoki ma'lumotlar ekranda faqat matn ko'rinishida aks ettirilishi bilan bog'liq. Agar dastur ishlashi jarayonida ekranda grafik tasvirlar aks ettirilsa va uni sichqoncha yordamida boshqarish mumkin bo'lsa, u holda bunday dasturlarni grafik interfeysga ega deyiladi.

Hozirgacha kompyuterlarning texnik tuzilishi va dasturlar haqida ma'lumotlar oldingiz. Dastur bilan ta'minlanmagan komputerlar quruq "temir"dan boshqa narsa

emas. Chunki, biror bir dastursiz kompyuter xech qanday “bilim”ga ega emas. Shuning uchun dasturlar kompyuterlarning texnik tuzilishining mantiqiy davomi hisoblanadi va biror kompyuterning qo‘llanish sohasi undagi dasturlar to’plamiga uzviy bog’liqdir. Kompyuterlar inson amaliy faoliyatining turli sohalarida qo‘llanilishi tufayli **foydalanuvchi**, ya’ni kompyuterni ishlatuvchi shaxs ham undan har xil imkoniyatlarni talab etadi. Talab etilgan imkoniyatlarning borligi ma’lum darajada dasturiy ta’minotga ham bog’liqdir.

Informatikada kompyuter texnikasini quyidagi ikki qismning birligi sifatida qaraladi:

- texnik vositalar;
- dasturiy vositalar.

Texnik vositalar – kompyuterning qurilmalaridir. Ingliz tilida bu qism **Hardware** deb atalishi va “qattiq mahsulotlar” deb tarjima qilinishi sizga ma’lum (ing. hard – qattiq, ware – mahsulot). Bu qismga, masalan, protsessor, vinchester, monitor, klaviatura, disk yurituvchi, printerlarni misol sifatida ko’rsatish mumkin.

Dasturiy vositalar – kompyuter tomonidan ishlataladigan barcha dasturlar to’plamidir. Ingliz tilida bu qism **Software** deb ataladi va “yumshoq mahsulotlar” deb tarjima qilinadi (ing. soft – yumshoq). Bu so‘z dasturiy ta’minot bilan kompyuterlarning mutanosibligini, dasturlarning takomillashishi, rivojlanishi va moslashuvchanligini ifodalaydi.

Bundan tashqari informatikada yana bir yo’nalish **Brainware** (**brain** inglizchadan tarjimasi – **intellekt, ong**) – algoritmik yo’nalish ajratiladi. Bu yo’nalish algoritmlarni ishlab chiqish, ularni tuzish usul va uslublarini o’rganish bilan bog’liqdir.

Kompyuterlarda ishlatalayotgan dasturlarni shartli ravishda quyidagi uch turga ajratish mumkin:

1. Sistema dasturlari
2. Amaliy dasturlar
3. Uskunaviy dasturlar

•**sistema dasturlari** – turli yordamchi vazifalarni bajaruvchi dasturlar, masalan:

- a) kompyuter resurslarini boshqarish (protsessor, xotira, kiritish-chiqarish qurilmalari);
- b) foydalanilayotgan ma’lumot nusxalarini hosil qilish;
- c) kompyuterni ishlash imkoniyatlarini tekshirish;
- d) kompyuter haqida ma’lumotlar berish va hokazo.

•**amaliy dasturlar** – foydalanuvchiga aniq bir foydalanish sohasida ma’lumotlarga ishlov berish va qayta ishlashni amalga oshiruvchi jami dasturlar;

•**uskunaviy dasturlar** – kompyuter uchun yangi dasturlar tayyorlash va tahrirlashni yengillashtiruvchi dasturlar.

Bu ajratishning shartli ravishda deyilishiga sabab shuki, dasturiy ta’minotning keskin rivojlanishi va kompyuterlarni qo‘llanish sohasining kengayib borishi ba’zi dasturlarning bir turdan boshqa turga o’tib qolishiga sabab bo’lmoqda. Masalan, ba’zi amaliy dasturlarning qo‘llanish sohasi chuqurlashib borganligidan va alohida

zaruriyatga egaligidan uskunaviy dasturga aylanib bormoqda. Ikkinchi tomondan, foydalanuvchiga e'tiboriga shunday dasturlar tavsiya etilmoqdaki (masalan, "elektron suhabatdosh"), ularni yuqoridagi xususiyatlar bo'yicha ajratish mushkul.

Hozirgi kunda dasturiy ta'minotni quyidagi o'zaro bog'langan guruhlar orqali ifodalash mumkin:

- operatsion sistemalar (MS DOS, Windows naqllari, Unix, Linux, Nova, Mandriva, Machintosh, Doppix) va qobiq-dasturlar (Norton Commander, Far manajer, Windows Commander, Total Commander);
- dasturlash sistemalari (BASIC, Visual Basic, Paskal, Delphi, C, C++);
- uskunaviy sistemalar (redaktorlar, sozlovchilar, makroassemblerlar);
- integrallashgan dasturlar paketi (matn muharrirlari, matn protsessori, elektron jadvallar, ma'lumotlar omborini boshqarish sistemalari);
- mashina grafikasi sistemalari (ilmiy, muxandislik, o'quv, animatsion, ijodiy);
- ma'lumotlar omborini boshqarish sistemalari (FoxPro, Access, Paradox);
- amaliy dasturiy ta'minot (buxgalterlik, nashriyot, avtomatik loyixalash sistemalari, elektron jadvallar).

Ko'pincha amaliy dasturlarni **ilovalar** (rus. priljeniya) deb ham atashadi. Barcha ilovalar alohida dastur sifatida yoki integrallashgan (birlashtirilgan) sistemalar sifatida qaralishi mumkin. Odatta, ekspert sistemalar, matematik hisoblash, modellashtirish va tajriba natijalarini qayta ishlash dasturlari, shuningdek ofis sistemalari integrallashgan sistemalardan iborat. Keng tarqagan va qulay integrallashgan sistemaga misol sifatida **Microsoft Office** integrallashgan sistemasini olish mumkin. Microsoft Office integrallashgan sistemasi o'z ichiga matn protsessori, elektron jadval, ma'lumotlarni boshqarish sistemasi, taqdimot hosil qilish dasturi, elektron pochta bilan ishlash dasturi va boshqa dasturlarni o'zida mujassamlashtirgan. Bu integrallashgan sistemadagi biror dastur yordamida hosil qilingan ma'lumotlarni sistema ichidagi boshqa dasturlarga osongina bog'lash mumkin.

Sistema dasturlarining bir bo'lagi sifatida yordamchi dasturlar – **utilitlar** (lotin. – foydali) ishlab chiqilgan. Bu dasturlar operatsion sistemaning imkoniyatini oshirishga xizmat qilishi yoki alohida vazifani bajarishi ham mumkin.

Utiltlarning ba'zi ko'rinishlari:

- kompyuter qurilmalarini **boshqaruvchi** va **testdan o'tkazuvchi** dasturlar;
- kompyuter qurilmalarini boshqaruvchi **drayver** dasturlar;
- axborotni zichroq yozilishini ta'minlovchi **arkiviator** dasturlar;
- kompyuteringa ishiga zarar keltiruvchi va foydalanuvchi ishiga hala beruvchi dasturlardan himoyalovchi **antivirus** va **antispam** dasturlar;
- kompyuterlar orasida ma'lumot almashishni ta'minlovchi **kommunikatsiya** dasturlari;
- **kompakt disklarga yozishni ta'minlovchi** dasturlar;
- nompyuterni **multimedia** imkoniyatlarini kengaytiruvchi dasturlar va hokazo.

Bundan tashqari, dasturiy ta'minot tarqatilishi va targ'ib qilinishi bo'yicha quyidagi asosiy turlarga ajratiladi:

• **Software** – qiymati 100% to’langanidan keyin o’rnatilib, foydalaniladigan dasturiy ta’midot. Masalan, Windows operatsion sistemalari, MS Office dasturlari, Adobe Photoshop va Macromedia Flash naqlari,

• **Shareware** (ing. Share – qisman) – aprobatsiya, ya’ni sinovdan o’tkazish muddatiga ega bo’lgan dasturlar. Sinov muddati, odatda, bir necha kun yoki bir oygacha, yoki bir necha bor kirib ishlashga mo’ljallangan bo’ladi. Ba’zan bunday dasturlarning imkoniyatlari cheklangan naqli beriladi. Agar foydalanuvchiga shunday dastur zarur bo’lsa, u dasturni to’liq naqlini xarid qilib olishi mumkin. Bu kabi dasturlarni Internet tarmog’idan jahonga mashxur Download.com katalogidan, dasturlarni tarqatish bilan shug’ullanuvchi Softpedia agentligidan, rossianing Softkey katalogidan topish mumkin.

• **Freeware** (ing. Free – erkin) – mutlaqo bepul dasturiy ta’midot. Aksariyat hollarda reklama sifatida yoki dasturchilarning ilk ishlanmalari tarqatiladi. Bu dasturlardan tekin foydalanish mumkin, lekin dasturni o’zgartirib bo’lmaydi. Chunki, dasturning birlamchi kodlari ochiq holda berilmaydi.

• **Free and Open Source Software** (ing. erkin va birlamchi kodi ochiq) – mutlaqo bepul va birlamchi kodi ochiq dasturiy ta’midot. Foydalanuvchi bu kabi dasturlarni tekin ishlatish bilan birga o’z imkoniyatlari va ehtiyojiga moslab o’zgartirishi mumkin.

Kompyuterga dasturiy ta’midotni o’rnatish jarayoni **installatsiya** deyiladi, uni o’chirish esa **deinstallatsiya** deb ataladi. Biror bir dasturiy ta’midotni o’rnatishdan oldin dasturning sistemaga bo’lgan talablarini, ya’ni kompyuter qurilmalariga qo’yiladigan talablarni ko’rib chiqib, mosligini aniqlash lozim. Agarda kompyutering konfiguratsiyasi (ya’ni, kompyuter qismlarining imkoniyati) dasturning talablariga javob bermasa, u holda mazkur dastur ishlamaydi yoki noto’g’ri ishlaydi.

Ba’zi dasturlar installatsiya qilinishi shart emas. Ularni faqatgina nusxalab olish kifoya. Bunday dasturlar, odatda, biror bir yo’nalishdagi ishni bajarishga mo’ljallangan bo’ladi.

Shuni unutmangki, kompyuter “**virusi**” ham dasturdir. Lekin bu dastur boshqa dasturlarga birikib olib yoki mustaqil ravishda ishlaydi hamda foydalanuvchi ishiga yordam berish o’rniga uning ishlariga zarar yetkazadi: ma’lumotlarni o’chiradi yoki buzadi, kompyuter qismlari ishini o’zgartiradi, tezkor xotirani to’ldirib kompyuter ishlashini sekinlashtiradi va hokazo.

### **Windows operatsion muxiti kuyidagi imkoniyatlarga ega:**

▪ Universal grafika- Windows dasturlarining kurilmalariga va dastur ta’midotga bogliksizligini ta’minlaydi.

▪ Yagona interfeys- Windowsda foydalanuvchining mulokoti yagona, ya’ni turli dasturlar bilan ishlash koidalari umumiy. SHuning uchun yangi dastur bilan ishlaganingizda bu koidalardan foydalanishingiz mumkin.

▪ Mavjud dastur ta’midot bilan muvofikligi – Windows ning barcha amaliy paketlari taxrirlagichlari, elektron jadvallari ishini tula ta’minlaydi.

▪ Ko’p masalaligi – Windows bir paytning uzida bir necha masalani xisoblaydi, bir dasturdan boshkasiga utishni ta’minlaydi.

▪ Mavjud operativ xotirada tula foydalana oladi, kurilma resurslaridan xam tulik foydalanadi.

▪ Ma'lumotlar almashuvi – Windows dasturlararo ma'lumotlar almashish imkoniyatiga ega. Bu maxsus Clipboard (ma'lumotlar buferi) yoki DDE (ma'lumotlarning dinamik almashuvi, ya'ni boshka dastur natijalaridan foydalanish) yoki OLE (ma'lumotlardan ularni taxrirlagan xolda foydalanish) yordamida amalga oshiriladi.

### Test savollari

#### 1. WINDOWS operatsion tizimi necha masalali operatsion tizim

- a) Bir masalali
- b) Ikki masalali
- c) \* Kup masalali
- d) Uch masalali

#### 2. Windows NT 5.0 operatsion tizimida qo'llaniladigan asosiy fayl tizimi:

- a) \* NTFS
- b) FAT
- c) DFS
- d) FAT 32

### 9-MAVZU: SISTEMAVIY DASTURIY TA'MINOT VA ULARNING TURLARI (2 soat ma'ruza)

#### Reja

1. Sistemaviy dasturiy ta'minot.
2. Operatsion tizimlar.
3. UNIX operatsion tizimi.
4. WINDOWS NT operatsion tizimi.
5. Ms Dos Operatsion Tizimi.
6. Operatsion tizimni yuklash.

**SISTEMAVIY DASTURIY TA'MINOT(SDT)** quyidagilarni bajarishga qaratilgan:

- kompyuterning va kompyuterlar tarmog'ining ishonchli va samarali ishlashini ta'minlash;

- kompyuter va kompyuterlar tarmog'i apparat qismining ishini tashkil qilish va profilaktika ishlarini bajarish.

Sistemaviy dasturiy ta'minot ikkita tarkibiy qismidan - **asosiy (bazaviy) dasturiy ta'minot va yordamchi(xizmat ko'rsatuvchi) dasturiy ta'minotdan iborat**. Asosiy dasturiy ta'minot kompyuter bilan birgalikda yetkazib berilsa, xizmat ko'rsatuvchi dasturiy ta'minot alohida, qo'shimcha tarzda olinishi mumkin.

**Asosiy dasturiy ta'minot (base software)** - bu, kompyuter ishini ta'minlovchi dasturlarining minimal to'plamidan iborat. Ularga quyidagilar kiradi: **operatsion tizim (ot); tarmoq operatsion tizimi.**

**Yordamchi(xizmat ko'rsatuvchi) dasturiy ta'minotga** asosiy dasturiy ta'minot imkoniyatlarini kengaytiruvchi va foydalanuvchining ish muxitini (interfeysi) qulayroq tashkil etuvchi dasturlar kiradi. Bular tashhis qiluvchi, kompyuterning ishchanligini oshiruvchi, antivirus, tarmoq ishini ta'minlovchi va boshqa dasturlardir.

**Operatsion tizim (OT).** Kompyuterning yoqilishi bilan ishga tushuvchi ushbu dastur kompyuterni va uning resurslarini (tezkor xotira, diskdagi o'rinnlar va hokazo) boshqaradi, foydalanuvchi bilan muloqotni tashkil etadi, bajarish uchun boshqa dasturlarni (amaliy dasturlarni) ishga tushiradi. OT foydalanuvchi va amaliy dasturlar uchun kompyuter qurilmalari bilan qulay muloqotni(interfeysi) ta'minlaydi.

**Drayverlar.** Ular OT imkoniyatlarini kengaytiradi. Jumladan, kompyuterning kiritish - chiqarish qurilmalari (klaviatura, sichqoncha, printerlar va boshqalar)ni boshqarishda yordam beradi. Drayverlar yordamida kompyuterga yangi qurilmalarni ulash yoki mavjud qurilmalardan nostandart ravishda foydalanish mumkin.

Hozirgi davrda ko'plab OTlar mavjud: **unix; ms dos; os/2; windows** va h.k.

**Windows 95, windows 98, windows XP2** lar grafik interfeysi OTlar hisoblanadi, chunki ular foydalanuvchi bilan grafik tasvirlar (yorliqlar, belgilar) yordamida muloqot qilish imkonini beradilar.

**Tarmok operatsion tizimi.** Tarmoqqa ulangan kompyuterlarni yakkahol va birgalikda ishlashini ta'minlovchi maxsus dasturlar majmuasidan iborat **OT - tarmoq operatsion tizimi** deb ataladi. Ushbu **OT**, jumladan, tarmoq ichra ma'lumotlarni ayrboshlash, saqlash, qayta ishslash, uzatish kabi xizmatlarni ko'rsatadi.

Asosiy dasturiy ta'minotni qo'shimcha ravishda o'rnatiladigan xizmat ko'rsatuvchi dasturlar to'plami to'ldirib turadi. Bunday dasturlarni ko'pincha utilitlar deb atashadi.

**Utilitlar** — bu, ma'lumotlarni qayta ishlashda qo'shimcha operatsiyalarni bajarishga yoki kompyuterga xizmat ko'rsatishga (tashxis, apparat va dasturiy vositalarni testlash, diskdan foydalanishni optimallashtirish va boshqalar) mo'ljallangan dasturlardir.

**Operatsion tizimlar.** EHM da har qanday masalani echish, bir tomondan, bajarilishi kerak bo'lgan hamma amallarning ketma-ketligini belgilaydigan dasturlarni (dasturli vositalar — software), ikkinchi tomondan esa, bu amallarni amalga oshirish uchun jalb qilinadigan aniq bir texnikaviyura vositalarini (processor, xotira, display, printer, klaviatura va b. — hardware) talab etadi.

EHM texnikaviy vositalarini boshqarishning ko'plab jarayonlari ma'lum darajada standart hisoblanadi va aslini olganda, dasturli vositalarga bog'liq emas.

Operatsion tizimning (OT) asosiy vazifasi ayni shu ko'satilgan standart, ko'pincha esa juda etarlicha oddiy jarayonlarni bajarishni avtomatlashtirishdir.

OT ning "do'stonaligi" quyidagini bildiradi, u foydalanuvchiga amaliy dasturlarni bajarish jarayonida kerakli servisni ta'minlaydi va dasturlovchiga dasturlarni ishlab chiqish va sozlash uchun hamda ma'lumotlarni saqlash, o'zgartirish, aks ettirish va nusxalash uchun qulay shart-sharoitlarni ta'minlaydi. ShK lar uchun quyidagi OT turlari keng tarqalgan:

- MS DOS - IBM PC AT va XT ShK lari uchun;
- OS/2 - IBM PS/2 va 80386 va undan yuqori MP li PC AT ShKlari uchun;
- UNIX — 32 razryadli IBM PS/2 va 80386 va undan yuqori MP li IBM PC AT ShK lari uchun;
- WINDOWS 95 — 32 razryadli, 80386 va undan yuqori MP li IBM PC AT ShK lari uchun;
- WINDOWS NT — 32 razryadli, 80486 va undan yuqori MP li IBM PC AT ShK lari uchun.

MS DOS va WINDOWS 95 operatsion tizimlari to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar keyingi bobda beriladi.

**OS/2 operatsion tizimi.** OS/2 (Operating Sistem/2) bitta foydalanuvchili ko'p masalali OT dir, bir tomonlama (MS DOS -> OS/2) MS DOS bilan dasturli kelishadigan hamda 80286 va undan yuqori MP bilan ishlash uchun (IBM PC AT va PS/2 ShK) mo'ljallangan. OS bir vaqtning o'zida 16 tagacha dasturni bajarishi mumkin (ularning har biri o'zining xotira segmentida), lekin ularning ichida faqat bittasi MS DOS uchun tayyorlangan bo'ladi.

OS/2 ning muhim xususiyatlari quyidagilardir:

- foydalanuvchining ko'p oynachalik interfeysining borligi;
- qiymatlar bazasi tizimi bilan ishlash uchun dasturli interfeyslarning borligi;
- lokal hisoblash tarmoqlarida ishlash uchun samarali dasturli interfeyslarning borligi.

**UNIX operatsion tizimi.** UNIX — ko'p foydalanuvchili, ko'p masalali OT bo'lib, u dasturlarni va turli foydalanuvchilarining fayllarini etarlicha kuchli himoya vositalarini o'z ichiga oladi.

UNIX OT dasturlarining ko'p qismi Si tilida yozilgan (DOS va OS/2 dagi kabi assemblerda emas) va mashinaga bog'liq emasdир, bu OT ning yuqori harakatchanligini va amaliy dasturlarni universal EHM ga, mini EHM ga va turlichay arxitekturali ShK larga osongina o'tkazishni ta'minlaydi. UNIX oilasidagi OT ning muhim xususiyati uning modulliligi va keng servisli dasturlar to'plami bo'lib, ular foydalanuvchi-dasturlovchilar uchun qulay operatsion vaziyatni yaratishni ta'minlaydi (ya'ni bu tizim amaliy dasturlovchilar mutaxassisligi uchun alohida samaralidir).

**WINDOWS NT operatsion tizimi.** WINDOWS NT- ko'p foydalanuvchili, ko'p masalali, ko'p oqimli OT dir, u WINDOWS 95 interfeysiga deyarli o'xshash bo'lgan grafikli foydalanuvchi interfeysiga eta.

Bu operatsion tizimning o'ziga xos xususiyatlari:

- ichiga qurilgan tarmoqdi yordam berish — boshqa OT lardan farqli ularoq u boshidayoq hisoblash tarmog'ida ishlashni hisobga olib yaratilgan, shuning uchun

foydanuvchi interfeysiga fayllar, qurilmalar va ob'ektlarni birgalikda tarmoqli ishlatish vazifalari moslashtirilgan;

- muhimlik bo'yicha ko'p masalalik, bu yuqoriroq muhimli ilovalarning quyi muhim ilovalarni siqib chiqarishiga imkon beradi, xususan, "to'xtab qolgan" ilovalarni bajarishda tizimning ishlamay turib qolishini avtomatik bartaraf qilish hisobiga mashina vaqtini yanada samaraliroq ishlatish imkonini beradi;

**Ms Dos Operatsion Tizimi.** Mustaqil ravishda ham, WINDOWS operatsion tizimi tarkibida ham qo'llaniladi.

#### **MS DOS ning asosiy tarkibny qismlari:**

- Kiritish-chiqarish bazaviy tazini (BIOS — Basic Input Output System);
- Operatsion tizimning yuklovchisi (boslang'ich yuklash dasturi Boot Record);
- Kengaytma bloki BIOS (IBMBIO. COM fayli yoki unga o'xshashlar);
- DOS bazaviy bloki (IBMDOS. COM fayli yoki unga o'xshashlar), uni ko'pincha uzulishlarni qayta ishlash bloki deb ataladi;
  - To'g'rilaqan ichki makrobuyruqlarni o'z ichiga olgan buyruqli processor (COMMAND. COM dasturi) (servis va xizmat ko'rsatish qims dasturlari, fayllarga xizmat ko'rsatiladigan ko'p qims dasturlar);
  - Tizim konfiguraciysi fayli (CONFIG. SYS buyruqlar to'plani);
  - Jarayonlarni avtoyuklash fayli (AUTOEXEC. BAT buyruqlar to'plani).

MS DOS bilan birgalikda DOS ga rasniy kirmaydigan, tizimning resurslari bilan ishlashni engillashtiradigan Tashqi makrobuyruqlar va servisli utilitalar va Tashqi qurilmalarning drayverlarini yuklaydigan fayl ham etkazib beriladi.

### **Test savollari**

#### **1. WINDOWS operatsion tizimi necha masalali operatsion tizim**

- a) Bir masalali
- b) Ikki masalali
- c) \* Kup masalali
- d) Uch masalali

#### **2. Windows NT 5.0 operatsion tizimida qo'llaniladigan asosiy fayl tizimi:**

- a) \* NTFS
- b) FAT
- c) DFS
- d) FAT 32

### **10-MAVZU: AMALIY DASTURIY TA'MINOT VA ULARNING TURLARI (2 soat ma'ruza)**

#### **Reja**

1. Amaliy dasturiy ta'minotni tasniflash
2. Predmetli sohaning ta'rifi va modeli

**«Amaliy dasturlar paketlari»** atamasi turli murakkablikdagi va belgilanishdagi dasturlar majmuasiga nisbatan qo'llaniladi. Oldin ta'kidlanganki, amaliy dastur bo'lган dasturiy mahsulot va amaliy dasturlar paketlari o'rtasida aniq chegarani o'tkazish mumkin emas. Dasturlar paketlarining borgan sari ko'proq soni ishlab chiqilishi bilan dasturlar paketi ostida tushinish kerak bo'lган yangi ta'riflar paydo bo'lган.

Zamonaviy qarashlarga ko'ra, amaliy dasturlar paketlari - bu masalalarning belgilangan sinfini yechish uchun hamkorlikdagi dasturlarning majmuasidir. Amaliy dasturlar paketlari hamisha ham dasturlashda va ham ushbu amaliy dasturlar paketlarini qo'llash bilan yechiladigan masalalar kiruvchi sohadagi belgilangan malakadagi foydalanuvchilarga mo'ljallangan.

Amaliy dasturlar paketlarini tashkil qiluvchi dasturlarni birga bo'la olishligi ularda o'zaro foydalanish imkoniyatini, boshqaruvchi ma'lumotlar va axborot massivlaridan foydalaniladigan tuzilmalarning umumiyligini bildiradi. Bundan tashqari amaliy dasturlar paketlariga mustaqil dasturiy mahsulot sifatida, amaliy alohida turi sifatida qarash kerak.

Ta'rifdan kelib chiqqan holda amaliy dasturlar paketlarining quyidagi umumiyyususiyatlarini ajratish mumkin.

- Paket bir necha dasturiy birliklardan iborat bo'ladi.
- Paket masalalarning belgilangan sinfini yechish uchun mo'ljallan-gan.
- O'z sinfi doirasida paket belgilangan universallikka ega, ya'ni ushbu sinfdagi barcha yoki deyarli barcha masalalarni yechishga imkon beradi.

Paketda ko'zda tutilganlardan aniq imkoniyatlarni tanlab olishga imkon beruvchi boshqaruv vositalari ko'zda tutilgan. Paket qo'llanishning aniq shartlarini sozlashga yo'l qo'yadi.

Paket u yaratilgan tashkilot doirasida undan foydalanish imkoniyatlarini hisobga olish bilan ishlab chiqilgan va dasturiy mahsulotga umumiyy talablarni qanoatlantiradi.

Hujjatlar va paketni qo'llash usullari paket tomonidan yog'iladigan masalalarga tegishli bilimlar sohasidagi malakaning belgilangan darajasiga ega foydalanuvchiga mo'ljallangan.

Amaliy dasturlar paketlari masalalarining belgilangan sinfini yechish uchun mo'ljallanganligi sababli, paketning vazifaviy belgilanishi haqida gapirish mumkin.

### **Amaliy dasturlar paketlarining tasnifi**


Vazifaviy belgilanishga ko'ra OT imkoniyatlarini kengaytiruvchi amaliy dasturlar paketlari ajratiladi, masalan, ko'p foydalanuvchili tizimlarni ko'rish, uzoqlashtirilgan abonentlar bilan ishlash, fayllarning maxsus tashkil qilinishini amalga oshirish, OT bilan ishlashni soddalashtirish va h.k uchun. EC OTda vaqtini taqsimlash rejimini amalga oshiruvchi CPB paketi, shaxsiy EHMda MS DOS operatsion tizimi bilan ishlashni yengillashtirish uchun Norton Commander paketi xuddi shunday paketlarga misol bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanuvchilarning amaliy masalalarini yechish uchun mo‘ljallangan paketlar orasida **uslubiy-mo‘ljallangan** va **muammoviy-mo‘ljallangan** paketlarni ajratish mumkin. Uslubiy mo‘ljallangan paket foydalanuvchining masalasini paketda ko‘zda tutilgan bir necha usullardan biri bilan yechishga mo‘ljallangan, buning ustiga usul yoki foydalanuvchi tomonidan belgilaniladi, yoki kiruvchi ma’lumotlarning tahlili asosida avtomatik tanlanadi. Bunday paketga - qavariqli dasturlashni yo jarima vazifalari usuli bilan yoki ehtimol blgan yo‘nalishlar usullarining variantlaridan biri bilan yechishga imkon beruvchi matematik dasturlash paketi misol bo‘ladi.

**Muammoviy-mo‘ljallangan** paketlar umumiyligi ma’lumotlardan foydalanuvchi masalalarning guruuhlar (izchilliklari)ni yechish uchun mo‘ljallanganlar. Bu paketlarning eng ko‘p sonli guruhidir. Muammoli-mo‘ljallangan paket tomonidan bajariladigan operatsiyalarning umumiyligi xarakterida aks ettirilishi mumkin. Bunday paketlarga - matnli muharrirlar, jadvalli protsessorlar, to‘g‘ri chiziqli dasturlash paketi namunaviy misol bo‘la oladi.

Muammoli-mo‘ljallanish umumiyligi amaliy muammoda ham berilishi mumkin, uning yechimi alohida masalalarga bo‘linadi, ularning har birlari uchun paketda o‘z algoritmi ko‘zda tutilgan. Sohalararo balanslarni hisoblashini o‘tkazish uchun paket, loyihalashni avtomatlashtirishning har xil tizimlarida foydalaniladigan paketlar - namunaviy misollardir.

Keyingi yillarda keng belgilanishli paketlardan iborat bo‘lgan matnli muharrir, elektron jadvallar protsessori, ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimi, ma’lumotlar grafik aks ettirish (ishga doir grafika) paketi va uzoqlashtirilgan abonentlar bilan ma’lumotlarni almashtirish vositalarini birlashtiruvchi integratsiyalangan paketlar deb atalganlar keng tarqalgan, 10.1-rasmda paketlarning vazifaviy belgilanishlari bo‘yicha tasniflari varianti ko‘rsatilgan.



10.1-rasm. Paketlarning vazifaviy belgilanishlari bo‘yicha tasniflari varianti

Dasturlash paketini belgilashda paket bir necha dasturiy birliklardan tashkil topadi deb ta’kidlanadi. Bunday dasturiy birliklarni odatda **dasturiy modullar** deb ataydilar. Paket belgilangan sinfdagi masalalarni yechish uchun mo‘ljallangan. Masalalarning bu sinfini odatda **paketning predmetli sohasi** deb ataydilar. Hisoblash masalalarini yechish uchun amaliy dasturlar paketlariga nisbatan

predmetli soha ma'lumotlarning ba'zi bir tarkibini, ya'ni kiruvchi, oraliq va chiquvchi ma'lumotlarni tashkil qilishni belgilaydi. Aytadilarki, paket o'zining predmetli sohasiga mos keluvchi axborot bazasidan foydalanadi.

Foydalanuvchi tomonidan tanlab olingen aniq amallarni amalga oshirish uchun paket foydalanuvchidan boshqaruvchi axborotni qabul qilib olishi kerak. Bu boshqaruvchi axborot rasmiy tilda - paketning kirish tilida beriladi. Foydalanuvchining aniq vazifasini kirish tilida bayon qilinishi **kirish tilidagi dastur** (KTD) deb ataladi.


Paketda har bir masalaning yechimi tegishli algoritmni bajarishdan iborat bo'ladi. Paketda ko'zda tutilgan masalalar yechimini algoritmini amalga oshiruvchi paketning dasturiy modellarini **ishlab chiquvchi modullar** deb ataymiz. Ishlab chiquvchi modullar paketning axborot bazasini tashkil qiluvchi ma'lumotlarning o'zgarishini bajaradilar.

Foydalanuvchining vazifasini ishlab chiquvchi modullar chaqiriqlarining izchilligiga o'zgartirish uchun paketga boshqaruvchi modullar kiritilishi kerak.

Paketning foydalanuvchi bilan va paketning boshqaruvchi modullarining axborot bazasi va ishlab chiquvchi modullar bilan o'zaro hamkorligini ta'minlash uchun paket tarkibiga xizmat ko'rsatuvchi modullar kiritiladi.

Shunday qilib, amaliy dasturlar paketlarini kirish tili, axborot bazasi, boshqaruvchi, xizmat ko'rsatuvchi va ishlab chiquvchi modullarning birlashuvi sifatida ko'rib chiqish mumkin. Ishlab chiquvchi modullarning majmuasini ko'pincha paketning vazifaviy to'ldirilishi deb ataydilar. Boshqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi modullar paketning tizimli ismi yoki paketning tizimli to'ldiruvchisi deb ataydilar.

Paket tarkibiy qismining o'zaro hamkorligi 10.2-rasmda sxematik ravishda ko'rsatilgan. Operatsion tizim vositalari tomonidan paketning bosh boshqaruvchi moduli (etakchi moduli) ishga tushiriladi. Keyin kirish tili dasturlari (KTD) shaklida berilgan foydalanuvchining vazifasini qabul qilish va bu vazifani ishlab chiquvchi va xizmat ko'rsatuvchi modullarini kerakli izchillikda chaqirish bilan bajarish tashkil qilinadi.



10.2 rasm. Amaliy dasturlar paketini tarkibi.

Amaliy dasturlar paketlarini qo'llash usuli ostida masalani yechishda foydalanuvchining paket bilan o'zaro hamkorligini tashkil qilishni tushunamiz. Amaliy dasturlar paketlarini qo'llash usulini tanlash ko'pincha omillarga bog'liq,

OT va dasturlashning tanlangan tilining imkoniyatlari, ishlab chiqilayotgan ma'lumotlarning hajmlari, masalani yechishning davomiyligi, amaliy dasturlar paketlaridan foydalanishning tezligi (qaytarilish tezligi), **paketdan** foydalanuvchilar malakalarining xususiyatlari va masalalarni yechishning operativligiga talablar (hisoblash natijalarini kutishning yo'l qo'yiladigan vaqt) ulardan eng muhimlari bo'ladilar.

Hozirgi vaqtda mavjud bo'lgan amaliy dasturlar paketlarini qo'llash usullari g'oyatda turli - tumandir, ammo paketning o'zining qurilishi va foydalaniladigan EHM va OTlarining xususiyatlari bilan belgilaniladigan ba'zi bir namunaviy rejimlarni ajratish mumkin.

Amaliy dasturlar paketlarini qurilishi nuqtai nazaridan eng oddiy rejim paketning ayrim dasturlaridan foydalanuvchi tomonidan dasturlashning qandaydir tilida, masalan, SI da tuzilgan ba'zi bir bosh dasturning dasturchasi sifatida foydalanishdan iboratdir. Bu holda amaliy dasturlar paketlari faqat ishlab chiquvchi modullardan tashkil topadi va dasturlashda foydalanilgan til dasturlarining kutubxonasini kengaytirilishi sifatida ko'rib chiqilishi mumkin.

Amalga oshirilishning murakkabligi bo'yicha keyingi rejim paketni aniq bajarilishi uchun barcha boshqaruvchi axborotlar paketni ishga tushirishda kirish tilida tugallangan dasturlar ko'rinishida berilishini ko'zda tutadi. Paketning bundan keyingi ishi foydalanuvchining ishtirokisiz o'tadi. Bunday rejimni OTning tegishli rejimiga o'xshatib, ko'pincha **paketli** deb ataydilar. Paketli rejim ko'pincha bir turli masalalarni kirish tilidagi bittagina dasturdan foydalanish bilan yechish talab qilingan vaqtda, har bir masalani yechishga sarflangan vaqt yetarlicha katta bo'lganda, kirish tilidagi dastur murakkab va katta hajmga ega bo'lganda qulaydir.

Shaxsiy EHMLarida qo'llaniladigan ko'pchilik amaliy dasturlar paketlari masalalarni yechishni berishida foydalanuvchi bilan dialogli o'zaro hamkorlikka mo'ljallangan.

Eng oddiy dialogli rejim (dialogli o'zaro hamkorlikning varianti) foydalanuvchi paketni bajarilishini initsirovka qilishi, vazifani kirish tilidagi dastur shaklida kiritishi va bunda paketni bajarilishini boshqarilishini tugallashidan iboratdir. Amalda bu rejim paketlidan faqat KTDdagi xatolarni tuzatish, muvaffaqiyatsizlikda paketni qaytadan ishga tushirish imkoniyati bilan farqlanadi.

Dialogli rejimning, yana kuzatib borish rejimi deb atalgan murakkabroq varianti paketni bajarishning dinamik boshqarish imkoniyatini ko'zda tutadi. Boshqaruvchi axborot foydalanuvchi tomonidan qismlar bo'yicha kiritiladi va paket bilan ishlash jarayonida orali natijalarni tahlil qilish asosida shakllantiriladi. Bunday ish ko'pgina xollarda, xususan matnlarni tahrir qilish dasturlaridan foydalanishda, elektron jadvallar bilan ishlashda, murakkab hisoblash masalalarini yechishda foydalanuvchi uchun tabiiydir.

### Predmetli sohaning ta'rifi va modeli

Amaliy dasturlar paketlarini qo'llash bilan yechiladigan masalalar kiruvchi fan yoki faoliyat sohasi **paketning predmetli sohasi** deb ataladi. Boshqa qilib

aytganda, predmetli soha paket tomonidan yechiladigan masalalar majmuasi bilan belgilaniladi. Predmetli sohaning bunday mazmunli bayoni paketdan foydalanuvchi uchun foydali axborotlarga ega, ammo u ADPni loyihalashtirish va ishlab chiqish uchun yetarlicha aniq emas.

ADPni ishlab chiquvchi predmetli sohaning ba'zi bir soddallashtirilgan tasviri bilan, predmetli sohaning ba'zi bir modeli bilan ishlaydi.

**Matematik model** ostida odatda ba'zi bir ob'ektlar (o'zgaruvchanlar) va bu ob'ektlar o'rtasidagi aloqalar (munosabatlar) ning majmuasi tushuniladi.

Amaliy dasturlar paketlari predmetli sohasining modelini masalalarini yechishda paketda foydalaniladigan ma'lumotlar (o'zgaruvchanlar) va bu ma'lumotlar o'rtasidagi aloqalarning majmuasi bilan berish mumkin.

Ma'lumot (o'zgaruvchan) predmetli soha modelining bir qismi sifatida predmetli sohada uning rolini aks ettiruvchi mazmunli nomi bilan ta'riflanadi. Bunday nom foydalanuvchi uchun odatiy bo'lgan predmetli sohaning mazmunli atamalarida belgilaniladi, masalan «Sohaning yalpi mahsuloti», «Mahsulotning nomi», «To'g'ridan-to'g'ri harajatlarning koeffitsenti». Ma'lumot nomdan tashqari, odatda noyob ism (identifikator)ga ega, undan modelni bayon qilishda foydalanadilar, mazmuniy nom esa faqat paketning foydalanuvchisi bilan aloqa uchun zarurdir. Hisoblashlar jarayonida ma'lumot boshqa ma'lumotlarning miqdorini olish uchun foydalaniladigan miqdorni oladi.

Har bir ma'lumot ma'lumotlarning belgilangan turiga tegishli. Bu yerda ma'lumotning turi ostida uning xususiyatlarining majmuasi, shu jumladan yo'l qo'yiladigan miqdorlarning ko'pchiligi, ma'lumotlar ustida bajarilishi mumkin bo'lgan operatsiyalarning majmuasi tushuniladi. Ma'lumotlarning turi bilan EHM xotirasida ma'lumot miqdorlarini taqdim etish shakli bog'liqidir.

Shunday qilib, paketda foydalaniladigan har bir ma'lumot predmetli soha modelida nomi, turi va miqdori bilan ta'riflanadi. Nom va tur ma'lumotning qayd etilgan atributi bo'ladi, miqdor dinamik xarakterga ega. Dastlabki holatda ma'lumot miqdorga ega bo'lmasligi mumkin (aytadilarki, ma'lumotning miqdori aniqlanmagan), hisoblashlar jarayonida ma'lumot miqdorni olishi, miqdorni o'zgartirishi va miqdorni yo'qotishi mumkin.

Predmetli soha modelida ma'lumotlar o'rtasida aloqalar (munosabatlar) o'rnatiladi. Bu aloqalarning xarakteri turli tuman va katta qismi yechilayotgan masalalarning semantikasi bilan belgilaniladi.

Predmetli soha modelida ma'lumotlarning majmuasi paketning axborot bazasidan iborat bo'ladi. Axborot bazasidagi ma'lumotlar bir-birlari bilan bog'langan ma'lumotlarning ba'zi bir tuzilishini tashkil qiladi. Bu aloqalarning xarakteri paketning axborot bazasini ishlab chiqishda aniqlanadi va odatda paketni faoliyat yuritishi jarayonida o'zgarmaydi. Bunday aloqalarni belgilash bo'yicha aloqalar deb ataymiz. Shunday qilib, belgilash bo'yicha aloqalar - bu paketning predmetli sohasi modelini qurishda axborot bazasida o'rnatiladigan aloqalardir.

Paketni ishlab chiquvchi modullari tomonidan amalga oshiriladigan aloqalar boshqacha xarakterga ega. Bu aloqalar belgilab berilgan va predmetli soha modelida potentsial mavjud, ammo faqat aniq masalani yechish jarayonida, paket ishini

borishida foydalanuvchining to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki vositali ko‘rsatmasi bo‘yicha amal oshiriladi. Bunday aloqalarni **vazifaviy** deb ataymiz.

Predmetli soha modelida modelning ishi (foydalanuvchi masalalarining yechilishi) ma’lumotlar miqdorini o‘zgarishi bilan beriladi. Paket ishining boshida ba’zi bir ma’lumotlarning miqdori belgilanishi (indamaslik bo‘yicha qabul qilinishi, foydalanuvchi tomonidan berilishi va kiritilishi) kerak, qolgan ma’lumotlarning miqdori noaniq bo‘ladi keyin foydalanuvchining talablariga muvofiq ba’zi bir ishlab chiquvchi modullar bajariladi, buning natijasida ba’zi bir oldin aniqlanmagan ma’lumotlarning miqdorlari olinadi yoki miqdorga ega bo‘lgan ma’lumotlarning miqdori o‘zgaradi.

Shunday qilib, ma’lumotlar yangi miqdorlarni faqat ikkita usulda olishlari mumkin: yoki foydalanuvchi tomonidan yangi miqdor kiritilishi natijasida, yoki ishlab chiquvchi modulni bajarish natijasida.

Ma’lumotlarning yo‘l qo‘yiladigan turlarining soni turlar ro‘yxatining o‘zi MPO va butun paketning muhim ta’riflari bo‘lishi mumkin.

Aniq miqdorlarni o‘zlashtirish usuli bo‘yicha ma’lumotlarni quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:

1. Ma’lumotlar doimiy miqdorga ega, u paketni yuklashda belgilanishi mumkin va paketni ishslash jarayonida o‘zgarmaydi (va paketdan foydalanuvchi qo‘llash mumkin bo‘lgan vositalar bilan o‘zgartirilishi mumkin emas). Bunday ma’lumotlarga misol bo‘lib har xil jismoniy konstantlar, ma’lumotnomaviy jadval xizmat qiladilar.

2. Ma’lumot paketni yuklash paytida ba’zi bir qayd etilgan miqdorga (indamaslik bo‘yicha miqdor deb atalganga) ega bo‘ladi, paketni yuklashni borishida bu miqdor foydalanuvchining ko‘rsatmasi bo‘yicha yoki ishlab chiquvchi modullarni bajarilishi natijasida o‘zgarishi mumkin.

3. Ma’lumot foydalanuvchi ushbu ma’lumotning miqdorini belgilash bo‘yicha harakatni qilgunga qadar miqdorga ega bo‘lmaydi. Foydalanuvchining harakati, taxmin bo‘yicha ma’lumotlar miqdorlarini kiritish va ishlab chiquvchi modullarni bajarishga savollar bilan cheklanganligi sababli, ma’lumotlarning ushbu guruhidan ishlab chiquvchi modullarning hech biri bilan miqdorini hisoblab bo‘lmaydigan ma’lumotlarni ajratish mumkin. Bu ma’lumotlar faqat kiruvchi bo‘lishlari mumkin, agar masalani yechish uchun ularning miqdorlari talab qilinsa, foydalanuvchining o‘zi bu miqdorlarni berishi kerak. Bitta ma’lumotning o‘zini foydalanuvchi tomonidan yechilayotgan masalaga ko‘ra yo kiruvchi sifatida, yoki foydalanuvchining vazifasi bo‘yicha paketni ishslashida hisoblanuvchi sifatida ko‘rib chiqish mumkin bo‘lgan vaziyat bo‘lishi mumkin.

Shunday qilib, predmetli soha modelini qurishda paketda ma’lumotlarning qanday turidan foydalanilishini va miqdorlarni o‘zlashtirishning qanday usullari amalga oshirilishini belgilash, keyin ma’lumotlarning nomini tengli va har bir ma’lumot uchun uning turi va guruhini belgilash kerak.

## Test savollari

### 1. Bir vazifali operatsion tizim

- a) \* MSDOS
- b) UNIX
- c) OS/2
- d) WINDOWS NT

### 2. Windows operatsion tizimini o‘rnatish uchun zarur bo‘lgan asosiy vosita:

- a) O‘rnatuvchi fayllari
- b) \* Tizimni o‘rnatuvchi tizimli CD disk
- c) Tizimning asosiy fayllari
- d) Utilit dastur fayllari

## 11-MAVZU: DASTURLASH TEXNOLOGIYASINING USKUNAVIY VOSITALARI VA UNDA QO’LLANILADIGAN DASTURLAR HAQIDA TUSHUNCHА (2 soat ma’ruza)

### Reja

1. Dasturlar yaratish vositalari.
2. Case-texnologiyasi
3. Sun’iy intellekt tizimlari

### DASTURLASH TEXNOLOGIYaSINING USKUNAVIY VOSITALARI.

Hozirgi paytda dasturlash texnologiyasining uskunaviy vositalarini yaratish bilan bog’liq yo’nalish tez sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Bunday uskunaviy vositalar dasturlar yaratish va sozlash uchun quvvatli va qulay vositalarni tashkil etadi. Ularga **Dasturlar yaratish vositalari** va **Sase-texnologiyalar** kiradi.

**Dasturlar yaratish vositalari.** Ushbu vositalar dasturlar yaratishda ayrim ishlarni avtomatik ravishda bajarishni ta’minlovchi dasturiy tizimlarni o’z ichiga oladi.

Ularga quyidagilar kiradi: kompilyator va interpretatorlar; dasturlar kutubxonasi; turli yordamchi dasturlar.

Kompilyator dasturlash tilidagi dasturni mashina kodidagi dasturga aylantirib beradi. Interpretator yuqori darajadagi dasturlash tilida yozilgan dasturning bevosita bajarilishini ham ta’minlaydi.

Dasturlar kutubxonasi oldindan tayyorlangan dasturlar to’plamidan iborat.

Dasturlar yaratish vositalariga Makroassembler MASM, Visual Cutt for Windows Professional Edition kompilyatori, Visual Basic for Windows va boshqalar kiradi.

**CASE**-texnologiyasi informatikaning hozirgi paytda eng tezkor rivojlanayotgan sohalaridan biridir.

**CASE - Computer aided sistem engineering** - axborotlar tizimini avtomatlashirilgan usulda loyihalash degani bo’lib, **CASE**-texnologiyasi turli mutaxassislar, jumladan, tizimli tahlilchilar, loyihachilar va dasturchilar ishtirok

etadigan ko'pchilikning qatnashishi talab etiladigan axborot tizimlarini yaratishda qo'llaniladi. **CASE**-texnologiyalari vositalari nisbatan yangi, 80- yillar oxirida shakllangan yo'nalishdir. **CASE**-texnologiyasi - murakkab dasturiy tizimlarni tahlil etish, loyihalash, ishlab chiqarish va kuzatib turish texnologik jarayonini avtomatlashtiruvchi dasturiy ta'minotdir.

### **Dasturlash tillari va ularni tasniflash**

Hozirgi kunda dasturlash tillarini u yoki bu belgisi bo'yicha tasniflash mumkin. Dasturlash tilining kompyuterga bog'liqlik darajasi bo'yicha tasniflash eng umumiylis hisoblanadi.

Yuqorida aytig'an belgiga qarab, dasturlash tillari kompyutera bog'liq va kompyuterga bog'liq bo'limgan tillarga bo'linadi.

Kompyuterga bog'lik tillar, o'z navbatida, kompyuter tillari va kompyuterga mo'ljallangan tillarga ajratiladi.

Dasturlash tilining kompyuter tiliga yaqinligi darajasini tariflash uchun til darajasi tushunchasi qo'llaniladi.

Kompyuter tili 0 daraja deb qabul qilingan bo'lib, sanoq boshi hisoblanadi. Odamning tabiiy tili "eng yuqori darajadagi til" deb qaraladi.

Kompyuterga bog'liq bo'limgan tillar ham ikkita turga bo'linadi: birinchisi protseduraga mo'ljallangan tillar, ikkinchisiga - muammoga mo'ljallangan tillar.

Protseduraga mo'ljallangan tillar turli masalalarini yechish algoritmlarini (protseduralarni) tavsiflashga mo'ljallangan; shuning uchun ular ko'pincha oddiy qilib "algoritmik tillar" deb ataladi.

Ushbu tillar yechilayotgan masalalar xususiyatlarini to'la hisobga oladi va kompyutering turiga deyarli bog'liq emas. Bu xildagi tillar tarkibi kompyuter tiliga qaraganda tabiiy tilga, masalan, ingliz tiliga yaqinroq.

Hozirgi kunda hisoblash, muhandis-texnik, iqtisodiy, matnli va sonli axborotlarni taxlil qilish va boshqa masalalarini yechish tillari malum.

Masalan: FORTRAN tili 1954 yili ishlab chiqilgan bo'lib, FORmyla TRANslator -formulalar translyatori degan manoni anglatadi va ilmiy va muhandis - texnik masalalarini hisoblashlarda qo'llaniladi.

ALGOL tili 1960 yili yaratilgan bo'lib, ALGORITMIC Langauge -algoritmik til degan ma'noni anglatadi va ilmiy-texnik masalalarini hisoblashlarda qo'llaniladi.

KOBOL tili 1959 yili yaratilgan bo'lib, Common Businees Oriented Langauge - "savdo-sotiq masalalariga mo'ljallangan til" degan ma'noni anglatadi. Korxona va tarmoqning moddiy boyligini, moliyasini, ishlab chiqargan mahsulotini hisobga olish bilan bog'liq iqtisodiy masalalarini yechish uchun qo'llaniladi.

PASKAL tili 1971 yilda e'lon qilingan bo'lib, frantsuz olimi Blez Paskal nomiga qo'yilgan. Turli xildagi masalalar yechimini olishda tartiblangan (strukturaviy) dasturlar tuzishda qo'llaniladi.

PL/1 tili 1964 yilda yaratilgan bo'lib, Programming Langauge/ 1 - 1-tartib raqamli dasturlash tili ma'nosini anglatadi. Ushbu til universal tillar turkumiga kiradi.

Bu tilda ishlab chiqilgan dasturlar kompyuterni yangisi bilan almashtirilganda qaytadan tuzib chiqilishi zarur emas.

BEYSIK (BASIC - Beginner's All Purpose Sumbolic Instruction Code - boshlovchilar uchun ko'p maqsadli dasturlash tili) hisoblash algoritmlarini yozish uchun qo'llaniladigan algoritmik tildir.

Bu til 1965 yilda Dartmut kolleji xodimlari Kemini va Kurtslar tomonidan ishlab chiqilgan.

Protseduraga mo'ljallangan tillardan masalalarning matematik ifodalari, algoritmlar va dasturlash usullari bilan tanish bo'lgan mutaxassislar foydalaniladilar.

Bunda ulardan kompyuterning tuzilishini mukammal bilish talab qilinmaydi.

Muammoga mo'ljallangan tillar kompyuterda masala yechish usullari va dasturlash usullari bilan tanish bo'lmasdan foydalanuvchilar uchun yaratilgandir.

Foydalanuvchi masalani tariflashi, boshlang'ich malumotlarni berishi va natijani chiqarishning talab qilingan ko'rinishini aytishi kifoya.

### Test savollari

#### 1. Qaysi loiyxa xujjatida dasturga bo'lgan talablar aks etadi?

- a) Texnik loyixada
- b) Eskiz loyixada
- c) Ishchi loyixada
- d) \* Texnik topshiriqda

#### 2. Dasturlash texnologiyasi instrumentariysiga quyida keltirilganlardan qaysi biri ta'luqli?

- a) Antivirus dasturlari
- b) Operatsion tizim
- c) \*Axborot tizimlarini yaratish vositalari
- d) Tizimli dasturiy ta'minot

### 12-MAVZU: SISTEMAVIY DASTURIY TA'MINOT (2 soat ma'ruza)

#### Reja

- 1. Sistemali dasturiy ta'minot
- 2. Drayverlar.
- 3. Windows OT

Sistemaviy dasturiy ta'minot (SDT) quydagilarni bajarishga qaratilgan:

- kompyuterning va kompyuterlar tarmog'ining ishonchli va samarali ishlashini ta'minlash;
- kompyuter va kompyuterlar tarmog'ini apparat qismining ishini tashkil qilish va profilaktika ishlarini bajarish.

Sistemaviy dasturiy ta'minot ikkita tarkibiy qismdan - *asosiy (bazaviy) dasturiy ta'minot* va *yordamchi(xizmat ko'rsatuvchi) dasturiy ta'minotdan iborat*. Asosiy dasturiy ta'minot kompyuter bilan birgalikda yetkazib berilsa, xizmat ko'rsatuvchi dasturiy ta'minot alohida, qo'shimcha tarzda olinishi mumkin.


*Asosiy dasturiy ta'minot (base software)* - bu, kompyuter ishini ta'minlovchi dasturlarining minimal to'plamidan iborat.

Ularga quyidagilar kiradi:

- *operatsion tizim (OT)*;
- *tarmoq operatsion tizimi*.

*Yordamchi(xizmat ko'rsatuvchi) dasturiy ta'minotga* asosiy dasturiy ta'minot imkoniyatlarini kengaytiruvchi va foydalanuvchining ish muxitini (interfeysni) qulayroq tashkil etuvchi dasturlar kiradi. Bo'lar tashxis qiluvchi, kompyuterning ishchanligini oshiruvchi, antivirus, tarmoq ishini ta'minlovchi va boshqa dasturlardir.

SHunday qilib, sistemaviy dasturiy ta'minotni sxematik ravishda quyidagicha tasvirlash mumkin.



*Operatsion tizim (OT)*. kompyuterning yoqilishi bilan ishga tushuvchi ushbu dastur kompyuterni va uning resurslarini (tezkor xotira, diskdag'i o'rinalar va xokazo) boshqaradi, foydalanuvchi bilan muloqotni tashkil etadi, bajarish uchun boshqa dasturlarni (amaliy dasturlarni) ishga tushiradi.

OT foydalanuvchi va amaliy dasturlar uchun kompyuter qurilmalari bilan qulay muloqotni(interfeysni) ta'minlaydi.

*Drayverlar*. Ular OT imkoniyatlarini kengaytiradi. Jumladan, kompyuterning kiritish - chiqarish qurilmalari (klaviatura, sichqoncha, printerlar va boshqalar)ni boshqarishda yordam beradi. Drayverlar yordamida kompyuterga yangi qurilmalarni ulash yoki mavjud qurilmalardan nostandart ravishda foydalanish mumkin.

Hozirgi davrda ko'plab OTlar mavjud:

- UNIX;
- MS DOS;
- OS/2;
- WINDOWS 95;
- WINDOWS NT;
- WINDOWS 98;

Birinchi Shaxsiy kompyuterlar OT ga ega emas edilar. kompyuter tarmoqqa ulanishi bilan protsessor doimiy xotiraga murojaat etar edi. Ularda murakkab bo`lmagan dasturlash tili, masalan, Beysik yoki shunga o`xshash tilni qo`llovchi, ya`ni uni tushunib, unda yozilgan dastur bilan ishlay oluvchi maxsus dastur yozilgan bo`lar edi. Ushbu til buyruqlarini o`rganish uchun bir necha soat kifoya qilar, so`ngra kompyuterga uncha murakkab bo`lmagan dasturlarni kiritish va ular bilan ishlash mumkin bo`lar edi. kompyuterga magnitofon ulangach, chet dasto`rni ham yuklash imkoniyati yaratildi. Buning uchun bitta, LOAD buyrug`i kifoya edi, xolos.

kompyuterga disk yurituvchilar ulanishi bilan OTga bo`lgan zaruriyat paydo bo`ldi. Disk yurituvchi magnitofondan shunisi bilan farq qiladiki, bu qurilmaga erkin murojaat etish mumkin.

Diskdagi dasturlarni faqat nomi orqali yuklash imkonini beruvchi operatsion tizim ishlab chiqildi va u ***disk operatsion tizimi (DOT)*** deb nom oldi.

DOT nafaqat diskdagi fayllarni yuklash, balki xotiradagi fayllarni diskka yozish, ikkita faylni bitta sektorga tushishining oldini olish, kerak bo`lgan paytda fayllarni o`chirib tashlash, fayllarni bir diskdan ikkinchisiga ko`chirish (nusxa olish) kabi ishlarni ham bajara oladi. Umuman olganda, DOT foydalanuvchini alohida qog`ozlarda ko`plab yozuvlarni saqlashdan halos etdi, disk yurituvchilar bilan ishlashni soddalashtirdi va xatolar sonini sezilarli darajada kamaytirdi.

OT larning keyingi rivojlanishi apparat ta`minotining rivojlanishi bilan parallel bordi. Egiluvchan disklar uchun yangi disk yurituvchilar paydo bo`lishi bilan OT lar ham o`zgardi. Qattiq diskarning yaratilishi bilan, ularda o`nlab emas, balki yuzlab, hatto minglab fayllarni saqlash imkoniyati yaratildi. Shu sababli fayllar nomida ham anglashilmovchiliklar paydo bo`la boshladи. Ana shunda DOT lar ham ancha murakkablashdi. Ularga disklarni kataloglarga bo`luvchi va ushbu kataloglarga xizmat ko`rsatuvchi vositalar (kataloglar orasida fayllarni ko`chirish va nusxa olish, fayllarni saralash va boshqalar) kiritildi. Shunday qilib, disklarda faylli struktura paydo bo`ldi. Uni tashkil etish va unga xizmat ko`rsatish vazifasi esa OT ga yuklanadi. Qattiq disklar yanada katta o`lchamlarga ega bo`lishi bilan OT ularni bir nechta mantiqiy disklarga bo`lishni ham «o`rganib» oldi.

Ular bir yangi paydo bo`layotgan OT kompyuterning tezkor xotirasidan yanada yaxshi, unumliroq foydalana oladi va yanada quvvatli protsessorlar bilan ishlay oladi.

1981 yildan 1995 yilgacha IBM PC kompyuterlarni asosiy operatsion tizimi MS DOS edi. Shu yillar ichida u MS DOS 22 versiyasigacha bo`lgan rivojlanish bosqichlarini bosib o`tdi.

MS DOS foydalanuvchi bilan kompyuterning apparat ta`minoti o`rtasidagi «vositachi» bo`lib xizmat qildi. Shuning bilan birga u insonga qaraganda kompyuterga yaqinroqdir. Kompyuterni ta`mirlash va unga xizmat ko`rsatish bo`yicha ko`pgina ishlar ham MS DOS da bajarilar edi.

WINDOWS 95, WINDOWS NT, WINDOWS 98 lar grafik interfeysli OT lar hisoblanadi, chunki ular foydalanuvchi bilan grafik tasvirlar (yorliqlar, belgilar) yordamida muloqot qilish imkonini beradilar.

*Tarmoq OT.* Tarmoqqa ulangan kompyuterlarni yakkahol va birgalikda ishlashini ta'minlovchi maxsus dasturlar majmuasidan iborat *OT-tarmoq operatsion tizimi* deb ataladi. Ushbu OT, jumladan, tarmoq ichra ma'lumotlarni ayriboshlash, saqlash, qayta ishslash, uzatish kabi xizmatlarni ko'rsatadi.

Asosiy dasturiy ta'minotni qo'shimcha ravishda o'rnatiladigan xizmat ko'rsatuvchi dasturlar to'plami to'ldirib turadi. Bunday dasturlarni ko'pincha utilitlar deb atashadi.

*Utilitlar* - bu, ma'lumotlarni qayta ishslashda qo'shimcha operatsiyalarini bajarishga yoki kompyuterga xizmat ko'rsatishga (tashxis, apparat va dasturiy vositalarni testlash, diskdan foydalanishni optimallashtirish va boshqalar) mo'ljallangan dasturlardir.

### Test savollari

**1. Qaysi dasturlar foydalanuvchi dasturlarini boshqarish, rejalash EXM xisoblash resurslarini boshqarish uchun mo'janlangan?**

- a) \*Operatsion tizimlar
- b) Operatsion qobiqlar
- c) Utilitlar
- d) Dasturlash tillari

**2. Foydalanuvchi operatsionn tizim komandalari bilan ishlashni yngilashtirishga qaratilgan dasturlar?**

- a) Operatsion tizimlar
- b) \*Operatsion qobiqlar
- c) Utilitlar
- d) Dasturlash tillari

### 13-MAVZU: OPERATSION SISTAMALAR VA ULARNING TURLARI, OPERATSION SISTEMALAR NING TARIXI (2 soat ma'ruza)

#### Reja

1. Zamonaviy operatsion tizimlar
2. BIOS kengaytmasi bloki
3. DOS bazaviy bloke
4. Buyruqli protsessor

Hozirgi paytda turli hil operatsion sistemalar yaratilgan bo'lib, ular tuzilishiga ko'ra har-hil vazifalarni bajaradi. Misol uchun, **UNIX** operatsion sistemasi setlar ya'ni tarmoqlar bilan juda yaxshi ishlaydi lekin, disklar bilan ishlashda turli kamchiliklarga ega. MS DOS operatsion sistemasi esa tarmoq bilan ishlada qiyinchilik tug'diradi. Operatsion sistemalar (OS) foydalanuvchi va kompyuter orasida muloqotni amalga oshiruvchi maxsus dasturlardir. U tezkor xotiradan

foydanish, disklar ustida amallar bajarish hamda kompyuterning boshqa qurilmalar ishlarini boshqaradi.

✓ **Operatsion sistemalar turli masalalar uchun mo'ljanlangan bo'ladi. Hozirgi zamон operatsion sistemalari quyidagi guruhlarga bo'linadi:**

✓ Kichiq xajmdagi Shaxsiy EHMLarga mo'ljallangan OS (MS DOS, PC DOS);

✓ O'rta xajmdagi Shaxsiy EHMLarga mo'ljallangan grafik OS (Windows, Apple OS);

✓ Katta xajmdagi mantiqiy tarmoqlarni boshqaruvchi OS (Windows NT, Windows XP, Unix, Xenix, Linux).

✓ Windows operatsion sistemasi MS DOS operatsion sistemasiga nisbatan grafik imkoniyatlari mavjudligi uchun ancha qulaydir, ammo Windowsdan foydanish uchun tezkor kompyuter va kattaroq xotira xajmi talab qilinadi.

**Operatsion tizimni yuklovchi** — bu Boot Record va Sistem Bootstrap dasturli modulidir.

Odatda oddiygina yuklovchi deb ataladigan bu modul tezkor xotiraga DOS ning ushbu ikkita faylini o'qish uchun mo'ljallangan: BIOS kengaytirmaning IBMBIO.COM moduli (yoki EM BIOS) va uzilishlarni qayta ishlash moduli. Yuklovchi har bir formatlangan diskda 0-yo'lakning 0-tomonida 1-sektorda joylashadi. Yuklovchining hajmi 512 bayt, ya'ni bu uncha katta bo'limgan dastur. Yuklovchi boshlanishida BIOS to'g'risida (firma-tayyorlovchi nomi va tizimning sana - versiyasi) va diskdagi yozuvlarning strukturasi to'g'risida (disk formata, diskdagi va klasterdagi sektorlar soni, fayllarni joylashtirish jadvallari soni va b.) xizmat ma'lumoti joylashtiriladi, keyin esa dastur-yuklovchining o'zi joylashadi.



BIOS mashinaning doimiy xotirasi (DX) da joylashgan va shuning uchun shaxsiy komSHK ning shu modeli uchun barcha mumkin bo'lgan operatsion tizimlarning umumiyligi va o'zgartirish qismi hisoblanadi. DE58 ichidagi narsani o'zgartirish murakkab ishdir va shuning uchun amalda bajarilmaydi. Lekin, kerak bo'lib qolganda, BIOS vazifalarini, qo'shimcha modullar yordamida kengaytirish yo'li bilan o'zgartirish mumkin. Bu zaruriyat quyidagi holatlarda kelib chiqishi mumkin:

- SHK ga yangi tashqi qurilmalar ulanganda;
- tezkor xotirada diskni modellashtirilganda (virtual yoki elektron disk);
- standart bo'limgan buyruqli protsessorni ishlatganda va b.

Bunday qo'shimcha modul IBMBIO.COM (yoki EM BIOS) bloki-dir; bu blok go'yoki BIOS ustiga qurilgan bo'lib, uning imkoniyatlarini o'zgartiradi va to'ldiradi. Bu dasturli modul tizimli diskda saqlanadi. DOS funksiyalarining o'zgarganligi yoki to'ldirilganligi to'g'risidagi kerakli ma'lumotlar operatsion tizimga, IBMBIO.COM dasturi bilan fayl konfiguratsiyasi (DOS sozlamasi) CONFIG.SYS da saqlanayotgan buyruqlar yordamida, xabar beriladi. Har safar SHK ishga tushirilgandan keyin DOS tizimli diskning o'zakli katalogini qarab

chiqadi va unda CONFIG.SYS faylini qidiradi. Agar bu fayl topilsa, u holda DOS unda joylashgan barcha buyruqlarni bajaradi.

Agar konfiguratsiya fayli yo'q bo'lsa, u holda unga kirishi mumkin bo'lgan buyruqning parametrlariga qiymatlar "indamaslik" tamoyili bo'yicha taqdim etiladi. Konfiguratsiyaning o'zgartirilgan buyruqlari faqat SHK ning shu joriy ishslash seansi uchungina uning navbatdagi qayta ishga tushgunga qadar o'rnatiladi.

Ko'pincha BIOS modulining kengaytmasi BIOS da saqlanayotgan drayverlarni mantiqiy almashtirish va yangi drayverlarni ulash vazifalarini bajaradi.

BIOS modulining kengaytmasi yana ushbu ikkita vazifani ham bajaradi:

- DOS uzilishlarini qayta ishslash modulini yuklaydi;
- buyruqli protsessorni yuklaydi va unga boshqarishni uzatadi.

Shunday qilib, IBMBIO.COM SHK asosiy konfiguratsiyasining o'zgarishini hisobga oluvchi va tashqi qurilmalarning qo'shimcha drayverlarini saqlovchi BIOS kengaytmasidir.

Bu DOS ning markaziy bloki bo'lib, u operatsion tizimning asosiy vazifalarini — SHK resurslarini va bajariladigan dasturlarni boshqarishni amalga oshiradi.

Bu blokda resurslarni (jumladan, tashqi qurilmalarni) boshqarish drayverlar vositasi bilan boshqarishga nisbatan yuqog'iroq, darajada, ya'ni drayverlarga murojaat qilishni tashkil etish asosida amalga oshiriladi. Ana shu tashkil etishning boshida fayl tizimi yotadi.

DOS bazaviy blokining asosini (IBMDOS.COM fayli) yuqori darajadagi uzilishlarni qayta ishlovchilar tashkil egadi; shuning uchun bu blok ko'pincha uzilishlarni qayta ishslash bloki yoki moduli deb ataladi.

Uzilishlarni qayta ishslash moduli IBMDOS.COM (yoki MSDOS.SYS) nomiga ega va tizimli diskda joylashgan. IBMDOS.COM SHK ning hamma resurslarini mantiqiy darajada (BIOS ni boshqarish darajasiga nisbatan yuqoriroq) boshqarish (va taqsimlash) dasturlarini o'z ichiga oladi; xususan, IBMDOS.COM da TK, bilan ishlaganda BIOS drayverlarini qims dasturlar kabi ishlatuvchi, yuqori darajadagi uzilishlarni qayta ishlovchi dasturlar joylashadi.

IBM DOS.COM ning muhim dasturlari — bu faylli tizimni boshqarish, disklar bilan qiymatlarni blokli almashtirish, asosiy xotirani taqsimlash dasturlaridir.

Buyruqli protsessor (BP) foydalanuvchining SHK bilan o'zaro ishini amalga oshiradi. U DOS fayli hisoblanadi va Command.COM nomiga ega.

O'zaro ishslash buyruqlar yordami bilan amalga oshiriladi. Buyruqlar ikki tipda bo'ladi: ichki va tashqi. Ichki buyruqlar BP ning o'zining tarkibiga kiradi va DOS yuklangandan keyin tezkor xotirada joylashadi (rezidentli buyruqlar). Tashqi buyruqlar MS DOS tarkibiga kiruvchi .EXE va .COM tipidagi fayllardir.

BP ning asosiy vazifalarilari quyidagilardir:

1. Klaviaturadan yoki buyruqli fayldan kiritilgan buyruqlarni qabo'l qilish va tahlil qilish.
2. COMMAND.COM faylida mavjud bo'lgan DOS ichki buyruqlarini bajarish.
3. MS DOS ning tashqi buyruqlarini yuklash va bajarish; DOS imkoniyatlarini kengaytiruvchi dasturlar (utilita) va .COM va .EXE tipidagi amaliy dasturlar.

Konfiguratsiya fayli yordamida operatsion tizimni kengaytirish va SHK ba’zi qurilmalarining ishlashiga ta’sir ko’rsatuvchi o’rnativchi parametrlarni o’zgartirish mumkin, xususan, yangi tashqi qurilmalarni ishlatish imkoniyatini ta’minlovchi drayverlarni ularash mumkin.

Tizimni konfiguratsiyalash quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

- operatsion tizimni aniq bir apparat resurslariga moslashtirish;
- foydalanuvchining hamjihatlik interfeysini optimallash va yaratish;
- DOS va SHK ning ishlash samaradorligini oshirish.

Konfiguratsiyalash CONFIG.SYS faylida berilgan ko’rsatmalar (direktivalar) bo’yicha, tizimni yuklash vaqtida amalga oshiriladi, bunda quyidagi vazifalarlar bajarilishi mumkin:

- operatsion tizimning ish rejimlarini o’rnatish;
- yangi tashqi qurilmalarning va qo’shimcha xotiraning drayverlarini ularash;
- DOS rezident dasturlarini yuqori xotiraga o’tkazish imkoniyatini ta’minlash;
- xotirani strukturlash (masalan, kiritish-chiqarish buferlari uchun xotira maydonlarini ajratish va sh. u.), utilitalarni sozlash, tizimning sharoitlarini shakllantirish va sozlash maqsadida DOS parametrlarini o’rnatish;
- rezident dasturlarni yuklash;
- kiritish-chiqarish standart qurilmalarini identifikasiyalash.

CONFIG.SYS fayli SHK ning barcha resurslarini (dasturli va apparatli) ma’lum chegaralarda o’zgartirish va shakllantirish imkomini beruvchi maxsus buyruqlarni o’z ichiga oladi.

SHK da ishlaganda ba’zi bir doimiy jarayonlarning bajarilishini ta’minlovchi bir hil buyruqlarni tez-tez bajarishga tuo’ri keladi. Operatsion tizim bu tez-tez takrorlanadigan buyruqlarni maxsus faylga birlashtirish imkonini beradi, bu fayl buyruqli fayl deyiladi (VAT kengaytmasi bilan, shuning uchun uni ko’pincha batch-fayl deyiladi; batch—paketli degan ma’nomi anglatadi). Buyruqli faylga kiritilgan hamma buyruqlar bu faylni bajarish ishga tushirilganda avtomatik ravishda bajariladi.

Eng muhim buyruqli fayllardan biri jarayonlarni avtoyuklash AUTOEXEC.BAT faylidir, uning bajarilishi bilan odatda DOS ni konfiguratsiyalash yakunlanadi. AUTOEXEC.BAT, tizim ishga tushgandan keyin foydalanuvchi har doim berishi kerak bo’lgan DOS buyruqlarini o’z ichiga oladi, foydalanuvchini trivial (oddiy) amallarni bajarishdan ozod egadi.

AUTOEXEC.BAT fayliga kiritilgan buyruqlar bo’yicha quyidagi jarayonlar bajarilishi mumkin:

- operatsion sharoitni va DOS ning ish rejimlarini shakllantirishni yakunlash;
- bajariladigan fayllarni va qiymatli fayllarni qidirishning alternativ yo’llarini o’rnatish;
- tez-tez ishlatiladigan marshrutlar uchun yo’llar nomini belgilash;
- rezident dasturlarni yuklash;
- biror dasturli qobiqni, masalan, Window Commander ni ishga tushirish;
- ishchi katalogni o’rnatish;
- kiritish-chiqarish standart qurilmasini qayta belgilash;

- foydalanuvchi tomonidan ma'lumot kiritishga DOS taklifining ko'rinishini shakllantirish;
- sananing va vaqtning joriy qiymatlarini o'rnatish.

### **Test savollari**

#### **1. BIOS tizimi kompyuterda qanday xotirasida saqlanadi?**

- Kattik diskda
- Tezkor xotirada
- Tizimli diskda
- \*Doimiy xotirada

#### **2. BIOS tizimining asosiy vazifasi nimadan iborat?**

- \* Kompyuter qurilmalarini sozligini tekshirish va operatsion tizimni yuklab boshqarishni unga uzatish
- Operatsion tizim ishini boshqarish
- Kompyuter qurilmalarini bir meyorda ishlashini ta'minlash
- Dastur ta'minotini bir me'yorda ishlashini ta'minlash

### **14-MAVZU: OPERATSION TIZIMNING ICHKI BUYRUQLARNING TASNIFI. OPERATSION SISTEMANING TASHQI BUYRUQLARI VA UNI ISHLATISH XUSUSIYATLARI (2 soat ma'ruza)**

#### **Reja:**

- Fayllardan nusxa olish.
- Fayllarni o'chirish
- Kataloglar bilan ishlash.

Foydalanuvchi va EHMning muloqoti foydalanuvchining MS DOS operatsion sistemasiga ketma-ket beriladigan buyruqlari asosida tashkil etiladi. Buning uchun ichki va tashqi buyruqlar berilgan bo'lib, ichki buyruqlar COMMAND.COM buyruq faylida, tashqi buyruqlar esa alohida fayl ko'rinishida bo'ladi. Quyida DOS ning ichki buyruqlar ro'yxati keltirilgan.

#### **Ichki buyruqlar:**

- BREAK* - to'xtatish;  
*CD* - joriy katalogni o'zgartirish;  
*CLS* - ekranni tozalash;  
*COPY* - fayl yoki kataloglardan nusxa olish;  
*DATE* - joriy sanani kiritish;  
*DELETE* - faylni o'chirish;  
*DIR* - joriy katalogdagi fayllar ro'yxatini ekranga chiqarish;  
*COMMAND.COM* - buyruq protsessori;  
*FOR* - takrorlash buyrug'i;

*GOTO* - buyruq faylidagi metkaga o'tish;  
*IF* - buyruq faylidagi shartni tekshirish;  
*MD* - yangi katalog tuzish;  
*PATH* – Zaruriy qullaniladigan fayllar yolini o'rnatish;  
*PAUSE* - buyruq faylini ishini to'xtatish;  
*PROMPT* - DOS taklifi belgisini o'zgartirish  
*REM* - buyruq faylidagi izox;  
*REN* - fayl nomini o'zgartirish;  
*RD* - katalogni o'chirish;  
*SET* - o'zgaruvchini belgilash;  
*SHIFT* - buyruq fayli parametrleri nomerlarini surish;  
*TIME* - vaqtni kiritish;  
*TYPE* - fayl tarkibini ekranda ko'rish;  
*VER* - DOS versiyasini aniqlash;  
*VOL* - formatlash jarayonida diskka quylgan belgini ko'rsatish;

### **Tashqi buyruqlarning ro'yxati quyidagicha:**

*APPEND* - berilganlarni izlash uchun qushimcha kataloglarni belgilash;  
*ASSIGN* - disk yurituvchi mantiqiy nomini (harfni) o'zgartirish;  
*ATTRIB* - fayl atributini ko'rsatish yoki o'zgartirish;  
*BACKO'P* - fayllarning arxiv nusxalarini yaratish;  
*CHKDSK* - diskni tekshirish va ma'lumot olish;  
*COMMAND* - MS DOS buyruq protsessorini ishga tushirish;  
*DEBUG* – Yuklovchi fayllarni islash jarayonini dizassemblerlanishini ko'rib chiqish;  
*DISKCOMP* – Yumshoq disklarni solishtirish;  
*DISKCOPY* - Yumshoq diskdan nusxa olish;  
*EDLIN* - sodda matn muharriri;  
*EXE2BIN* - EXE faylini ikkilik kodga o'tkazish;  
*FASTOPEN* - fayllarni ochish tezligini oshirish;  
*FC* - fayllarni solishtirish;  
*FDISK* - qattiq diskni konfigurasiyasini o'rnatish;  
*FIND* - fayldagi biror jumlanı izlash;  
*FORMAT* - diskni formatlash;  
*GRAPHICS* - ekrandagi tasvir nusxasini bosmaga tayyorlash;  
*HELP* - DOS buyruqlari haqida ma'lumotlar beruvchi yordamchi fayl;  
*JOIN* - disk yurituvchini berilgan katalogga mantiqan bog'lash;  
*LABEL* - disk belgisini ko'rish yoki belgi qo'yish;  
*MIRROR* - fayllarni o'chirishni nazorat qilib borish buyrug'i;  
*MODE* - qurilmalar ishi holatlarini o'rnatish;  
*MORE* - monitor ekraniga sahifalarga bo'lib chiqarish;  
*PRINT* - matn faylini fon bilan bosmaga chiqarish;  
*ECOVER* - qismlari buzilgan faylni tiklash;

*REPLASE* - fayllarni yangi versiyalari bilan almashtirish;  
*SORT* - berilganlarni saralash;  
*SUBST* - katalog nomini disk yurituvchi belgisiga almashtirish;  
*SYS* - sistema fayllarini diskka ko'chirish;  
*TREE* - diskdan kataloglar shaxobchasini chiqarish;  
*UNDELETE* - o'chirilgan fayllarni tiklash buyrug'i;  
*UNFORMAT* - formatlangan diskni qayta tiklash buyrug'i;  
*XCOPY* - fayldan nusxa olish (COPY ga nisbatan imkoniyati ko'proq).

### **Fayllardan nusxa olish**

Fayllardan nusxa olish quyidagi amallardan foydalanish imkonini beradi:

- biror disk yoki katalogdagi faylning nusxasini biror disk yoki katalogda hosil qilish;
- niqob belgilaridan foydalanib, fayllar to`plamidan nusxa olish fayl nomini o`zgartirib nusxa olish; ikki yoki bir necha fayllarni yagona faylga birlashtirish.

Qayd etish lozimki, nusxa olish bilan katalogda avvaldan mavjud bo`lgan fayl kabi nomlangan faylning hosil qilinishi natijasida mazkur katalogdagi avvalgi fayl buziladi.

A: diskdagи abmshr faylidan V: diska nusxa olish buyrug'i namunasini ko`rsatamiz:

**copy a:abmshr b:**

Mazkur copy buyrug'i bir-biridan bo'sh joy bilan ajralib turgan ikki parametrga ega bo`lib, ularning birinchisi nusxa olinayotgan fayl tutgan o'rni va nomini bildirsa, ikkinchisi esa, hosil qilinayotgan fayl o'rni hamda nomini bildiradi. Agarda keltirilgan namunadagi kabi hosil qilinayotgan fayl nomi ko`rsatilmasa, bu uning nomi nusxa olinayotgan fayl nomi kabi bo`lishi kerak ekanligini bildiradi.

Namunadagi buyruq quyidagi ko`rinishda ham kiritilishi mumkin edi:

**copy a:abmshr b:abmshr**

Buyruq bajarilgach, MS DOS nechta fayldan nusxa olinganligi haqida xabar beradi:

**1 File(s) copied**      (1 fayldan nusxa olindi)

Agarda nusxa olinayotgan fayl nomi noto`g'ri ko`rsatilsa, quyidagi xabar chiqariladi:

**File Not Found**      (Fayl topilmadi)

Fayllar to`plamidan nusxa olish uchun niqob belgilaridan foydalanish kerak bo`ladi. Masalan, joriy disk yoki katalogdagi kengaytmasi .txt bo`lgan barcha fayllardan a: diskka nusxa olish uchun buyruq ko`rinishi quyidagicha bo`ladi:

**copy \*.txt a:**

Faraz qilaylik a: joriy diskda .txt kengaytmali fayllar quyidagicha bo`lsin:

**lada.txt**

**sony.txt**

**toto.txt**

Bu vaziyatda MS DOS nusxa olingan fayllar nomi va soni haqida axborot beradi:

A: lada.txt

A: sony.txt

A: toto.txt

**3 File(s) copied**

(3 fayldan nusxa olindi)

Nusxa olinayotgan fayllar uchun diskda yetarlicha joy bo`lmasa, MS DOS ko`chirilayotgan fayllar uchun joy yetarli emasligi va nechta fayldan nusxa olingani haqida xabar beradi.

Nusxa olish chog`ida hosil qilinayotgan fayl nomini o`zgartirish ham mumkin. Misol, a: diskdagi lada.txt faylidan b: diskka niva.txt nomi bilan nusxa olmoqchi bo`lsak, nusxa olish buyrug`i quyidagicha yozilishi kerak:

**copy a:lada.txt b:niva.txt**

Bir necha faylning nomini o`zgartirib nusxa olish uchun niqob belgilaridan foydalanish mumkin:

Masalan, barcha .txt kengaytmali fayllardan a: diskdan b: diskka .bak kengaytma bilan olish uchun

**copy a:\*.txt b:\*.bak**

buyrug`idan foydalanamiz.

Nomlarini o`zgartirib nusxa olish bilan hosil qilinayotgan fayllarni nusxa olinayotgan katalogning o`ziga ham joylashtirish mumkin. Ammo aynan bir katalogga fayllar nomlari o`zgartirilmay nusxa olish buyrug`i berilsa, ekranga quyidagi xabar chiqariladi:

**File cannot be copied onto itself**

**0 File(s) copied**

(0 fayldan nusxa olindi)

**Type buyrug`i**

Matn faylini monitor ekranida ko`rib chiqish mumkin. Buning uchun **type** buyrug`idan foydalaniladi:

**type a:brr1.txt**

Ko`pincha matn fayli o`lchami katta bo`lgani uchun ekranga sig`maydi. Bu xolda more buyrug`i yordamga o`tadi, yani:

#### **type a:brr1.txt | more**

Saxifama-saxifa matnni ko`rishlik **more** buyrug`i yordamida amalga oshiriladi. Ixtiyoriy qatorda uni to`xtatishlik CTRLQS yoki PAUSE tugmachalari orqali amalga oshiriladi.

#### **Ren buyrug`i**

Fayl nomlarigina o`zgartirish **rename** buyrug`i orqali amalga oshiriladi.

ren a:brr1.txt alm.txt

Niqob belgisi yordamida fayl nomlarida o`zgarish hosil qilish quyidagicha amalga oshiriladi:

ren \*.txt \*.bak

Fayllarni bosmaga chiqarish

Fayllarni bosmaga chiqarish print buyrug`i yordamida amalga oshiriladi:

print a:brr.txt

Agarda bir necha fayllar ketma-ket bosmaga chiqarish talab etilsa, u xolda:

print a:brr1.txt brr2.txt brr3.txt

tarzida buyruq beriladi.

#### **Fayllarni o`chirish**

Tasodifan o`chirilgan fayllarni usha zamon undelete buyrug`i bilan tiklash mumkin, biroq o`chirish amalidan keyin boshqa amallarni bajarilishi tiklashga imkon bermaydi. Bu xolda **mirror** buyrug`i yordamga o`tadi.

#### **mirror /ta /tb,**

yani, /t kalitidan foydalanilgan xolda a: va b: disklar nazoratda bo`ladi.

Fayllarni o`chirish delete buyrug`i yordamida amalga oshiriladi:

#### **Delete a:muh.txt**

Buyruqda /r kalitidan foydalanilsa, o`chirishni ta`kidlash haqidagi axborot chiqadi:

**del a:muh.txt /p  
muh.txt,Delete (Y,N)?**

Faylni o`chir uchun Y, aksincha N ko`rsatiladi.

Faylni o`chirishda niqoblar yordamida amalga oshirilsa, buyruq quyidagicha yoziladi:

**del a:\*.txt**

Agarda a: diskdagi servmar katalogidagi barcha fayllarni o`chirish lozim bo`lsa,

**del a:\servmar\\*.\***

ko`rinishda buyruq yoziladi.

### ***Katalog bilan ishlash***

Odatda foydalanuvchi tomondan ishlayotgan diskni ishchi yoki joriy disk deb yuritiladi. Disklardagi o`zga katologlar bilan ishlash uchun quyidagi ikki amaldan birini tanlash kerak:

-o`zga katalog bilan ishlash uchun uning to`liq nomini ko`rsatish:

- **SD** buyrug'i yordamida kerakli katologga o'tish va ana shu katologni joriy qilish.

Katologni dialog tizimi yordamida klaviaturadan quyidagicha hosil qilish mumkin:

**K:** A:> (Dosni yuklangan holatida turipti.)

**f:** md abmshr ↵ (enter) (bu yerda md buyrug'i yordami da abmshr nomli katolog hosil qildik.)

**f:** cd abmshr ↵

**f:** copy con muhammad ↵ (klaviaturadan to`ridan to`ri muhammad nomli fayli hosil qilinadi)

**k:** A:\ABMSHR> (abmshr katalogi hosil bo`lganligi va uni ichiga kirib ishlash mumkinligi ko`rinadi)

**F:** "Kompyuterni seving va o`rganing" {ctrlQz} (tugmachalari bosiladi)

**K:** Matndan keyin ^ - belgi bilan fayl yopilganligi ko`rsatiladi.

Katologlar bilan ishlash jarayonida disk yoki katalog joriy ekanligini ko`rsatish **PROMPT** buyrug'i orqali bajariladi.

**PROMPT** taklif belgilarini orqali har hil katalogga oid o`zgartirishlar qilish mumkin, buyruqdan keyin yoziladigan taklif belgilarining manolari quyidagicha:

**\$p**-joriy saqlagich va katalogni ko`rsatib turish:

**\$n**-joriy saqlagichni ko`rsatib turish:

**\$d**-joriy sanani ko`rsatib turish:

**\$t**-joriy vaqtni ko`rsatib turish:

**\$h**-chapdagi bir belgini o`chirish:

**\$c**-kodi 27 bo`lgan belgi (**ESC**):

**\$g->**" belgisi.

Misolar:

**K:** A:>

**F:** A:> prompt \$p\$ t enter

**K:** A:\18:51:47.02

**F:** prompt \$n\$d enter

**K:** A Sat 02-28-1998

**F:** prompt \$g enter

**K:>**

## Kataloglarda fayllar ro`yxati

Kataloglar tarkibidagi fayllar ro`yxati **DIR** buyrug'i yordamida ekranda ko`riladi. Ko`rib chiqishlarni ustun,saxifama-saxifa holatda bajarish mumkin.Misol:

**dir /w** (ekranga fayllar ro`yxati ustun ko`rinishida chiqadi).

**dir /p** (ekranga fayllar ro`yxati saxifama-saxifa chiqadi).

Ekranga chiqarilayotgan ro`yxat turli yo'llar bilan saralanishi mumkin. Buning uchun buyruq so`ngida /o kalitini va quyidagi harflardan birini yozish kerak:

**(n)**- nomlariga ko`ra saralash;

**(e)**-kengaytmalariga ko`ra saralash;

**(d)**- yaratilish sanalarga ko`ra saralash;

**(s)**- o`lchamlariga ko`ra saralash; Agarda ikkinchi harfdan avval (-)chiziqcha belgisi yozilsa, saralash usish tarzida emas, kamayish tartibida olib boriladi. Masalan:

**dir a:\abmshr /on**

**dir a:\abmshr /on**

Diskdagi kataloglar shoxobchasini ko`rish **tree** buyrug'i yordamida bajariladi. Misol:

**Tree a**

**Kataloglarni o`chirish**

Katalogni o`chirish uchun rd buyrug'idan foydalilanladi. Misol:

**del a:\ABMSHR\BRR1**

buyruq bajarilgandan so`ng katalogdagi **BRR1** fayli o`chadi.

Misol: **rd ABMSHR (katalog ABMSHR va uning tarkibidagi qism kataloglar ham o`chadi)**

**Kataloglardan nusxa olish**

Kataloglardan nusxa olish xcopy buyrug'i orqali amalga oshiriladi. Misol:

**xcopy a:\ABMSHR\BRR1 c:\**

Katalogdagi barcha fayllardan nusxa olish uchun quyidagi kalitlardan foydalanish kerak:

/s- bo`sh bo`lmagan barcha qism kataloglardagi fayllardan nusxa olish; /s /e - bo`sh kataloglardan ham nusxa olish.

Katalogni qayta nomlash uchun rename buyrug'idan foydalilanladi.Misol:

**rename a:\ABMSHR MUHAMMAD**

bu buyruqdan so'ng ABMSHR katalog nomi MUHAMMAD nomga almashadi,

Fayl atributlarini ko'rish va o'rnatish uchun ATTRIB buyrug'idan foydalaniladi. ATTRIB buyrug'ini qo'llanilishi quyidagicha:

ATTRIB [+R/-R] [+A/-A] [+S/-S] [+H/-H] [DISK:] [yo'l] [fayl nomi] [/S] [/D]"

Bu yerda + atributni o'rnatish

- atributni olib tashlash"

R - faqat o'qish" atributi"

A - arhivli" atributi"

S - sistemali" atribut"

H- yopiq" atributi"

"[disk:] [yo'l] [fayl nomi]- qayta ishslash uchun ko'rsatilgan fayl yoki fayl guruhi

/S - ko'rsatilgan nom bo'yicha joriy katalogdan va uning oyna kataloglaridan fayllarni qayta ishslash"

/D-fayllar va natijalarini qayta ishlas

## Test savollari

### 1. COMMAND.COM fayli bu ....?

- a) Buyruq protsessori
- b) Operatsion tizimning asosiy fayli
- c) Operatsion tizimning ichki buyquklarini o'zida tashkil etuvchi fayl
- d) \* Yuqoridagilarni barchasi to'g'ri

### 2. CHKDSK buyrigini vazifasi ... dan iborat?

- a) \*Disk xolatini tekshirish
- b) Diskdagi fayllar ruyxatini ko'rish
- c) Diskli xotirani sozlash
- d) Diskli xotiradagi kataloglar ro'yxatini ko'rish

## 15-mavzu: Windows operatsion sistemasi va uning turlari (2 soat amaliy)

### Reja

1. Windows operatsion sistemasi
2. Windows operatsion sistemasining turlari

Shaxsiy kompyuterlar inqilobi bundan 35 yil avval boshlangan edi — Microsoft 1985 yil 20 noyabr kuni MS-DOS o'rniga yangi tizim — Windows'ning birinchi versiyasini taqdim etgandi.




THE VERGE

The Verge'ning yozishicha, Windows 1.0 bugun biz foydalananayotgan Windows tizimlaridan keskin farq qilardi. Shunga qaramay, kompyuterlar uchun mo'ljallangan jahondagi eng ommabop operatsion tizimning so'nggi versiyasi — Windows 10'da ham 30 yil avvagi tizimda ko'rsa bo'ladigan skroll-barlar, drop-daun menyular, yorliqlar, muloqot oynalari va Notepad hamda MS Paint kabi dasturlar bor.


Mobil qurilmalarning ommalashib, ular uchun mo'ljallangan operatsion tizimlar kundan-kunga takomillashib borayotgani sabab, 2045 yilda ham biz Windows'ning keyingi 30 yillik tarixiga nazar tashlashimiz ehtimoli kam. Bugun esa Microsoft'ni Microsoft qilgan operatsion tizim o'tgan davr mobaynida qanchalik o'zgarganini kuzatishimiz mumkin.

### Windows 1.0 (1985)




Ibtido: Windows 1.0'da grafik interfeys joriy etilgan, unda sichqoncha bilan ishslash mumkin edi, shuningdek, bir qator muhim dasturlar bor edi.

## Windows 2.0 (1987)



Word va Excel kabi ommabop dasturlar birinchi bo‘lib Windows 2.0’da paydo bo‘lgan.

## Windows 3.0 (1990)




Windows 3.0’da interfeys sezilarli yaxshilangan, yangi Dastur va Fayl menejerlari paydo bo‘lgan. Tizimning 3.1 versiyasida davr o‘yini — «Sapyor» paydo bo‘lgan.

## Windows NT 3.5 (1994)



Windows NT’ning ikkinchi chiqishi — Windows NT 3.5’da Microsoft xavfsizlikni ta’minlash va fayllar almashinuviga katta e’tibor qaratdi.

## Windows 95 (1995)



Windows 95 — operatsion tizim tarixidagi eng muhim yangilanishlardan biri. Windows’da Start («Pusk») menyusi tatbiq etildi, xilma-xil dasturlar, jumladan, Internet Explorer paydo bo’ldi.

## **Windows 98 (1998)**



Windows 98 tizimi Windows 95'ning muvaffaqiyatlari va kompyuterning ishlab chiqarish samaradorligini oshirish asosida tayyorlandi. Microsoft bu safar internetga katta e'tibor qaratdi — tizimda internet bilan bog'liq ish va vazifalarni osonlashtirishga xizmat qiluvchi Active Desktop, Outlook Express, FrontPage Express, Microsoft Chat, NetMeeting kabi dastur va funktsiyalar mavjud edi.


## **Windows ME (2000)**



Windows ME'da asosiy urg'u multimediga qaratildi, biroq u yaxshi ishlamas, ko'p xatolik berardi. Windows Movie Maker dasturi birinchi marta aynan

MYe'da paydo bo'ldi, Windows Media Player va Internet Explorer kabi dasturlar esa yangilandi va yaxshilandi.

## Windows 2000 (2000)




Windows 2000 avvalgi versiyalardan biri — Windows NT asosida biznes bilan bog'liq mijozlar va server kompyuterlari uchun ishlab chiqilgan edi.

## Windows XP (2001)




Windows XP'da Microsoft'ning shaxsiy va biznes kompyuterlarni uyg'unlashtirish borasidagi harakatlari meva berdi. Bungacha Windows'ning hech bir versiyasi yetti yil davomida bozorda yetakchilik qilmagandi.

## Windows Vista (2007)



Windows Vista xuddi Windows NT kabi sovuq kutib olindi. Microsoft kompaniyasi Vista ustida olti yil ishlab, yangi aero-interfeysni joriy etgan va xavfsizlik xossalariini kuchaytirgan edi, biroq bularning yangi, yaxshiroq kompyuterda soz ishlardi. Vista — Windows tarixidagi eng ko‘p tanqid qilingan tizimlardan biridir.

## Windows 7 (2009)



2009 yili Vista bilan bog‘liq bo‘shliqlar o‘rnini to‘ldirish uchun Windows 7 chiqarildi — Microsoft korporatsiyasi tizimning ish samardorligini oshirish va foydalanuvchi interfeysi yaxshilash ustida ko‘p mehnat qilgani sezilib turardi. Windows 7 hozirda Windows’ning eng ommabop versiyalardan biridir.

## Windows 8 (2012)



Windows 8’da tizim keskin redizaynga uchradi — Microsoft «Pusk» tugmasidan voz kechib, uni boshlang‘ich ekran bilan almashtirdi. Ishchi stolidagi eski dasturlar o‘rniga esa «metro uslubi»dagi ilovalar ishlab chiqildi. Kompaniya bu tizimni sensor ekranli va planshetli kompyuterlar uchun mo‘ljallagandi. Microsoft ko‘pchilik uchun kutilmagan bu qadamdan so‘ng, Windows’ning kelajagini jiddiy o‘ylab ko‘rishga majbur bo‘ldi.

## Windows 10 (2015)



«Pusk»ka qaytish: Windows 10'da hammamiz uchun tanish «Pusk» qaytdi, Cortana, Microsoft Edge va Xbox One kabi yangi funktsiyalar qo'shildi. Tizim asosan gibrild noutbuklar va planshetlar uchun mo'ljallangan.

### Test savollari

**1. Windows oilasiga mansub bo'lgan birinchi grafik interfeysi operatsion tizimni ko'rsating?**

- a) \* Windows 3
- b) Windows 95
- c) Windows 3.11
- d) Windows NT

**2. Windows operatsion tizimini o'rnatish uchun zarur bo'lgan asosiy vosita:**

- a) O'rnatuvchi fayllari
- b) \* Tizimni o'rnatuvchi tizimli CD disk
- c) Tizimning asosiy fayllari
- d) Utilit dastur fayllari


## 16-MAVZU: FAYLLARGA XIZMAT KO'RSATUVCHI DASTURLAR (2 SOAT MA'RUZA)


### Reja

1. Dasturiy taminot haqida qisqacha ma'lumot.
2. Utilitlar haqida tushuncha.
3. Xizmat ko'rsatuvchi dastur turlari.

Asosiy dasturiy ta'minotni qo'shimcha ravishda urnatiladigan xizmat kursatuvchi dasturlar tuplami tuldirib turadi. Bunday dasturlarni kupincha utilitlar deb atashadi.

**Utilitlar** — bu, ma'lumotlarni qayta ishlashda qo'shimcha operatsiyalarni bajarishga yoki kompyuterga xizmat kursatishga (tashxis, apparat va dasturiy vositalarni testlash, diskdan foydalanishni optimallashtirish va boshqalar) muljallangan dasturlardir





Servis dasturiy ta'minoti-foydalanuvchiga kompyuter bilan ishlashda qo'shimcha xizmatlar taqdim etuvchi va operatsion tizimlar imkoniyatlarini oshiruvchi dasturiy maxsulotlar jamg' armasidan iborat.

Biroq, funksional imkoniyatlarga ko'ra, servis vositalarini quyidagi vositalarga bo'lish mumkin:

- foydalanuvchi interfeysi yaxshilovchilar;
- ma'lumotlarni buzilish va qoidasiz kirishlaridan himoya qiluvchilar;
- ma'lumotni qayta ishlovchilar;
- disk va tezkor xotira qurilmasi o'rtaida ma'lumot almashuvini tezlashtiruvchilar;
- virusga qarshi vositalar.

OT ning sozlovchisi bo'lgan qobiqlar operatsion qobiqlar deb ataladi. Utilitlar va avtonom dasturlar tor ixtisoslashgan bo'lib, har biri o'z vazifasini bajaradi. Biroq utilitlar avtonom dasturlardan farqli ravishda tegishli qobiqlar muhitida bajaradi. Qobiq foydalanuvchiga sifat jihatdan yangi interfeys taqdim etadi. OT foydalanuvchi operasiya va buyruqlarini ikir-chiqirigacha bilishdan ozod etadi.

Utilitlar foydalanuvchiga qo'shimcha xizmatlarni asosan disklar va faylli tizimlar bo'yicha xizmat ko'rsatish ko'rinishida taqdim etadi. Utilitlar quyidagi vazifalarni bajarishga yul qo'yiladi:

- -disklarga xizmat ko'rsatish;
- -fayl va kataloglarga xizmat ko'rsatish (xuddi qobiqlar kabi);
- -arxivni yaratish va yangilash;

- -turli rejim va formatlarda matnli va boshqa fayllarni bosish;
- -kompyuterni virusdan himoya qilish.


Virusga qarshi himoyalı dasturiy vositalar viruslarni topish va davolashni ta'minlaydi.

Texnik xizmat ko'rsatish dasturlari deganda kompyuter ishi jarayoni yoki umuman hisoblash tizimida diagnostika va xatolarni topish uchun dasturiy-apparat vositalarining jamlanmasi tushuniladi. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi: EHM va uning ayrim qismlari ishining to'g'riligi diagnostik va test nazorati vositalari shu jumladan ularning EHMda muayyan lokalizasiyasi bo'lgan xatolar va shikastlanishlarni avtomatik izlash. Axborot tizim hisoblash muhitini diagnostik va nazorat qilishning maxsus dasturlari.

Windows muxiti xizmatchi dasturlari «Pusk» tugmasida joylashgan bo'lib, «Программы» bo'limidagi standart dasturlar sirasiga kiradi. Standart dasturlar ichida alohida «Служебные» bandida joylashgandir. Ular sirasiga quyidagi xizmatlar kiradi:


- 1. Архивация данных**
- 2. Восстановление системы**
- 3. Дефрагментация диска**
- 4. Мастер переноса файлов и параметров**
- 5. Назначенные задания**
- 6. Очистка диска**
- 7. Сведения о системе**
- 8. Таблица символов**

1. «Архивация данных» bo'limiga kirganda birinchi bo'lib quyidagi oyna hosil bo'ladi




Ushbu dastur yordamida qattiq diskdagi mavjud fayllarni arxivlash va arxivlangan fayllarni tiklash mumkin.

2.Tizimni qayta tiklash(«**Восстановление системы**») Sistemani tiklash xizmatchi dasturi kompyuterni oldindan belgilangan kun holatiga qaytarib, shu belgilangan kundan beri qilingan xavfsiz o`zgartirishlardan voz kechadi. Uni muloqot oynasi quyidagicha.



**3. Дефрагментация диска.** Diskdagi axborotlar tartibsiz joylashishi bizga ma`lum.

Chnki hajmi har-hil bo`lgan axborotlarni diskka yozish va o`chirish diskda har-hil joylarida bo`shto joylarni qolishiga va diskdagi axborotlarni bir qismi bir joyda, qolgani boshqa joyda saqlanishiga olib keladi. Bu esa kompyuter tezligini sezilarli darajada pasaytiradi. Bu kamchilikni to`g`rilash uchun axborotlarni yaxlit saqlanishiga erishi kerak bo`ladi. Buning uchun «defragmentasiya diska» xizmatchi dasturidan foydalanimiz yoki aksincha «**мой компьютер**» dasturi oynasida defragmentasiya qilinishi lozim bo`lgan diskni ustiga sichqoncha ko`satkichini olib kelib, sichqonchani o`ng tugmasi bosiladi va chiqqan muloqot oynasidan «**свойства**» amalini tanlanadi.




So`ng ekranda diskka xos axborotlar bilan birgalikda servis xizmatini bajaruvchi oyna ham nomoyon bo`ladi.

Bu oynadan «**Выполнит дефрагментацию**» amalini tanlashimiz mumkin. Yuqoridagi Pusk tugmasi orqali kirish yoki servis bo`limidan defragmentasiya qilish bu ahamiyatsiz. Aslida pirovard natija bir hil.

O`ng tamonda siz defragmentasiya uchun disk tanlash maydonini ko`rib turibsiz.


Disk tanlangandan so`ng Enter tugmasi bosiladi va shu bilan defragmentasiya jarayoni boshlanadi. Defragmentasiya jarayonida boshqa

dasturlarni ishlatish tavsiya etilmaydi. CHunki dasturlar ishlaganda disklarda qandaydir yozuvlar o'zgarishi hosil bo'ladi. Bu defragmentasiya ishiga halaqit beradi. Defragmentasiya bu fayllar fragmentlari ya'ni bo'laklarini alohida -alohida emas, balki bir bo'lak bo'lib saqlanishiga xizmat qiladi va bu kompyuter ishlashini tezlashtiradi. Qo'yida defragmentasiya dasturi oynasi misol keltirilgan.




Demak defragmentasiya alohida-alohida ajralib, disk bo'ylab sochilib ketgan fayl fragmentlarini qaytadan bir joyga to'plab, fayllarga murojaat qilish tezligini oshiradi. Bu bilan u kompyuterni ishlash tezligini ham oshiradi.

#### **4. Fayl va parametrlarni ko'chirish ustasi (Мастер переноса файлов и параметров).**



«**Мастер переноса файлов и параметров**» bo`limiga kirishda quyidagi oyna hosil bo`ladi

- Master fayllarini, parametrlarini bir boshlang`ich kompyuterni ikkinchi bir yangi kompyuterga o`tkazish imkoniyatini.
- O`tkazish ustasi yordamida Internet Explorer va Outbook Express dasturlari parametrlarini, ishchi stoli parametrlari, ekran parametrlarini masofaviy o`qitishlarini va boshqa parametrlarini o`tkazish mumkin.
- Ish boshlashdan oldin kompyuterdagи barcha ishlarni tugatish lozim.



5. **Topshiriqni o`rnatish** («**Назначенные задания**») bu dastur foydalanuvchiga dasturlarni bajarish uchun jadval tuzishga yordam beradi. Bu dasturlar xizmatchi dasturlar yoki boshqa dasturlar bo`lishi mumkin.




Bu «**Назначенные задания**» dasturi yordamida dasturlarni bajarish jadvalini tuzishga kirish. «Далее» (olg`a) tugmasi bosilishi bilan ekranda yangi

muloqot oynasi ya`ni quyida ko`rsatilgan rasmdagi oyna-bajarilishi lozim dasturlarni tanlash oynasi nomoyon bo`ladi. Bu muloqot oynasi yordamida jadval bo`yicha qaysi dasto`rni ishlatalish kerakligi tanlanadi.

Oynada oldindan o`rnatilgan Windows tizimi yordamchi dasturlari sirasiga kiruvchi dasturlar mavjud. Foydalanuvchi ular orasidan ixtiyorisi tanlab va keyingi oyna yordamida, ushbu dasto`rni qachon, qaysi payt bajarish lozimligi ko`rsatiladi. Shunday qilib tanlangan dastur siz tayinlagan vaqtida ishga tushadi. Aytaylik bu dastur biror-bir antivirusdir yoki boshqa bir hizmatchi dasturdir bu foydalanuvchiga havola.

**6.Diskni tozalash(«Очистка диска »)** dasturi bilan tanishamiz. Bu dastur diskda keraksiz fayllar hisobidan bo`sh joylar hosil qiladi. Demak keraksiz, vaqtinchalik fayllarni o`chirishda yordam beradi. Nomidan kelib chiqib diskni tozalaydi degan xulosaga kelsak ham bo`ladi. Mana bu « Очистка диска » ya`ni diskni tozalash dasturini boshlang`ich oynasi.




Bu oynada keraksiz fayllarni qaysi diskdan o`chirish lozimligini ko`rsatish kerak bo`ladi. Hozirda bizda s: diskni tanlangan holati ko`rsatilgan.

"Temporary Internet Files" papkasi qattiq diskda Web saxifalarini tez ko`rish uchun saqlaydi. "Temporary Internet Files" uchun sizning o`rnatilgan holatlar o`zgartirishsiz qoladi.

"Downloaded Program Files" papkasida Internetdan bir necha sahifalarni ko`rish orqali avtomatik qabo`l qilinuvchi axborotlar, Active elementlari va boshqalar vaqtinchalik saqlanadi. «Корзина» o`zida foydalanuvchi o`chirgan fayllarni saqlaydi. Bu fayllar hali to`la o`chirilgan emas. Qachonki «Корзина» tozalangungacha o`zida ushbu fayllarni o`zida saqlab turadi. Bir qancha dasturlar vaqtinchalik ma`lumotlarni TEMP papkasida saqlaydi. Dastur ishini yakunlashidan oldin bu ma`lumotlar o`chiriladi. Agar bu vaqtinchalik fayllarga hafta oralig`ida murojaat qilinmagan bo`lsa, ularni o`chirish mumkin.

«PC Health» kompyuterni doimiy to`g`ri ishlashini ta`minlaydi. U har qachon o`matilgan faylladan nushalar olib qo`yadi. Ushbu parametr keraksiz nushalarni o`chiradi.


Qo`yida «Очистка диска» dasturini qo`sishimcha amallari aks etgan oyna keltirilgan.



**«Компоненты Windows»**  
Windows ni fodalanil-mayotgan komponentlarini o`chirib qo`shimchasi joy bo`shatish.

**«Установленные программы»**  
foydalanimayotgan dasturlarni o`chirib joy hosil qilish.

## 7. Tizim haqida ma`lumot olish(Сведение о системе)



Sistema haqida ma`lumot beradi.

### Test savollari

#### 1. Kattik diskni defragmentatsiyalash qanday amalga oshiriladi?

- a) \*Пуск/программы /стандартные / служебные / дефрагментация диска
- b) Пуск/программы /служебные/дефрагментация диска
- c) Пуск/программы/стандарты/ дефрагментация диска
- d) Программы/стандарты/ дефрагментация диска /служебные

#### 2. Defragmentatsiyalash nima uchun bajariladi.

- a) \* fayllarni tartiblash va kompyuter ish unumdorligini oshirish uchun
- b) qattiq diskdagi fayllarni tozalash uchun
- c) qattiq diskdagi fayllarni ko`chirish uchun
- d) qattiq diskdagi fayllarni tiklash uchun

## 17-MAVZU: SISTEMALI DASTURLARNING ROLI VA VAZIFASI (2 SOAT AMALIY)

### Reja

1. Sistemali dasturlarning roli
2. Sistemali dasturlarning vazifalari
3. Sistemali dasturlarning sifatlari

Aksariyat hollarda operatsion sistemaga ikki xil ta’rif berishadi: “Kompyuter qurilmalarini boshqaruvchi dasturlar majmui” va “Kompyuterdagи boshqa dasturlarni boshqaruvchi dasturlar majmui”. Dasturiy ta’mintoni asosiy tashkil etuvchisi hisob- lanadigan **operatsion sistema** tushunchasiga to’liq ta’rif berish qiyin. Chunki, bir tomondan, **sistema** so‘zi turli soha mutaxassislari tomonidan keng qo’llaniladi va turlicha talqin qilinadi; **operatsiya** so‘zi esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjimada “amal” degan ma’noni anglatsa-da, uning tub mohiyatini bu birgina so‘z bilan aniq tavsiflab bo‘lmaydi. Ikkinci tomondan, operatsion sistema faqatgina kompyuter qurilmalari va dasturlarini boshqaruvchi dasturlar majmui emas, balki unga boshqa talablar ham qo‘yilishi mumkin.

U holda foydalanuvchi operatsion sistemani qanday tushunishi kerak? Kompyuter ishga tushirilganda, odatda, uning quril- malari bilan bir qatorda maxsus dastur ishga tushadi. Mazkur dastur foydalanuvchi bilan kompyuter orasi- dagi qulay interfeysli muloqotni ta’minlaydi va u **operatsion sistema** (qisqacha **OS**) deb yuritiladi.

Odatda, operatsion sistema tashqi xotira — diskda joylashadi va shuning uchun **disk operatsion sistemasi** (qisqacha **DOS**) deb yuritiladi.

Operatsion sistemani qiyosiy misol yordamida tushuntirishga harakat qilamiz. Kompyuter operatsion sistemasi ishini zamonaviy uyda istiqomat qiluvchining ayrim imtiyozlari bilan qiyoslash mumkin. Masalan, tele vizor ko‘rmoqchi bo‘lsangiz, quwat tugmasini bosishingiz, suv tarmog‘idan suv olmoqchi bo‘lsangiz esa jo‘mrakni burashingiz yetarli. Odatda, elektr qanday hosil qilindi yoki nima uchun televizordan qo‘shiq taralmoqda, toza suv qaerdan va qanday oqib kelmoqda kabi savollar bilan boshingizni qotirib o‘tirmaysiz. Agar keng kolamdagи xizmat ko‘rsatish tarmoqlari majmui, qurilmalari va xizmatchilari bo‘lma ganda edi, sizga bu resurslarni (misolimizda suv, elektr toki va televizion texnologiya) olish uchun ko‘pdan ko‘p ishlarni bajarish lozim bolar edi. Masalan, katta orolda yolg‘iz qolgan kishi suv olishi uchun o‘zi quduq qazishi; o‘tin sifatida yoki qurilishga yog‘och olish uchun daraxtlami kesishi, yo‘nishi; oziq-ovqat uchun o‘zi bug‘doy ekishi va shu kabi ishlami bajarishi kerak boladi.

Dastlabki EHM ishlab chiqarilgan davrda oddiy arifmetik amalni bajarish uchun ham katta hajmdagi ishlar bajarilar edi (ifodada ishtirok etgan har bir ma’lumotni aniq bir adresda joylash; amal bajariladigan hamda natija yoziladigan barcha adreslarni ko‘rsatish, javobni qanday olishni aniqlashtirish va boshqalar talab etilar edi, chunki ular dasturda ko‘rsatilishi zarur edi-da). Bu kabi ishlarni osonroq hal etish uchun turli xil yordamchi dasturlar ishlab chiqildi, ishlab chiqilgan dasturlami tartib bilan bajarishni ko‘rsatish uchun yana qo‘sishmcha dasturlar ishlab chiqildi.

Keyinchalik turli foydalanuvchiga kerak bolgan turli dasturlarni tanlash va boshqarish uchun yana yordamchi dasturlar ishlab chiqildi. Shu tariqa yillar davomida dasturchilar yagona nom bilan birlashtirilgan, ya’ni operatsion sistema deb atalgan dasturlar majmuini ishlab chiqishdi.

Shunday savolga javob beraylik: mazkur yordamchi dasturlar majmui bolmasa, amallar EHM da qanday bajarilgan bo’lar edi?

Tanlangan dasturlar kodining bosqichma – bosqich yozilish (kodlash), ularni testlash va tuzatib olish jarayoni amalga oshirishdir.

### **Birga qo'shish**

Dasturiy ta'minotning yangi versiyasini yaratish va tadbiq qilish jarayonini **birga qo'shishdir**.

Ushbu bosqichda dasturiy mahsulotga zarur o'zgartirishlar kiritiladi, qolgan holatlardagi kabi, oldingi istalgan bosqichda qabul qilingan loyiha qarorlarini qayta ko'rib chiqish talab qilinishi mumkin.

Dasturiy ta'minot hayotiy tsiklining modeli o'zgarishi bilan ushbu bosqichning roli ancha oshdi, chunki mahsulotlar iteratsion tarzda yaratilmoqda: avval nisbatan oddiy versiya ishlab chiqariladi, keyin katta imkoniyatlar, so'ngra keyingisi va hakozo. Xuddi shu, ISO/IEC12207 standartga muvofiq hayotiy tsiklining ayrim jarayonida birga qo'shilish bosqichini ajratishga sabab bo'ldi.

## **2. Dasturiy ta'minot hayotiy tsikli modulining evolyutsiyasi**

XX oxirida dasturlashda dasturiy ta'minot hayotiy tsiklining uchta modeli almashdi:

### **Kaskad modeli**

- Dastlab (1970 – 1985 yillar) keyingi bosqichga o'tish oldingi bosqichning loyiha operatsiyalari to'liq tugagandan keyin va keyingi bosqich uchun

barcha dastlabki ma'lumotlar olingandan keyin amalga oshirilishi tavsiya qilinadigan dasturiy ta'minotni ishlab chiqishning kaskad sxemasidan foydalanildi.

### **Ushbu modelning afzalliklari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:**

- to'liqlik va moslashish talablariga javob beruvchi loyiha hujjatlarini tugallangan to'plamning har bir bosqich oxirida olinadi;
- ishlab chiqish jarayonini loyihalashtirishning oddiyligi;

Xususiyatlarni aniqlashtirish (o'zgartirish)dan rad etish tugallangan mahsulot foydalanuvchilar ehtiyojini qanoatlantirmaydi. Foydalanuvchi uskuna va dasturiy muhitning almashishini hisobga olishni rad etish natijasida ma'naviy eskirgan mahsulot olinadi. Muvaffaqiyatli bo'lmagan loyiha qarirlarni qayta ko'rib chiqishni rad etish dasturiy mahsulot tuzilmasini yomonlashtirishga va mos ravishda, yaratish jarayonining vaqt bo'yicha murakkablashishiga, cho'zilishiga va qimmatlashuviga olib keladi. Shunday qilib, ishlab chiqishning real jarayoni iteratsion xarakterga ega bo'ladi.

### **Oraliq nazoratli model**

Ishlab chiqish jarayonining iteratsion xususiyatlarini ta'minlovchi sxema oraliq nazoratli sxema deb nomlanadi. Tugallangan har bir bosqichdan keyin ushbu sxema bo'yicha bajariladigan nazorat, zarur bo'lganda istalgan darajaga qaytarish imkoniga ega bo'ladi va zarur o'zgartirishlarni kiritadi.


Ushbu sxemadan foydalanishning asosiy xavfsizligi ishlab chiqarish hech qachon tugamaydi, doimo aniqlashtirish va takomillashtirish holatida bo'lganligi bilan bog'liqligi hisoblanadi.

### **Spiral model**

Muammolarni yengish uchun XX asrning 80-yili o'rtalarida spiral sxemasi taqdim etildi. Ushbu sxemaga muvofiq dasturiy ta'minot prototipni yaratishga asoslangan prototiplash usulidan foydalangan holda, iteratsion holatda yaratiladi.

**Prototip** deb, ishlab chiqilayotgan dasturiy ta'minotning va tashqi interfeyslarini amalga oshiradigan dasturiy mahsulotga deyiladi.

Qoidaga ko'ra, birinchi iteratsiyada foydalanuvchining interfeysi spetsifikatsiya qiladi, loyihalashtiradi, amalga oshiriladi va testlaydi. Ikkinci iteratsiyada ayrim cheklangan funktsiyalar to'plami bilan to'ldiriladi. Oxirgi bosqichda ushbu to'plam ushbu mahsulot imkoniyatini ko'paytirib kengaytirish hisoblanadi.



Ushbu sxemaning asosiy afzalliklari aniq funksional to‘liqlik ta’minlangan ayrim iteratsiyadan boshlanib, foydalanuvchiga mahsulotni taqdim etish hisoblanadi, o‘z navbatida quyidagi imkoniyatga ega bo‘ladi:

- dasturiy mahsulotning birinchi versiyasi yuzaga kelguncha bo‘lgan vaqtini qisqartirish;
- bozorda mahsulotning quyi versiyasini tez oldinga siljishini ta’minlangan holda, foydalanuvchilarning ko‘plab sonini qiziqtirish;
- mahsulotdan foydalanish amaliyoti yuzaga kelish hisobiga xususiyatlarni shakllantirish va aniqlashtirishni tekshirish;
- ishlab chiqish vaqtida tizimning ma’naviy eskirish ehtimolini kamaytirish.

### **Dasturiy ta’minot ishlab chiqilishini tezlashtirish**

Dasturiy ta’minot hayotiy tsiklning spiral modelini va CASE – texnologiyalarni ishlab chiqish dasturiy ta’minotni yaratish muddatlarini qisqartiradigan shartlarni ifodalash imkoniga ega bo‘ldi.

Dasturiy ta’minotni loyihalashtirish, ishlab chiqish va kuzatishning zamonaviy texnologiyalari quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- dasturiy ta’minotning to‘liq hayotiy zanjirini ta’minlash;
- belgilangan sifat bilan va belgilangan vaqtida ishlab chiqish maqsadlarga kafolatlangan xolda erishish;
- tarkibiy qismlarni keyinchalik integratsiya qilish va umumiylar loyiha joriy qilinishini muvofiqlashtirishni cheklangan bajaruvchilar sonining (3-7 kishi) ishlab chiqilayotgan guruhlarning tizim qismi ko‘rinishida, yirik loyihalarni bajarish imkoniyati;
- ishlash imkoniyatiga ega tizimni yaratishning minimal vaqt;
- loyiha konfiguratsiyasini boshqarish, loyiha versiyasini joriy etish va har biri versiyasi bo‘yicha loyiha hujjalarni avtomatik tarzda chiqarish imkoniyati;
- amalga oshirish vositalardan (MBBT, operatsion tizimlar, dasturlash tillari va tizimi) bajariladigan loyiha qarorlariga mustaqillik;
- jarayonlarni avtomatlashtirishni ta’minlaydigan, hayotiy zanjirning barcha bosqichlarida bajariladigan kelishilgan CASE – vositalar kompleksini ta’minlash;

Ushbu talablarga **RAD (RapidApplicationDevelopment)** – ilovalarni tez ishlab chiqish texnologiyalari javob beradi. Ushbu texnologiya ishlab chiqilayotgan dasturiy ta’minotning birinchi versiyasini maksimal tez olish uchun mo‘ljallangan.

U quyidagi shartlar bajarilishini ko‘zda tutadi:

- ishlab chiquvchilarning katta bo‘lmagan guruhlari bilan (3-7 kishi) ishlab chiqishni joriy qilish, ushbu guruhlarning har biri loyihaning ayrim tizim qismlarini loyihalashtiradi va amalga oshiradi, loyihaning boshqariluvchanligini yaxshilash imkoniga ega bo‘ladi.
- iteratsion yondoshuvdan foydalanish ishlash qobiliyatga ega prototipni olish vaqtini kamaytirishga ega bo‘ladi;
- uch oydan ko‘p bo‘lmagan muddatga mo‘ljallangan ishlab chiqilgan aniq tsikl grafigining mavjudligi ish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi;

- Bunda ishlab chiqish jarayoni quyidagi bosqichlarga bo‘linadi:
- Talablarni tahlil qilish bosqichida loyiha masshtabini cheklaydigan eng ustivor talablar shakllantiriladi.
- Loyihalashtirish bosqichida CASE – vositadan foydalangan hamda, tizim jarayonini batafsil bayon qilinadi, ma’lumotlardan foydalanishni cheklash talablarini belgilaydi va zarur hujjatlar tarkibini belgilaydi. Bunda eng murakkab jarayonlar uchun qisman prototip yaratiladi.

Ekran shakli va dialog ishlab chiqiladi. Jarayon tahlilining natijasiga ko‘ra, funktional nuqtalar sonini belgilaydi va ishlab chiqishda qatnashadigan tizim qismi va mos ravishda komandalarning soni to‘g‘risidagi qarorni qabul qiladi.

RAD texnologiyalardagi **funktional nuqta** deganda, ishlab chiqilayotgan tizimning quyidagi funktional elementlaridan istalgani tushuniladi:

- ilovaning kirish elementi (kirish hujjati yoki ekranli shakl);
- ilovaning chiqish elementi (hisobot, hujjat yoki ekranli shakl);
- so‘rov («savob/javob»);
- mantiqiy fayl (ilova ichida foydalaniladigan ma’lumotlar yozuvining jami);
- ilova interfeysi (boshqa ilovalarga uzatiladigan yoki boshqa ilovalardan olinadigan ma’lumotlar yozuvining jami).

Kodlari sezilarli darajada takrorlanadigan tizim uchun ekspert baholanishidan kelib chiqib, hisoblab chiqilgan normalar quyidagicha aniqlanadi:

- **1 mingdan kam** funktional nuqtalar – 1 kishi;
- **1 dan 4 minggacha** funktional nuqtalar – ishlab chiquvchilarning bir komandas;
- **4 mingdan ko‘p** funktional nuqtalar - har bir 4 ming nuqtaga bitta komanda.
- **Amalga oshirish bosqichida** real tizimning iterativ tuzilishi bajariladi, bunda tuzilayotgan tizimga qo‘yiladigan talablar bajarilishini nazorat qilish uchun foydalanuvchilar jalb qilinadi. Qismlar tizimga asta-sekin integratsiya qilinadi, bunda har bir qism ulanganda testlash jarayoni bajariladi. Ishlab chiqishning yakuniy bosqichida tizimda ishlab chiqiladigan va ulanadigan tegishli ma’lumotlar bazasini yaratish zarurligi aniqlanadi. Apparat vositalariga qo‘yiladigan talablarni shakllantiradi, unumdorlikni oshirish usullarini belgilaydi va loyiha bo‘yicha hujjatlarni tayyorlash ishlarini tugatadi.

**Joriy etish bosqichida** foydalanuvchilar o‘qitiladi va yangi tizimga asta – sekin o‘tish amalga oshiriladi, bunda yangi tizim to‘liq tadbiq qilingunga qadar eski versiyada ishslash davom etadi.

RAD texnologiya aniq buyurtmachi uchun ishlab chiqilayotgan katta bo‘lмаган loyihalar uchun o‘zining afzalligini namoyon etadi.

Ushbu texnologiyani **insonlar xavfsizligi** bog‘liq bo‘lgan ilovalarni yaratishda qo‘llab bo‘lmaydi, masalan, samolyotlarni yoki atom elektrostantsiyalarni boshqarishda, chunki RAD texnologiya dastlabki bir nechta versiyalari to‘liq ish qobiliyatiga ega bo‘lmaydi, ushbu holat uchun bu istisno qilinadi.

## Test savollari

### 1. Dasturiy ta'minotning qiyinligi qanday aniqlanadi?

- a) Tushinish uchun kay darajada bilimlarga ega bush kerakligi.
- b) Funktsiyalarni bajarish uchun kancha matematik uslublardan foydalanish lozimligi.
- c) Algoritmda ko'rsatilgan turli xarakatlar soni
- d) \* Turli bloklarni bir biriga kiritilgan soni bilan

### 2. Dasturiy vositani mustaxkamligi ta'milanishi qanday dasturlash asosida amalga oshiriladi?

- a) \*Ximoyalangan dasturlash
- b) Modulli dasturlash
- c) Tizimli dasturlash
- d) Ob'ektga-yo'naltirilgan dasturlash


## 20-MAVZU: OPERATSION SISTEMA VA UNING TURLARI. WINDOWS-ZAMONAVIY AXBOROT TEKNOLOGIYALARINING OPERATSION SISTEMASI (2 SOAT AMALIY)

### Reja

1. Operatsion sistema va uning turlari
2. Windows operatsion sistemaning ishchi muhiti

**Operatsion tizim** - bu maxsus bir dastur. Bu dastur asosiy vazifasi - kompyuter ishini boshkarish, kompyuter va foydalanuvchi urtasida mulokotni urnatish, tashki kurilmalar ishlash xolatlarini sozlash va ular bilan mulokotni urnatish, xar xil dasturlarni ishga tushirish va ular ishlash xolatlarini ta'minlash. Operatsion tizimlardan eng taniklilari bu **Microsoft** firmasining MS-DOS va Windows dasturlari, **Apple** firmasining Macintosh dasturi, Unix va Linux dasturlari.

Dunyoning 70% kompyuterlari **Microsoft** korporatsiyasi tomonidan yaratilgan operatsion tizimlar bilan jixozlangan. Bulardan 1981 yilda yaratilgan - MS-DOS dasturi, 1991 yilda yaratilgan - Windows 3,1 dasturi, 1995 yilda yaratilgan - Windows 95 dasturi, 1998 yilda yaratilgan - Windows 98 dasturi, 2000 yilda yaratilgan - Windows 2000 dasturi, 2001 yilda yaratilgan - Windows Millennium Edition va Windows XP dasturlari. Windows dasturning tanikli bulishining asosiy sababi bu - ish jarayoni soddaligi, kup vazifali rejim, bir xil ishlash interfeysi va boshka kulayliklar. Boshka operatsion tizimlarga uxshab Windows dasturi xam kompyuter xotirasiga kompyuter yokilish vaktda avtomatik ravishda yuklanadi.



Windows yuklanganlan keyin ekranning asosiy kurinish xavola kilinadi. Ekranning asosiy kismlari:

**1 - ISh STOL** - ekranning bush soxasi, uning ichida xar xil dasturlar uzining oynasida bajariladi

**2 - PAPKA va YoRLIKLAR** - xar xil dasturlar va fayllar belgilari, ular yordamida shu dasturlar ishga tushiriladi yoki shu fayllar ochiladi


**3 - DASTUR OYNALARI** - dastur bajariladigan oyna

**4 - PUSK MYeNYuSI** - (WINDOWS ning asosiy buyruklari joylashgan menyusi, ular yordamida Windows ustidan xar xil amallarni bajarishiimz mumkin

**5 - VAZIFALAR SATRI** - aktiv dasturar va fayllar nomlarni kursatuvchi tugmalar joylashadi va ulardan yordaimda bittasidan boshkasiga tezkor utish taminlanadi

**6 - KURSATKIChLAR SOXASI** - vakt va kun xakida ma'lumotlar, klaviatura til standarti, tovush balandligi, printer, ekran va boshka kurilmalar xamda xar xil dastur belgilari joylashadi, ular yordamida shu kurilmalar xususiyatlarini yoki shu dasturlar ishslash xolatlarini uzgartirishimiz mumkin

Windows dasturida xamma dastur, papka va fayllar alovida uzining oynasida bajariladi. Oyna - bu ekranning chegaralgan turburchak soxa.



Oynaning asosiy qismlari:

**Nom satri** - oynaning eng yukoridagi kismi. Bu satrda dastur belgisi, fayl nomi va dastur nomi, oynaning uchta asosiy tugmalari joylashgan buladi. Shu satrga sichkoncha bilan bosib turib, xarakatlantirsak, u xolda oynani ekranda joyini uzgartirish mumkin.

**Menyu satri** - oynaning bu satri asosan nom satri tagida joylashadi va shu satr yordamida dasturning xamma buyrukleri bilan ishlashimiz mumkin, chunki bu satrda xamma buyruklar saralanib guruxlarga bulingan.,

**Yordamchi qurollar (ASBOBLAR) TUGMALARI SATRI** - oynaning uchinchi satri bulib bu satrda yordamchi kurollar (asboblar) tugmalari joylashgan, ular yordamida dasturning xar xil asosiy va kup ishlatiladigan buyruklarni tezkor bajarishimiz mumkin.

**Ish soxasi** - oynaning asosiy kismi bulib uning ichida dastur bajariladi va ma'lumotlar kursatiladi.

**Ma'lumotlar satri** - oynaning eng pastki satri. Bu satrda xar xil kushimcha ma'lumotlar kursatiladi

**Oyna Chyegaralari** - oynaning turt tomonida joylashgan kalinchizikli soxalar. Ularni sichkoncha yordamida bosib turib siljitsak natijada oynani xajmini uzgaradi (chuziladi, kattalashadi yoki kichkinalashadi).

**Ko'rib chiqish chizg'ichlari** - oynaning ung va pastki kismlarda joylashgan soxalar. Ular yordamida oyna ichidagi ma'lumotlarni tulik kurib chikish mumkin., buning uchun shu soxalardagi ustki yoki pastki, chap yoki ung tomondagи strelkalarni bosish kerak yoki shu soxalarda joylashgan turtburchak kursatkichni kuzgaltirish kerak.

Oynaning nom satrida joylashgan asosiy uchta tugmasi yordamida biz shu oynanining umumiylarini kurinishini uzgartirishimiz mumkin. Oyna 3 xil kurinishda bulishi mumkin: kattalashtirilgan, normallashtirilgan va kichkinalashtirilgan. Tugmalar esa 4 xil kurinishda bulishi mumkin.



1 - *Kichiklashtirish (Svernut)* - Oynaga mos tugma vazifalar satrida koldirib, ekranidan olib tashlash. Shu tugmaga bosganimizda oyna yana uzining oldingi xolatga utadi.

2 a - *Kattalashtirish (Razvernut)* - Oynani butun ekran xajmdagi xolatga utkazish.

2 b - *Normallashtirish (Normalizovat)* - Oynani urtacha xajmdagi xolatga utkazish

3 - *Berkitish (Zakryit)* - Oynani berkitish, vazifalar satri va ekrandan olib tashlash.

Windows da matn kiritishdan tashkari kolgan amallarni barchasini sichkoncha yordamida bajarishimiz mumkin. Sichoncha yordamida bajariladigan xarakatlar:

Bittali bosish yoki tanlash - sichkonchaning chap tugmasini bir marta bosib kuyvorish

Ikkitali bosish yoki ochish - sichkonchani chap tugmasini ikki marta tez ravishda bosib kuyvorish.

Kontekst (yordamchi) menyusini chikarish - sichkonchani ung tugmasini bir marta bosib kuyvorish.

Kuchirib olish yoki siljitish - sichkonchani chap tugmasini bosib kuyvormasdan joyidan kuzgaltirish.

Yordamchi kurollar tugmalaridan tashkari Windows ning sichkoncha bilan ishslash uchun mujallangan uzinig oyna mulokot elementlari xam mavjud.


### Oynalarning mulokot elementlari:



- Xamma uzgartirilashni saklab oynani berkitish tugmasi.
- Xamma uzgartirishlarni bekor kilib oynani berkitish tugmalari.
- Xamma uzgarishlarni saklab oynani berkitmaslik tugmasi.
- Oynani berkitish tugmasi
- Berk ro'yxat. Ung tomondagi strelkachani sichkoncha yordamida bosganimizda shu ruyxat soxasi ochiladi. Agar ruyxat ochilgan soxaga sigmasa, u xolda uni tuliq ko'rib chiqish uchun o'ng tomondagi kurib chikish kursatkichlardan foydalanamiz.




- Ochik ruyxat. Agar ruyxat soxaga sigmagan bulsa, u xolda uni tulik kurib chikish uchun ung tomondagi kurib chikish kursatkichlardan foydalanamiz.



- Bayrokchalar. Yumalok bayrokchalar yordamida bir vakt uzida fakat bittasini tanlashimiz mumkin bulsa, turburchak bayrokchalar yordamida esa bir vakt ichida bir nechtasini xam tanlashimiz mumkin.



- Kiritish soxasi. Bu soxaga ma'lumotlarni kiritish uchun sichkonchaning chap tugmasi bilan shu soxaga bir marta bosamiz.



- Schetchik. Bu soxadagi ma'lumotlarni uzgartirish uchun schetchik chap tomondagi yukoridagi yoki pasdag'i strelkachalarni sichkonchaning chap tugmasi bilan bosamiz.



- Begunok. Bu element yordamida biz xil kurilmalar xususiyatlarini uzgartirishimiz mumkin. Buning uchun sichkonchani chap tugmasi yordamida urtagagi kursatkichni bosib siljitalmiz.

### Test savollari

- 1. Tizim foydalanuvchilarini ruyxatga olish xukuki kimlarga beriladi.**
  - \*Tizim administratoriga
  - Barcha foydalanuvchilarga
  - Oddiy foydalanuvchiga
  - Malakali foydalanuvchiga

**2. Disk va papakalarnga murojaat etishni urnatish xukuki kaysi gurux foydalanuvchilari berilmaydi.**

- a) Tizim administratoriga
- b) \* Oddiy foydalanuvchiga
- c) Barcha foydalanuvchilarga
- d) Malakali foydalanuvchiga

## **21-MAVZU: ARXIVLASHTIRISH DASTURLARI (2 SOAT AMALIY).**

### **Reja:**

- 1. Arxivlash nima uchun kerak?
- 2. Arxivator dasturlari va ularning vazifalari.
- 3. Arxivator dasturlarining turlari.

Kompyuterlardan foydalanish jarayonida turli sabablarga ko‘ra magnit disklardagi ma’lumotlarning o‘chishi yoki zararlanishi mumkin. Bu magnit diskning ishdan chiqishi, fayllarning noto‘g‘ri tahriri yoki faylga ehtiyoitsizlik oqibatida uning o‘chirilishi, yoki kompyutering virusi zarari natijasida yuz beradi.

Yuqoridagi muammolarning yechimini topish uchun arxivator dasturlar yaratildi.

Arxivator dasturlar quyidagi imkoniyatlarga ega va shu maqsadlarda qo‘llaniladi:

- kam joy egallab, diskda ko‘plab bo‘sh joy resurslarini saqlab qolish;
- fayl arxivini kam joy olgan holda saqlash;
- kerak vaqtida arxivlangan faylni butunligicha qayta tiklash;
- arxivlangan faylni yangilash;
- katta hajmdagi axborotning hajmini kichraytirgan holda bir kompterdan boshqasiga ko‘chirib o‘tish imkoniyati va boshqalar.

Yuqoridagi arxivator dasturlaring vazifalarni tushunib olishimiz uchun quyidagi misollarni ko‘rib chiqishimiz kerak bo‘ladi.

Siz qo‘lda 1000 varaqli kitobni kompyuterga kiritdingiz va xech kanday ximoya choralarini ko‘rmasdan kompyuter xotirasiga saqlab qo‘ydingiz. Sizdan keyin kirgan foydalanuvchi tushunmagan holda yoki ataylab Siz yozgan matnni o‘chirib tashladi. Endi Siz boshqatdan kiritshingiz kerakmi? Siz bu fayldan boshqa nusxa olib qolmaganligingizga achinasiz, lekin siz bilasizki, olgan nusxangiz diskdan yana shuncha joyni egallaydi. Bu esa diskdagi bo‘sh joy resurslarining kamayishiga olib keladi va kompyuterimizning ishlash tezligini pasaytiradi. Yoki ushbu katta hajmdagi axborotni boshqa kompyuterga ko‘chirib o‘tmochisiz, lekin, disketangizning cheklangan hajmdagi axborotni o‘zida sig‘dira olishi yana sizga to‘sinqinlik qiladi, chunki disketa belgilangan hajmdan (1,44 Mbayt) boshqa axborotni olmaydi.

Yuqorida duch kelayotgan muammolarni hal etishda arxivator dasturlar Sizga yordam beradi. Siz maxsus arxivator dasturlari yordamida faylingizning arxiv nusxasini olib qo‘yasiz va bu olgan arxiv faylingiz anchagini kam joyni egallaydi

(arxiv fayl hosil qilingan holda faylni o'chirib yuborishingiz mumkin). Fayllarning arxivli nusxasini yaratish uchun maxsus arxivlovchi programmalaridan foydalaniladi. Bu programmalar arxiv disketalarda joyni tejaydi va arxiv fayllardan foydalanishda qulayliklar yaratadi.

Boshqa kompyuterga ko'chirib o'tishda ham arxivator dasturlar qo'l keladi. Bunda axborotningizni ham hajmi kamayadi ham boblab (bir necha disketaga bo'lib) ko'chirish o'tish imkoniyati paydo bo'ladi. Demak, muammolar hal.

Qoidaga qo'ra, **arxivlovchi programmalar fayli nusxalarini diskda siqib joylashtiradi, fayllarni arxivdan olish va arxiv mundarijasini ko'rish imkoniyatini beradi.**

Arxivli fayl bir necha fayllarning siqilgan holda bir faylga joylashgan majmuidir. Arxiv fayl mundarijaga ega. Unda fayllar nomi, oxirgi o'zgartirish vaqtiga va sanasi, fayllning disqdagi va arxivdagagi hajmi va tekshirish qodi haqidagi ma'lumot beriladi.

Xozirda ko'plab arxivator dasturlari mavjud. Eng ko'p tarqalgan arxivlovchilarga **ARJ, PKARK, PKPAK, PAK, PKZIP, LHARC, ICE, PKZIPvaPKUNZIP, RAR, WINZIP, WINRAR** va boshqalarni kiritishimiz mumkin. Bir arxivator ikkinchi arxivatordan ishlash qulayliklari va ma'lum bir imkoniyatlari bilan farq qilishi va ba'zi bir axborot turlarini arxivlashda yaxshiroq natija berishi bilan farq qilishi mumkin.

Biz arxivatorlarni ishlash muxitiga ko'ra quyidagi turlarga bo'lishimiz mumkin:

1. MSDOS muxitida ishlovchi arxivatorlar (arj, rar, pkzip va boshqalar);
2. WINDOWS muxitida ishlovchi arxivatorlar (winzip, winrar va boshk.).

Birinchi guruxga kiruvchi arxivatorlar MSDOS muxitida ishlab, ularni topish, ishga tushirish va dastur imkoniyatlaridan foydalanish biri-boshqasiga o'xhash va ikkinchi guruxdan tubdan fark qiladi. Ko'p buyruklar ko'lda yoziladi yoki funksional tugmachalardan foydalaniladi.

Ikkinci guruxga kiruvchi arxivatorlar WINDOWS muxitida ishlab, WINDOWS muxitining ko'plab umumiyliliklariga asoslangan.

Arxivator dasturlardan eng ko'p tarqalgan ARJ, RAR, Winzip va Winrar dasturlarini o'rganib chiqamiz.

### Test savollari

**1. Arxivlanadigan fayllarni himoyalash maqsadida ARJ da quyidagicha belgi bilan parol o'rnatiladi:**

- a) -e
- b) -m
- c) \*-g
- d) -f

**2. Arxivlanadigan fayllarni himoyalash maqsadida PKZIP da quyidagicha belgi bilan parol o'rnatiladi:**

- a) \*-s

- b) -v
- c) -a
- d) -l

## **22-MAVZU: ANTIVIRUS DASTURIY VOSITALAR (2 SOAT AMALIY).**

### **Reja**

1. Kompyuter viruslaridan axborotlarga ruxsatsiz kirish va ulardan foydalanishni tashkil etish;
2. Antivirus dasturlari;
3. Viruslarga qarshi chora-tadbirlar
4. Eset Nod32 Antivirus dasturidan foydalanish

Hozirgi vaqtda viruslarni yo‘qotish uchun ko‘pgina usullar ishlab chiqilgan va bu usullar bilan ishlaydigan dasturlarni **antiviruslar** deb atashadi. Antiviruslarni, kullanish usuliga ko‘ra, quyidagilarga ajratishimiz mumkin: **detektorlar, faglar, vaktsinalar, privivkalar, revizorlar, monitorlar**.

**Detektorlar** — virusning signaturasi (virusga taalluqli baytlar ketma-ketligi) bo‘yicha tezkor xotira va fayllarni ko‘rish natijasida ma’lum viruslarni topadi va xabar beradi. Yangi viruslarni aniqlab olmasligi detektorlarning kamchiligi xisoblanadi.

**Faglar** — detektorlarga xos bo‘lgan ishni bajargan holda zararlangan fayldan viruslarni chiqarib tashlaydi va faylni oldingi xolatiga kaytaradi.

**Vaktsinalar** — yuqoridagilardan farqli ravishda himoyalanayotgan dasturga urnatiladi. Natijada dastur zararlangan deb hisoblanib, virus tomonidan o‘zgartirilmaydi. Faqatgina ma’lum viruslarga nisbatan vaktsina qilinishi uning kamchiligi hisoblanadi. Shu bois xam, ushbu antivirus dasturlari keng tarqalmagan.

**Privivka** — fayllarda xuddi virus zararlagandek iz qoldiradi. Buning natijasida viruslar «privivka qilingan» faylga yopishmaydi.

**Filtrlar** — quriqlovchi dasturlar kurinishida bo‘lib, rezident holatda ishlab turadi va viruslarga xos jarayonlar bajarilganda, bu haqda foydalanuvchiga xabar beradi.

**Revizorlar** — eng ishonchli himoyalovchi vosita bo‘lib, diskning birinchi holatini xotirasida saqlab, undagi keyingi o‘zgarishlarni doimiy ravishda nazorat qilib boradi.

Detektor dasturlar kompyuter xotirasidan, fayllardan viruslarni qidiradi va aniqlangan viruslar xaqida xabar beradi.

Doktor dasturlari nafaqat virus bilan kasallangan fayllarni topadi, balki ularni davolab, dastlabki holatiga qaytaradi. Bunday dasturlarga Aidstest, Doctor Web dasturlarini misol kilib keltirish mumkin. Yangi viruslarning to‘xtovsiz paydo bo‘lib turishini hisobga olib, doktor dasturlarini ham yangi versiyalari bilan almashtirib turish lozim.

Filtr dasturlar kompyuter ishlash jarayonida viruslarga xos bo‘lgan shubhali harakatlarni topish uchun ishlatiladi.

Bu xarakatlar kuyidagicha bo‘lishi mumkin:

- fayllar atributlarining o‘zgarishi;
- disklarga doimiy manzillarda ma’lumotlarni yozish;
- diskning ishga yuklovchi sektorlariga ma’lumotlarni yozib yuborish.

Tekshiruvchi (revizor) dasturlari virusdan ximoyalanishning eng ishonchli vositasi bo‘lib, kompyuter zararlanmagan holatidagi dasturlar, kataloglar va diskning tizim maydoni holatini xotirada saklab, doimiy ravishda yoki foydalanuvchi ixtiyori bilan kompyuterning joriy va boshlangach holatlarini bir-biri bilan solishtiradi. Bunga ADINF dasturini misol qilib keltirish mumkin.

### ***Viruslarga qarshi chora-tadbirlar***

Kompyuterni viruslar bilan zararlanishidan saklash va axborotlarni ishonchli saqlash uchun quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:

- kompyuterni zamonaviy antivirus dasturlar bilan ta’minalash;
- disketalarini ishlatalishdan oldin har doim virusga qarshi tekshirish;
- qimmatli axborotlarning nusxasini har doim arxiv fayl ko‘rinishida saqlash.

Kompyuter viruslariga karshi kurashning quyidagi turlari mavjud:


- viruslar kompyuterga kirib buzgan fayllarni o‘z holiga qaytaruvchi dasturlarning mavjudligi;
- kompyuterga parol bilan kirish, disk yurituvchilarining yopiq turishi;
- disklarni yozishdan ximoyalash;
- litsenzion dasturiy ta’minalardan foydalanish va o‘g‘irlangan dasturlarni qo‘llamaslik;
- kompyuterga kiritayotgan dasturlarning viruslarning mavjudligini tekshirish;
- antivirus dasturlaridan keng foydalanish;
- davriy ravishda kompyuterlarni antivirus dasturlari yordamida viruslarga qarshi tekshirish.

Antivirus dasturlaridan DrWeb, Adinf, AVP, VootCHK va Norton Antivirus, Kaspersky Security kabilar keng foylalaniladi.


**Eset Nod 32 Antivirus** dasturini o‘rnatish uchun avvalambor kompyuterdagи oldin o‘rnatilgan antivirus dasturini o‘chirib tashlash kerak, so‘ngra **ESET NOD32 Antivirus 4.2.64.12 Final (x32).exe** faylini tanlaymiz. Ekranda quyidagi oyna hosil bo‘ladi




Agar Eset Nod 32 Antivirus ni o'rnatmoqchi bo'lsak, Dalee tugmachasi bosiladi.



Litsenziyani qabul qiluvchi oyna hosil bo'ladi. U yerdan **Ya prinimayu usloviya litsenzinnogo soglasheniya** bandini tanlaymizda Dalee tugmachini bosamiz.



Eset Nod 32 Antivirus antivirusini qaysi papkaga o'rnatishni so'raydi u yerdan Dalee tugmasini bosgandan so'ng, keyingi oynadan **Ustanovit** tugmasini bosamiz.



Barcha ishlarni bajarib bo‘lgandan so‘ng kompyuterni o‘chirib yoqishni so‘raydi va u yerdan **Da** tugmasini bosamiz.

**Eset Nod 32 Antivirus** dasturini ishga tushirish uchun quyidagi amalni bajaramiz.




Ekranda antivirus dasturi ishga tushadi.



**Sostoyanie zashity - Eset Nod 32 Antivirus** yangi versiya o‘matilganligi va uning bazasiga qilingan hujumlar soni va bazaning soni va vaqtiko‘rsatilgan bo‘ladi.

**Skanirovaniye PK** – bo‘limida kompyuter, fleshka va kompakt diskлarni tekshiriuvchi oyna hisoblanadi.

**Skanirovaniye PK** – tanlaymiz.




Keyingi oynada **Skanirovanie Smart** va **Выборочное сканирование** bandlari ko'rsatilgan bo'ladi. **Skanirovanie Smart** kompyuterni to'liq tekshiradi, **Выборочное сканирование** da esa tanlangan disklarni tekshiradi.

**Obnovlenie**- internet yoki foydalanuvchi ko'rsatgan manzildan antivirusning yangi bazasini qidirib yangilaydi.


**Nastroyka - Eset Nod 32 Antivirus** dasturini sozlash qismi hisoblanadi.

**Spravka i pldderjka - Eset Nod 32 Antivirus** dasturi haqida qo'shimcha ma'lumot olish va dasturdan qanday foydalanish yo'riqnomasi ko'rsatilgan bo'ladi.


**Eset Nod 32 Antivirus** dasturining kompyuter xotirasidan bazasini yangilash uchun avval yangi bazasini kerakli joyga va diskka tashlash kerak bo'ladi, so'ngra fayllar joylashgan manzilni **Eset Nod 32 Antivirus** dasturiga joylaymiz. Buning uchun antivirusini ishga tushiramiz, so'ngra G'5 tugmasini bosamiz.




O'rtafigi oynaning chap tomonidan **Obnovlenie** bandini tanlaymiz.



Server obnovleniy yonidagi **Izmenit** ni tanlab, manzilni shu joyga tashlaymiz va **Dobavit** tugmasini bosiladi so'ngra **OK** ni tanlanadi.



Yangi bazani tashlab bo‘lgandan so‘ng, **Nastroyka** oynasini berkitamiz va **Obnovlenie** bo‘limiga o‘tamiz.



U yerdan **Obnovit bazu dannix signatur virusov** ni bosib qo‘yamiz. Eset Nod 32 Antivirus dasturidan chiqish uchun X tugmasini bosamiz.

### Test savollari

- 1. Kompyuter tarmoqlari xavfsizligining eng keng tarqalgan usulini tanlang.**
  - a) Golografiya
  - b) Kartografiya
  - c) \*Kriptografiya
  - d) Monografiya
  
- 2. Kompyuter tarmoqlari xavfsizligining nechta asosiy printsipli bor?**
  - a) 5(ishonchlilik, butunlik, foydalanuvchanlik, yaroqlilik, sifatlilik)
  - b) 4(ishonchlilik, butunlik, foydalanuvchanlik, yaroqlilik)
  - c) 2(KTda axborotning ishonchliligi, tashkil etuvchilarining butunligi)
  - d) \*3 (KTda axborotning ishonchliligi, tashkil etuvchilarining butunligi va foydalanuvchanligi)

## **23-MAVZU: DISKLARGA XIZMAT KIRSATUVCHI DASTURLAR (2 SOAT AMALIY).**

**Reja:**

1. Disklarga xizmat ko'rsatuvchi dasturlar.
2. Arxivga olish dasturlari.
3. Amaliy qism.
4. Xulosa
5. Foydalanilgan adabiyotlar.

Xozirgi paytda kompyuterlarda axborotlarni uzatuvchi va saqlovchi bo'lib asosan magnit disklar xizmat qiladi. Kompyuter ishlashi jarayonida tezkor xotira qurilmasi va magnit disklar o'rtasida uzlusiz axborot almashish yuz beradi. Disklarning qanchalik sifatlari tayyorlanishiga qaramasdan ko'pincha axborotlarning disklardan o'qilmaslik xolatlari, fayllar sistemasida ishlash jarayonida xatoliklar ro'y berishi, diskda bo'sh joylarning kamayishi yoki disklarning to'lib qolishi kuzatiladi. Ko'pincha yo'l qo'yilgan xatoliklar tufayli ayrim zaruriy fayllar o'chib ketadi.

Kompyuterda ishlash jarayonida, xatoliklar yoki tasodifan qimmatli bo'lgan ma'lumotlarni o'chirib yuborish xolatlari uchraydi. Ularni quyidagi dasturlar orqali qayta tiklash mumkin.

Undelete - MS DOC tarkibidagi dastur,

Unerase – Norton utilitlari tarkibiga kiruvchi servis dastur. Ishdan chiqqan fayl va disklarni qayta tiklash.

Magnit disklarni ishlatish jarayonida fizik va mantiqiy nuqsonlar tufayli paydo bo'lgan xatoliklarga duch kelamiz. Bu xatoliklar natijasida fayllar disk va disketlarda yaxshi o'qilmasligi va ko'chirilmasligi mumkin. Fizik nuqsonlar asosan elektromagnit maydonlari ta'sirida yoki magnit disk qoplamlari eskirishi hamda mexanik buzilishlar natijasida yuzaga keladi. Fizik nuqsonlarning ta'sirida diskning ayrim sektor va klasterlari yaroqsiz xolga kelishi mumkin. Agarda qaysidir fayllar yaroksiz sektorlarda joylashgan bo'lsa, ularni qayta tiklash amalda mumkin emas. Diskning mantiqiy nuqsonlari diskning sistemali maydonidagi buzilishlarga bog'liq bo'lib, yuklovchi sektorda joylashgan FAT fayllar o'chib ketgan bo'lishi mumkin. Bu ishdan chiqishlar elektr manbaidan tartibga zid ravishda uzishdan, xato ishlovchi dasturlarning osilib qolishidan (zavisanie), kompyuter virus dasturlari ta'siridan bo'lishi mumkin. Ishdan chiqqan fayllarni qayta tiklash uchun maxsus dasturlar CNKDSK, SCANDISK, NDD ishlatiladi.

NDD - dasturi ishdan chiqqan disklarni avtomatik ravishda tekshirib, qayta tiklaydi. Diskni tekshirish - diskning xolatini har tomonlama taxlil qilib, undagi mantiqiy nuqsonlarni topishdir. NDD dasturi NDD.exe fayli orqali ishga tushiriladi.

Kompyuterda amaliy dasturlar bilan ishlash jarayonida, faqatgina bu dasturlarni boshqarishni bilish bilan cheklanib qolmaslik lozim. Kompyuterdagи xaqiqiy xolat va undagi amaliy ishlar foydalanuvchidan yanada chuqurroq bilim talab etadi, ya'ni axborotlarning bir butunligini saqlay bilish, ularni har xil

kutilmagan harakatlardan ximoya qilish, kompyuterdag'i ro'y beradigan buzilishlardan saqlash, virus tarqatuvchi dasturlar ta'siridan va foydalanuvchi o'zining yo'l qo'yadigan xatolaridan saqlay bilishi lozim.

Arxivga olish dasturlari. Eng keng tarqalgan servis dasturlardan biri bu fayllarni, fayllar guruxini siqib yozish, qadoqlab yozish yoki arxivga olish uchun mo'ljallangan dasturlardir. Ma'lumotlarni siqish-bu faylda saqlanayotgan axborotlarning qayta tartiblanish jarayoni bo'lib, unda axborotning xajmi kichrayib, saqlanishi uchun diskdan kam joy talab etadi. Arxiv fayl sifatida bir yoki bir necha fayllarni siqilgan ko'rinishda yozish mumkin.

Arxiv fayl - bu maxsus tarzda tashkil etilgan fayl bo'lib, o'zida bir yoki bir necha fayllarning siqilgan variantini hamda ularning qaysi vaqt, sanada yozilganligi va xajmi xaqida ma'lumotni saqlaydi.

Axborotlarni siqib yozishdan maqsad ularning diskda ixcham joylashishini axborotlarning kompyuter tarmoqlari orqali uzatilish vaqtini va bahosini kamaytirishni ta'minlashdir. Bundan tashqari fayllar guruxini bir faylga qadoqlash, arxivlash axborotlarni bir kompyuterdan ikkinchisiga uzatishni, saqlashni engillashtiradi va sarflanadigan vaqtni qisqartiradi. Shu bilan birgalikda ma'lumotlarni har xil ruxsatsiz foydalanishlardan va turli viruslardan ximoya kiladi.

Fayllarning siqilish darajasi K koeffisient bilan harakterlanadi va  $V_0$  siqilgan fayl xajmining  $V_1$  siqilmoqchi bo'lgan fayl xajmiga nisbatan foizdagi ifodasi orqali aniqlanadi.  $KqV_0 \cdot 100 - V_1 \%$

Siqilish darajasi siqish uchun ishlatilayotgan dasturga, chiqish metodiga va siqilayotgan fayl turiga bog'liqdir. Arxivga oluvchi yoki siqib yozuvchi dasturlar ishlatayotgan siqish metodlari bilan farqlanadi va o'z-o'zidan siqilish darajasiga ta'sir etadi.

Arxivga olish (upakovka - qadoqlash) - fayllarni siqilgan yoki normal xolatda arxiv faylga joylashdir.

Arxivdan chiqarish (raspakovka- qadoqni ochish) - bu arxivga olingan fayllarni boshlangich xolatiga qanday bo'lsa shunday arxivdan chiqarish jarayonidir. Arxivdan chiqarishda fayllar yo'l ko'rsatilgan bo'lsa diskga yoki tezkor xotiraga joylashadi.

Fayllarni arxivga oluvchi va undan chiqaruvchi dasturlarni arxivator dasturlar deb ataydi. Xajmi jixatidan katta bo'lgan arxiv fayllarni bir necha disklarga joylashtirish mumkin. Bunday arxivlar ko'p tomli arxivlar deb ataladi. Tom - bu ko'p tomli arxiv fayllarning tashkil etuvchi qismidir.

Arxivator dasturlarning asosiy turlari. Xozirgi kunda ish o'lchamlari va vazifalari bilan farqlanuvchi bir necha xil arxivator fayllar mavjud. Ular ichidan eng ko'p ishlataladigan dasturlar bilan tanishib o'tamiz. ARJ, PKPAK, LHA, ICE, HYPER, ZIP, PAK, EXPAD va Rossiyada yaratilgan AIN, RAR dasturlari.

Odatda fayllarni arxivga olish va undan chiqarish bitta dastur orqali amalga oshiriladi. Lekin ayrim xollarda arxivga olish bir dastur orqali, arxivdan chiqarish esa boshqa bir dastur orqali amalga oshiriladi. Masalan: PCZIP dasturi fayllarni arxivga olsa, PCUNZIP dasturi esa xuddi shu fayllarni arxivdan chiqaradi.

Shunday arxivator fayllar mavjudki, ular yaratgan arxiv fayllar o‘zlarini o‘zlar arxiv fayldan chiqaradi. Bunday fayllar o‘zini o‘zi arxivdan chiqaruvchi faylar deb ataladi. O‘zini o‘zi arxivdan chiqaruvchi fayllar MS DOC sistemasida .exe kengaytma fayl ko‘rinishida saqlanadi. Arxivator dasturlar ichidan eXPAND arxivator dasturi MS DOC va WINDOWS muxitlarida fayllarni arxivga olish va chiqarish uchun ishlatiladi.

Arxivator dasturlar ikki xil usul bilan boshqariladi.

1. MS DOC sistemasining komandalar kiritish qatori orqali boshqarish: ya’ni arxivator nomi va o‘lchamlari klaviatura orqali kiritiladi. Bular ARJ, ZIP, PAK, LHA arxivatorlardir. Masalan: eng ko‘p ishlatiladigan ARJ dasturi quyidagi komanda orqali ishga tushiriladi. ARJ «komanda» [«kl1», «kl2»] «arxiv nomi» «fayllar nomi»

2. Dasturning ishga tushirilishi bilan ekranada paydo bo‘luvchi muloqot oynalari, panellari orqali boshqarish. Bu xolatda asosan menyular va funksional klavishlar ishlatiladi. O‘z o‘zidan bu albatta foydalanuvchi uchun qulay va keng imkoniyatdir. WINRAR, RAR arxivatori shular jumlasidandir.

RAR - arxivatori ikki xil tartibda ishlaydi.


komandalar qatori orqali,muloqot oynasi orqali.

Dastur C:\> RAR komandasini orqali ishga tushadi. Natijada ekranada ikki ramkali oyna paydo bo‘ladi. O‘ng panel Xotira va O‘rnatish bo‘limidan iborat bo‘ladi. Chap panel esa joriy katalogdagi ichki katalog va fayllar ro‘yxatini tashkil etadi.

Amaliy qism.

Kompyuterda qattiq disk bilan ishlashning bir necha yo‘llari mavjud.


Bulardan biri “Upravlenie diskami”.



Bu holatda oynada qattiq disk haqida ma’lumotlar paydo bo‘ladi.


Том	Расположение	Тип	Файловая с...	Состояние	Емкость	Свобод...	Свободно %	Отказоустойчиво...	Накладны...
(C:)	Простой	Основной	NTFS	Исправен...	350 МБ	308 МБ	88 %	Нет	0%
(D:)	Простой	Основной	NTFS	Исправен...	51,03 ГБ	8,99 ГБ	18 %	Нет	0%
(E:)	Простой	Основной	NTFS	Исправен...	414,39 ГБ	21,33 ГБ	5 %	Нет	0%

Tomi, joylashishi, turi, fayl tizimi, tuzilishi, sig‘imi, bo‘sh joyi va boshqalar. Quyidagi bo‘limda bir qancha ishlarni bajarishimiz mumkin:




Yangilash, disklarni qaytadan tekshirish, Virtual qattiq disk yaratish, Virtual diskka kirish, so‘rov.


Virtual disk yaratishda joyi, sig‘imi, turi ko‘rsatiladi:



Yaratilgan qattiq diskka kirish:




Bundan tashqari diklarni tozalash kabi dasturlar mavjud.  
Bulardan biri Wise Disk Cleaner dasturidir:



Bu yerda “Tezkor tozalov”, “Chuqur tozalov”, “Tizimni tozalash” va “Defragmentatsiya” bo‘limlari bor.

Tezkor tozalovda faqtgina kerakli joylar tozalanadi.

Chuqur tozalovda qattiq diskning barcha qismlari tozalanadi:



Tizimni tozalashda keraksi fayllarda tozalanadi:



Defragmentatsiya



### Test savollari

**1. Diskdagi fayllarni o‘chirmsadan diskni qanday tizimli disk sifatida tayyorlash mukin?**

- a) Format buyrigi yordamida
- b) \*SYS buyrigi yordamida
- c) Fdisk buyrigi yordamida
- d) Format A: /S buyrigi yordamida

**2. Diskni defragmentatsiya qiluvchi dastur?**

- a) \* Speed Disk
- b) UnErase Wizard
- c) Norton Protection
- d) Norton Dick Doctor

## 24-MAVZU: AMALIY DASTURIY TA’MINOT VA UNING IMKONIYATLARI. UNGA KIRUVCHI DASTURLAR (2 SOAT AMALIY)

**Reja:**

1. Amaliy dasturlar
2. Amaliy dasturlarning imkoniyatlari
3. Amaliy dasturlariaga kiruvchi dasturlar

Kompyuterda foydalanuvchi, asbob-uskuna va dastur ta’minoti orasidagi bog’lanishni interfeys deb ataladi. Insonni dastur bilan va dasturni inson bilan o’zaro muloqoti - foydalanuvchi interfeysi, komp yuter turli texnik qismlari orasidagi aloqa - asbob-uskuna interfeysi, dasturlar orasidagi bog’lanishi - dastur

interfeysi, asbob-uskuna va dastur orasidagi bog'lanishi – asbob – uskuna - dastur interfeysi deyiladi.

Dastur ta'minotini 3 ta kategoriyaga ajratish mumkin:

1. *Sistemali dastur ta'minoti*.
2. *Amaliy dastur ta'minoti*.
3. *Dasturlash texnologiyasining uskunaviy vositalari*

Sistemali dastur ta'minoti (sistem software) – kompyuter va uning tarmoqlarining ishini ta'minlovchi dasturlar majmuasidir.

Amaliy dastur ta'qminoti (Application program package) – bu aniq bir fan soxasi bo'yicha ma'lum bir masalalar sinfini yechishga mo'ljallangan dasturlar majmuidir.

Dasturlash texnologiyasining uskunaviy vositalari yangi dasturlar ishlab chiqish jarayonida qo'llaniladigan maxsus dasturlar to'plami. Bu vositalar dasturining uskunaviy vositalari bo'lib xizmat qiladi, ya'ni ular dasturlarni ishlab chiqish, saqlash va joriy etishga mo'ljallangan.

Sistemali dastur ta'minoti

Sistemali dastur ta'minoti (SDT) quyidagilarni amalga oshiradi:


Komp yuter va komp yuter tarmog'i – asbob – uskuna qismi ishini tashkil qiladi va profilaktika ishlarini bajaradi.

Sistemali dastur ta'minoti – asosiy (ba'zaviy) va yordamchi (xizmat ko'rsatuvchi) dasturiy ta'minotlarga ajraladi. Asosiy DT komp yuter bilan birga yetkazib berilsa, xizmat ko'rsatuvchi DT alohida, qo'shimcha tarzda olinishi mumkin.

Asosiy DT (base software) – bu komp yuter ishini ta'minlovchi dasturlarning minimal to'pmidan iborat. Unga operasion tizim (OT) va tarmoq operasion tizimi kiradi.

Yordamchi (xizmat ko'rsatuvchi) DTga asosiy DT imkoniyatlarini kengaytiruvchi va foydalanuvchining ish muhitini (interfeysi) qulayroq tashkil etuvchi dasturlar kiradi. Bular tashxis qiluvchi, komp yuter ishchanligini oshiruvchi, antivirus, tarmoq ishini ta'minlovchi va boshqa dasturlar.

Natijada sistemali DT sxemasini quyidagicha tasvirlash mumkin.



Operasion tizim (OT) komp yuterni yoqimli bilan ishga tushadi, uning resurslari (tezkor xotira, diskdagi o'rinalar va xokazo)ni boshqaradi, foydalanuvchi bilan muloqotni tashkil etadi, bajarish uchun boshqa amaliy dasturlarni ishga tushiradi.

Drayverlar OT imkoniyatini kengaytiradi. Jumladan, komp yuterning kiritish – chiqarish qurilmalari (klaviatura, sichqoncha, printerlar) ni boshqarishda yordam beradi. Drayverlar yordamida kompyuterga yangi qurilmalarni ulash yoki mavjud qurilmalardan nostandart ravishda foydalanish mumkin.

Hozirgi davrda UNIX, MS DOS, WINDOWS 95, WINDOWS NT, WINDOWS 98 kabi OT lar mavjud.

Komp yuterga disk yurituvchilar ulanishi bilan OT ga bo'lgan zaruriyat paydo bo'ldi. Disk yurituvchi magnitafondan shunisi bilan farq qiladiki, unga erkin murojaat qilish mumkin.

Diskdagi dasturlarni faqat nomi orqali yuklashish imkonini beruvchi disk operasion tizimi (DOT) ishlab chiqildi.

DOT nafaq diskdagi fayllarni yuklash, balki xotiradagi fayllarni diskka yozish, 2 ta faylni bitta sektorga tushishini oldini olish, nokerak faylni o'chirish, nusxa olish ishlarini ham bajaradi.

OT lar rivojlanishida dastlab egiluvchi disklar, keyin qattiq disklar yaratildi.

MS DOS operasion tizimi foydalanuvchi bilan komp yuter asbob-uskunalari o'rtasida vositachi vazifasini bajaradi. WINDOWS 95, WINDOWS 2003 lar grafik interfeysli OT lar hisoblanadi.

Tarmoq OT tarmoqqa ulangan komp yuterlarni yakka hol va birgalikda ishlashini ta'minlovchi maxsus dasturlar majmuasi.

Utilitlar – bu, ma'lumotlarni qayta ishlashda qo'shimcha operasiyalarni bajarishga yoki komp yuterga xizmat ko'rsatishga (tashxis, asbob-uskunalarni testlash, diskdan foydalanishni optimallantirish) ga mo'ljalangan dasturlardir.

### **Amaliy dastur ta'minoti**

Komp yuter dastur ta'minoti ichida eng ko'p qo'llaniladigan ADT dir. Buning sababi – komp yuterlardan inson faoliyatining barcha sohalarida avtomatlashtirilgan tizimlar yaratilishi va qo'llanilishidir.

ADT quyidagi turlari mavjud:

- 1) Muammoga yo'naltirilgan ADT
  - buxgalteriya uchun DT
  - personalni boshqarish DT
  - jarayonlarni boshqarish DT
  - bank axborot tizimi
- 2) Umumiy maqsadli ADT – soha mutaxassisini bo'lgan foydalanuvchi axborot texnologiyasini qo'llaganda unga yordam beruvchi dasturlar
  - grafik muharirlar
  - elektron jadvallar
  - taqdimot vositalari – slaydlar tayyor dasturlar.
- 3) Ofis ADT idora faoliyatini tashkiliy boshqarishni ta'minlovchi dasturlar

- ish vaqtini rejalovchi, uchrashuv jadvallarini tuzuvchi, telefon va yozuvlarni olib boruvchi dasturlar
  - tarjimon dasturlar
  - tarmoqdagi uzoq masofada joylashgan abonent bilan foydalanuvchi orasidagi muloqotni tashkil etuvchi kommunikasion dasturlar.
- 4) Kichik nashriyot tizimlari nashriyot faoliyatini ta'minlaydi.
- 5) Mul timedia – tasvirli ma'lumotlar bilan ishlashga qodir bo'lgan vosita «media» - ma'lumot tashuvchi vosita lotincha so'z.
- 6) Sun iy intellekt tizimlari.
- Ijodiy jarayonlarni imitasiya qiluvchi tizimlar
  - Bilimlarga asoslangan intelektual tizimlar
  - EHM yangi arxitekturasini yaratish tizimlari
  - Intelektual robotlar.

### Test savollari

#### **1. Dasturlar necha turga bo'linadi?**

- a) 2
- b) \*3
- c) 4
- d) 5

#### **2. Qaysi dastur amaliy dastur tarkibiga kirmaydi?**

- a) \*Unix
- b) Word
- c) Excel
- d) Power Point

### **25-MAVZU: OFIS DASTURLARINING KEYINGI VERSIYALAR VA ULARNING OLDINGI VERSIYALARIDAN FARQLI IMKONIYATLARI (2 SOAT AMALIY).**

#### **Reja**


1. Microsoft Word 2007 dasturida ishslash
2. Microsoft Excel 2007 dasturida ishslash
3. Microsoft Power Point 2007 dasturida ishslash

#### **Microsoft Word 2007 dasturida ishslash**

Word muharriri belgisi Windows dasturlar boshqaruvchisining dastur guruhlardan birida joylashadi. Odatda, u asosiy guruhda joylashtiriladi. Word muharririni ishga tushirish uchun muharrir belgisida «sichqoncha» tugmasi bir marta bosiladi.

Agarda ekranda Microsoft Office paneli mavjud bo'lsa u xolda Word dasturini shu paneldagi  - tugmasi ustida «sichqoncha»ning chap tugmasini bir marta bosish orqali ishga tushiriladi.

Word muharriri ishga tushgandan keyin ekranda muharrir oynasi hosil bo'ladi. Oynaning ayrim elementlari Windows tizimida ishlaydigan barcha dasturlarda uchraydi, ayrimlari esa faqat Word muharririga tegishlidir.



Word muharriri oynasi birlamchi va ikkilamchi oynadan iborat. Birlamchi oyna orqali matn ustida bajariladigan barcha amallarni bajarish mumkin. Ikkilamchi oynada esa faqat matn yoziladi. Birlamchi oyna asosiy oyna hisoblanadi.

### Sarlavxa va menuy satri

Word oynasi yuqori qismida **sarlavxa satri** joylashadi:




Word ishga tushganda faylga «Dokument 1» nomi beriladi. Bir necha hujjat matn ishlaganda nomning raqami o'zgaradi, ya'ni masalan, «Dokument2» va xokazo. Yangi matnga «Dokument» nomi beriladi. Bu nom hujjatning nomi o'zgartirilgandan so'ng o'zgaradi.

Sarlavxa satridan so'ng **menuy satri** joylashadi:

Matnda kursorni vertikal chiziqcha belgilaydi. Kursor keyingi daqiqada matnni yozilish, rasm yoki jadvalni quyilish joyini ko'rsatadi. Kursorni joyini o'zgartirish uchun yo'nalish tugmachalaridan yoki sichqonchadan foydalanish mumkin. Sichqoning tugmacha sinining kerakli joyda bir marta bosilishi, kursor joyini

o'zgartiradi. Matn oxirini gorizontal chiziqcha ko'rsatadi. U doimo matnning oxirida joylashadi.

### Asboblar paneli



Menyu satridan so'ng turli **asboblar panellari** joylashgan. Bu panel furli tugmachalardan iborat bo'lib, har bir tugmacha Word taxrirlagichining biror komandasini anglatadi. Komanda bajarilishi uchun panelning mos tugmachasida sichqoncha tugmachasi bosilishi yetarli bo'ladi.

### Chizg'ichlar

Chizg'ichlar ish maydonining yuqori yoki chap qismida joylashishi mumkin. Chizg'ich yordamida matn kengligi, jadval katakchalari o'lchamini o'zgartirinshingiz mumkin.

Chizg'ichni o'rnatish yoki o'chirish uchun «Вид» menyusining «Линейка» komandasidan foydalaniladi.

### Normal usul

Odatda shu usul o'rnatilgan bo'ladi. Bunda matnni kiritish, taxrirlash, formatlash qulayroq. Shu usul formatlashning barcha turlarini bejaradi.

### Sahifalash usuli

Bu usulda matn chop etiladigan ko'rinishda beriladi. Ekranda matn, rasm, jadval va xokazolar chop etiladigan ko'rinishda joylashadi. Bunda birdaniga bir necha sahifani ko'zdan kechirish mumkin. Bu usuldan hujjat taxrirlagandan so'ng natijani ko'rish uchun foydalaniladi.

### Hujjatning shaklini ko'rish usuli

Bu rejimda hujjatning shaklini ko'zdan kechish, tashkil etish, o'zgartirish mumkin. Bunda sarlavhalar iyerarxiyasini shakl deb tushuniladi. Bu rejimda ekranga faqat sarlavhalarni chiqarish mumkin. Sarlavha sathini o'zgartirish mumkin. Sarlavxa bo'g'inlab ko'chirilganda, unga tegishli sarlavhalar ham bo'g'inlab ko'chiriladi.

### Matn kiritish

Barcha muharrir dasturlarida asosiy vaqt matn kiritishga sarflanadi, so'ngra esa muharrir imkoniyatlardan foydalanish mumkin. Word muharririda yangi abzatsga o'tishda «Enter» tugmasidan, so'zlar orasida bo'sh joy tashlashda «Probel» yoki «Tab» tugmalaridan foydalaniladi. (¶) belgi - abzats oxirini ko'rsatuvchi belgi. Yuqoridagi abzatsga bog'liq yangi satrni boshlash uchun, kursorni kerakli joyga

qo'yib, «Shift+Enter» bosilishi natijasida Word satrning uzilish belgisini o'rnatadi va kursorni yangi satrning boshiga o'tkazadi. Matn bo'ylab harakat qilishda klaviaturadagi boshqaruv tugmalaridan, «sichqoncha»dan va o'tkazish yo'lakchalaridan foydalanish mumkin. Noto'g'ri kiritilgan belgilarni o'chirishda bir necha usullardan foydalanish mumkin:

- **Back Space**- kursordan chap tomondagi belgini o'chiradi.
- **Shift + Back Space** - kursordan chap tomondagi bitta so'zni o'chiradi.
- **Delete**- kursordan o'ng tomonda turgan bitta belgini o'chiradi.
- **Shift+Delete**-kursordan o'ng tomondagi bitta so'zni o'chiradi.

## Microsoft Excel 2007 dasturida ishlash

Elektron jadvallar bilan ishlovchi **Microsoft Excel 2007** dasturi hisoblash amallariga asoslangan holda jadval ko'rinishidagi ma'lumotlarni qayta ishlash uchun, hamda xisoblashlar natijasi bo'lgan sonli qiymatlar asosida turli ko'rinishdagi diagrammalar yaratishga mo'ljallangan.

Kompyuterlar sonli ma'lumotlarni jadval shaklida ifodalanishi va uning ustida xar xil xisoblash amallarini bajarishga imkon yaratib beradi.


Jadval ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlab chiqish uchun mo'ljallangan kompyuter dasturlari elektron jadvallar deb ataladi.

**Microsoft Excel 2007** dasturida xar xil jadval shaklidagi ma'lumotlar bazasi bilan ishlashga mo'ljallangan bo'lib, ekran yacheykaldan iborat va xar bir yacheyka shaxmat taxtasiga o'xshagan o'z adresiga ega. Bu ma'lumotlar bazasi bilan ishlaganda xar bir yacheykada joylashgan ma'lumotdan foydalanish va undan foydalanib, boshqa bir yangi ma'lumot xosil qilishga imkon beradi. Bu dastur asosan bank sistemasiga o'xshagan ma'lumotlar bazasi bilan ishlovchilar uchun mo'ljallangan va juda ko'p imkoniyatlari ega.

Dasturni yuklash uchun Windowsning asosiy menyusidan Пуск->Программы (Все программы) -> Microsoft Office -> Microsoft Office Excel 2007 bandlari tanlanadi.



**Microsoft Excel 2007** da xar qanday hujjat ishchi kitob deb ataladi va .xls kengaytmali shablonlar bilan tasvirlanadi. Har bir ishchi kitobda boshlang‘ich holatda 3 tadan sahifa beriladi. Bu sahifalar sonini ko‘paytirish va kamaytirish ham mumkin. Birinchi ishchi kitobga Kniga1 degan nom beriladi.



**Microsoft Excel 2007** dasturining ishchi sohasi quyidagi qismlardan tashkil topgan: sarlavha va menu qatorlari, vositalar paneli, formula va holat qatorlari hamda kitob oynasi.

Menyuning birinchi bo‘limi «**Кнопка Office**» tugmachasi ishchi kitoblar bilan ishlashga yordam beradigan buyruqlardan iborat. Bu bo‘limdan foydalanib yangi ish kitobini yaratish, mavjud ish kitobini ochish, joriy ish kitobini bekitish, xotirada saqlash, ish kitobining xususiyatlari haqidagi ma’lumotlarni ko‘rish, ishchi saxifasini formatlashga oid parametrlardan iborat muloqot oynasini xosil qilish, bosmaga tayyorlangan xujjatni oldindan qurish va bosmaga chiqarish ishlarini bajarish mumkin.

«**Главная**» bo‘limida ma’lumotlarni o‘zgartirishga olib kelgan oxirgi amalni bekor qilish, o‘zgartirishni qaytarish, amalni qidirib topish va o‘zgartirish, belgilangan soxani ish kitobidan olib tashlash, kataklardan almashinuv buferiga nusxa olish, kerakli joyga qo‘yish, kataklar blokini talab asosida to‘ldirish, kataklarni ba’zi parametrlar bo‘yicha tozalash, ish kitobidan ishchi saxifani olib tashlash ishlari bajariladi.

«**Вставка**» bo‘limida jadvalga muloqot oynasi yordamida diagramma xosil qilish, rasmlar qo‘yish, ish kitobiga turli xil belgilarni qo‘yish ishlari bajariladi.

«**Разметка страницы**» bo‘limidan qog‘ozning o‘lchamlari, holatlari, matn rangi va shirft turlari keltirilgan.

«**Формулы**» bo‘limida matematik, mantiqiy, moliyaviy hisob ishlari uchun turli formulalar bo‘yicha funksiyalar keltirib o‘tilgan.

«**Данные**» bo‘limining buyruqlari jadvallar ustida ishlashga mo‘ljallangan bo‘lib, ularni tartiblash, saralash ishlarni bajarish mumkin.

«**Рецензирование**» bo‘limida sahifa va kitobga himoya qo‘yich, undan foydalanish bo‘yicha ruxsat berish kabi ishlar amalga oshiriladi.

«**Вид**» bo‘limida ekranga katak adresi va katakka joylashtirilgan formulani o‘zida jamlagan bo‘limni o‘rnatish, bir qancha vositalar panelini hosil qilish, bundan

tashqari jadvalni butun ekran bo'yicha kengaytirish va jadvalning masshtabini o'zgartirish ishlari amalga oshiriladi.

### **Matematik formulalar bilan ishlash.**

Elektron jadvallarda oddiygina jadval tuzish emas, balki yacheikalarga kiritilgan boshlangich qiymatlardan ma'lum formula asosida yangi qiymatlarni xosil qilish muximdir. Jadvalga ixtiyoriy formulani kiritish va xisoblashni bajarish mumkin.

Barcha formulalar (=) belgisi bilan boshlanadi. Formulalar dasturlash tillaridagi kabi bir qatorda yoziladi. Aks xolda u oddiy matn singari tushuniladi. Formulalarni yozishda yacheykalar adresidan foydalanish mumkin. Yacheykalar adresi absolyut ko'rinishda olingan xolatda formulani ko'chirish paytida u o'zgarmaydi.

Formula to'gridan-to'gri yacheykaga yoki formula kiritish joyiga yoziladi.

### **Diagramma va grafiklarni xosil qilish.**

Excel yordamida jadvalga kiritilgan sonli ma'lumotlarning diagrammalari va grafiklari xosil qilinadi. Diagrammalar va grafiklarni chizish uchun Excel da juda katta imkoniyatli yordamchi «Диаграммы» bandi majud. Shu yordamchi vositasida turli tuman diagrammalar quriladi. Diagrammani berilganlar joylashgan varaqda, boshqa varaqda xatto boshqa kitobda xosil qilish mumkin.


### **Microsoft Power Point 2007 dasturida ishlash.**

Hozirgi kunda shahsiy kompyuterdan foydalanishda kompyuter grafikasi bilan ishlash juda qiziqarli yo'naliishlardan biri bo'lib qolmoqda.

Microsoft Power Point taqdimot (презентация) grafikli dasturlar sarasiga kiradi. Bunday dasturlar o'zida matnlar, rasmlar, sxemalar, grafiklar va animations effektlar, ovoz, videokliplar va hokazolardan iborat bo'lgan slaydlar hosil qilish imkonini beradi. Slaydlar ketma-ketligidan hosil bo'lgan taqdimotni kompyuter ekranida, videomonitorlar va katta ekranlarda namoyish qilish mumkin. Taqdimot yaratish bu slaydlar ketma-ketligini qurish va bezagini berishdir. .

Power Point bir nechta slaydlarga ega bo'lgan prezentatsiya faylini ochadi. Bu dastur foydalanuvchiga har xil mavzularda katta miqdorda prezentatsiya qoliplarini taqdim etadi. Bu qoliplar mahsus usulda jihozlangan slaydlarga ega. Slayd maydonchasiga matnni, grafikani, jadval va diagrammalarini joylashtirish mumkin. Undan tashqari biz didimizga mos dizayn tanlab san'atkorona jihozlashgan prezentatsiya qolipini o'zgartirishimiz mumkin. Bunda prezentatsiya mazmuni saqlab qolinadi, faqat uning tashqi ko'rinishi o'zgaradi.

**Microsoft Power Point 2007** programmasini ishga tushirish uchun Windowsning asosiy menyusidan Пуск-> Программы (Все программы)-> Microsoft Office-> Microsoft Office Power Point 2007 bandlari tanlanadi.



Bu dasturda ishslashdan oldin ba’zi so‘zlarning ma’nosini tushunib olishimiz kerak.

**Power Point** – bu grafik dasturlar paketi bo‘lib, elektron slaydlarni tayyorlash, ular bilan tanishishni uyuştirish va slayd filmlarni namoyish etishga tayyorlaydi.

**Prezentatsiya**- bu slaydlar va mahsus effektlar to‘plami bo‘lib, ularni ekranda ko‘rsatish, tarqatiladigan material, dokladni plan va konspekti shaklida bieta faylda saqlanadi.

**Slayd**-bu prezentatsiyaning alohida kadri bo‘lib, o‘z ichiga matnni, sarlavhalarni, grafik va diagrammalarini olish mumkin.

**Dizayn qolipi**- professional tomonidan oldindan tayyorlab qo‘yilgan grafiklar, bo‘yoklar, jilolar, tovushlar namunasi bo‘lib, ular slaydlarda ishlatish uchun mo‘ljallangan.

**Animatsiya**- bu slaydlarni namoyish qilish va ko‘rsatishda ularni samaradorligini oshirushi tovush , rang, matn va harakatlanuvchi effektlar va ularni yig‘indisidan iborat.

### Test savollari

#### 1. Excel elektron jadvali fayllar kengaytmasi?

- a) doc
- b)\*xls
- c) ppt
- d) exe

#### 2. Excel 2007 elektron jadvalida satrlar soni?

- a)1048576
- b) 65536
- c) 1024
- d) 612

## **26-MAVZU: KOMPYUTERNING GRAFIK IMKONIYATLARI VA ULARNING TURLARI (2 SOAT AMALIY).**

### **Reja:**

1. Kompyuterning grafik imkoniyatlari.
2. Mashina grafikasi
3. Grafik qiyofa va eksplikatsiya
4. Passiv va interaktiv mashina grafikasi
5. Kompyuter grafikasining turlari va uning turkumlari

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng malakali mutaxassislar tayyorlashga katta e'tibor berib kelinmoqda. Yukori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash bevosita ta'lif muassalarining moddiy-texnika va axborot bazasini mustaxkamlash, yuqori sifatli o'kuv adabiyotlar, darsliklar, elektron o'quv qo'llanmalar va ma'ruza matnlarini yaratish, elektron kutubxonalar tashkil etish bilan bog'liqdirdir.

Keyingi yillarda Respublikamizda kompyuter va informatsion texnologiyalarini rivojlantirish borasida bir necha chora tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Jumladan respublikamiz maktablari, o'quv yurtlari va muassasalarini kompyuterlashtirish keng yo'lga qo'yilmoqda. Biroq davlat tilida yozilgan va informatika asoslariga doir adabiyotlar yetarli emas. Bu muammo, mavjud kompyuterlardan samarali foydalanishda, informatikaga va kompyuter grafikasiga oid bilimlarni keng omma orasida yoyishda qiyinchiliklar tug'diradi. Shuni nazarda tutib, kompyuter grafikasi bilan ish boshlovchilar uchun yetarli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan ushbu qo'llanma foydalanuvchilar ehtiyojini ma'lum darajada qondiradi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, kompyuter grafikasi bilan ishlashni o'rGANISHNI boshlagan foydalanuvchilar ShEHM qurilmalarining tuzilishi bilan tanishmasdan turib o'z bilimlarini mustaqil chuqirlashtira olmaydilar.

Kompyuter grafikasi geometrik jismlar, shakl va tamoillarning matematik modellari hamda ularni namoyish etish usullari to'g'risidagi fan sifati qaralishi mumkin.

Kompyuter tasvirlariga bo'lgan qiziqish ularda juda katta hajmdagi ma'lumotlar saqlanishi bilan izohlanadi: tasvirlarni yaqqol namoyish etish imkoniyati mavjud bo'lib, ularni tashkil etish uchun axborot texnologiyalari sohasida maxsus bilimlar talab qilinmaydi.

Kompyuter grafikasi dastlab kesmalar yordamida chizish, ko'rinnmas chiziqlarni o'chirish, murakkab sirtlarni akslantirish usullari, soyalarni shakllantirish, yoritilganlikni hisobga olish tamoillari sifatida mustaqil yo'nalish bo'lib paydo bo'lgan. Bu yo'nalish vektorli grafikani rivojlantirishga xizmat qildi. Keyinchalik uch uljovli (3D) grafika yo'nalishi paydo bo'ldi.

Hozirgi kunda kompyuter grafikasining qo'llanish sohalari ancha kengaydi, ya'ni uni keng tadbiq qilish imkoniyatlari paydo bo'ldi. Natijada kompyuter grafikasi faoliyati dasturlash va kompyuter texnikasi bilan bog'liq bo'limgan

mutaxassislarning ish vositasiga aylandi. Kompyuter grafikasining yangi yo‘nalishlaridan biri haqiqiy tasvirlarni shakllantirishning uslub va tamoillarini ishlab chiqishga bag‘ishlanadi.

Kompyuter grafikasi ilm va fanning barcha sohalarida, ayniqsa iqtisodiy ko‘rsatichlarni tahlil qilishda muvaffaqiyatli qo‘llanishi mumkin.

Kompyuter grafikasi informatika sohasida o‘rganiladigan ko‘pgina fanlar o‘quv rejalarining ajralmas qismi bo‘lib hisoblanadi. Hozirgi davrda kompyuter grafikasi quyidagi:

- Informatika, informatsion texnologiyalar
- Informatika va dasturlash
- Iqtisodiyotda informatsion texnologiyalar va tizimlar
- Interaktiv dizayn
- Kompyuter tarmoqlari
- Internet asoslari va E-mail(elektron pochta) va boshqa kurslarning predmeti va tarkibiy qismi hisoblanadi.

Berilgan ma’lumotlarni tahlil qilishda, olingan natijalarni ko‘rgazmali tarzda ko‘rsatish va taqdimot (prezentatsiya) uchun materiallar tayyorlashda, tasvirlarni qayta ishslashda, yangi murakkab kompozitsiyalar yaratishda zamonaviy kompyuter grafikasi keng qo‘llaniladi.

Kompyuter grafikasi kursining vazifasi quyidagilardan iborat:

- ⌚ o‘quvchilarga hozirgi zamon kompyuter grafikasi bo‘yicha nazariy va amaliy bilim ko‘nikmasini hosil qilish;
- ⌚ foydalanuvchilarning hozirgi zamon kompyuter grafikasi vositalari va ularni ishlatilishini o‘zlashtirishlariga erishish;
- ⌚ kompyuter grafikasining texnologik tuzilishini va har xil taqdimot materiallarini tayyorlash namoyish etishni o‘rganish;
- ⌚ hozirgi zamon kompyuter grafikasidan o‘zining o‘quv sohasi va professional faoliyatida foydalanishni bilish;
- ⌚ kompyuter grafikasining texnikaviy vositalari va zamonaviy programmalaridan foydalanishni bilish.

Ushbu qullanmada kompyuter grafikasining nuqtali (rastrli), ob’ektli (vektorli) va fraktal turlari haqida boshlang‘ich tushunchalar keltirilgan.

## **KOMPYUTER GRAFIKASINING TURLARI**

### **Mashina grafikasi**

Hech kimga sir emaski fan texnika taraqiyoti jamiyatimizni informatsion jamiyatga aylantirmoqda. Bu jamiyatda faoliyat ko‘rsatuvchilarning aksariyat qismi axborotlarni ishlab chiqish, saqlash, qayta ishslash va amalga oshirish bilan banddirilar. Ma’lumki bunday ishlarni zamonaviy kompyuterlarsiz amalga oshirish qiyin. Ulardagi ma’lumotlarni qayta ishslashni mashina grafikasi yordamida amalga oshirish foydalanuvchiga katta qulayliklar tug‘diradi.

Mashina grafikasi deganda ob’ektlarning hajm modellarini yaratish, saqlash, ishlov berish va EHMLar yordamida ularni namoyish etish tushiniladi. Kompyuter grafikasi yangi informatsion texnologiyalar orasida to‘xtovsiz rivojlanib borayotgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bunday rivojlanish texnika sohasida ham, dasturiy

vositalar sohasida ham ko‘zga tashlanmoqda. Bu dasturiy mahsulotlar namoyish grafikasiga, geometrik modellashtirishga, grafik interfeyslarni loyihalashga, animatsiya (harakatlanuvchi tasvirlar)ga va ko‘zga ko‘rinuvchi (vizual) harakatni qurishga imkon beradi.

### **Grafik qiyofa va eksplikatsiya**

Elektron grafikani tuzish va uni tushunish uchun grafika elementlari ma’nosini va ularni turli holatlarda qo‘shishni o‘rganish muhim hisoblanadi.

Tasvirlashning grafik usuli yoki grafik til – bu fikrni ifodalashning fazoviy tasvirlash yoki shartli ravishda tekislikda aks ettirish usullarining to‘plamidir.

Grafik tasvirlashning namunalari – geometrik figuralar, turli haritalar, iqtisodiy analiz diagrammalari, korxonalarining tashkiliy – strukturaviysemalari va boshqalar bo‘lishi mumkin.

Aqliy tasavvur va qiymatlar to‘plamini ifodalovchi chizmalarini tuzish jarayoni *grafiklashtirish* deyiladi, uning natijasi esa – *grafika* deyiladi.

Grafika ikki elementga bo‘linadi: grafik qiyofa va eksplikatsiya.

*Grafik qiyofa* – chizmalar to‘plami bo‘lib, ular o‘zaro bog‘lanishlari bilan birgalikda tushuniladi.

*Eksplikatsiya* – grafik obraz mohiyatini ochib beruvchi shartli belgilar to‘plami. Grafik obraz – simvol, geometrik shakl ko‘rinishida bo‘lishi mumkin.

Grafik eksplikatsiya uch qismga bo‘linadi: geometrik, ideografik va xususiylashgan.

Ideografik eksplikatsiya – shartli belgilar, figurali, chiziqli, fonli va boshqalar ma’nosini tushintiradi, bu shartli belgilar grafika elementlariga aniq bir ma’no bag‘ishlaydi.

Geometrik eksplikatsiya – koordinata o‘qlari, shkalalar, masshtablardir. Ular yordamida geometrik qiyofa largeometrik hususiyatlarga ega bo‘ladi, chunki bu vositalar yordamida geometrik yuzalar xossalardan foydalaniladi.

Hususiylashgan eksplikatsiya – sarlavhalar, tushuntirishlar (sonlar va belgilar) bo‘lishi mumkin. Tushuntirishlar grafikaning ushbu bilimlar doirasida qanday joy egallaganligini ko‘rsatadi va til nuqta nazaridan grafikaning eng zaruriy elementi hisoblanadi, chunki usiz grafika hech qanday ma’no kasb etmaydi.

Shunday qilib grafika – bu maxsus, fikran yaxlit xayoliy g‘oyalarning ikki o‘lchovli (yoki uch ulchovli) tasvirda ifodalangan grafik qiyofasi va uning eksplikatsiyasidir.

### **Passiv va interaktiv mashina grafikasi**

Mashina grafikasini passiv va interaktiv bo‘laklarga ajratish mumkin. Rasmlarni alfavit – raqamlar, zarbli chop etish qurilmalaridan qog‘ozlarga chiqarish mumkin. Bunda rasm ma’lum nuqtalarga bir xil belgilarni qog‘oz sathiga tushurish orqali, rang tafovuti esa ba’zi joylarga shu belgilarni bir necha marta urib (to‘q rang), bazi joylarda bir marta tushurib (och rang) hosil qilinadi. Tasvirlarni bunday usulda hosil qilish passiv mashina grafikasiga tegishlidir.

Interaktiv mashina grafikasida tasvirning holati, uning shakli, mazmuni, o‘lchamlari va rangi monitor ekranida interaktiv qurilmalar yordamida dinamik ravishda uzlusiz o‘zgartirilib, boshqarilib turiladi.

Kompyuter grafikasi ilm va fanning barcha sohalarida, ayniqsa iqtisodiy ko‘rsatgichlarni tahlil qilishda muvaffaqiyatli qo‘llanilishi mumkin.

Zamonaviy shaxsiy kompyuterlarda hosil qilinadigan grafiklarning barchasi amaliy jihatdan qaraganda interaktivdir.

### **Kompyuter grafikasining turlari va uning turkumlari**

Kompyuter grafikasi uch turga bo‘linadi: rastrli (nuqtali yoki piksell)grafika, vektorli (ob‘ektli) grafika va fraktal grafika. Ular bir – biridan monitor ekranida tasvirlanishi va qog‘ozda bosib chiqarilishi bilan farqlanadi.

*Rastrli grafika.* Rastrli grafikada tasvir nuqtalar(qog‘ozda), piksellar (nuqtalar ekranda shunday deb ataladi) yordamida hosil qilinadi. Tabiiyki, nuqtalar soni qancha ko‘p bo‘lsa (ular zinch qilib joylashtirilsa), unga asoslangan rasm, shakl, grafik va hokazolar shuncha aniq ko‘rinib turadi. Shu munosabat bilan ekranning ruxsat etish qobiliyati tushunchasi kiritilgan bo‘lib, unda gorizontal va vertikal yo‘nalishlardagi nuqtalar soni muhim ahamyatga ega va u ekranning ruxsat etish imkoniyati deyiladi.

Odatda, bunday kursatgich 640x480, 800x600, 1024x768 yoki bulardan yuqori piksellarda beriladi. Tasvir o‘lchovi ruxsat etish qobiliyati bilan bog‘liqdir. Bu parametr dpi (dots per inch – nuqtalar soni zinchligi) bilan o‘lchanadi. Ekran diagonali 15 dyumli (1 dyum =2,54 sm) monitorda tasvir o‘lchovi 28x21 sm ni tashkil qiladi. Buni hisobga olsak, 800x600 piksell monitor ekranning tasvirlash qobiliyati 72 dpi ga teng bo‘ladi. Demak, kompyuter xotirasidagi rangli tasvir ko‘p joy olishini tushunish qiyin emas. Misol uchun 10x15 sm li rasm taxminan 1000x1500 piksellardan iborat bo‘ladi.

Agar har bir rangli nuqtani tasvirlash uchun 3 bayt xotira ishlatalishi hisobga olinsa, bitta o‘rtacha kattalikdagi rasmning o‘zi xotirada taxminan 4 mln bayt joyni egallaydi. Bunday ma’lumot, xususan, Internet sahifalarini yaratishda e’tiborga olinishi zarur. Shuning uchun ham hozirgi kunda yaxshi multimedia dasturlarni videoroliklarni yaratish uchun operativ xotirasi 128 Mbaytdan kam bo‘lmagan va, mos ravishda tezligi katta bo‘lgan kompyuterlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Demak, rastrli grafika bilan ishlash uchun yuqori unimli kompyuter talab qilinadi.

Rastrli grafikaning kamchiligi sifatida shuni aytish mumkinki, tasvirni masshtablashtirish (kattalashtirish, kichiklashtirish) jarayoni natijasida nuqtalar o‘lchovi kattalashishi bilan tasvir aniqligi yomonlashishi mumkin va xatto, tasvir tanib bo‘lmaydigan darajada o‘zgarishi mumkin.

Rastrli grafika elektron (multimedia) va matbaa nashrlarida keng qo‘llaniladi. Nashrlarda turli illyustratsiyalarni yaratishda, otatda, skaner orqali olingan raqamli fato yoki videokamera yoki rassom loyiҳachi tomonidan tayyorlangan tasvirlardan foydalaniladi. Shuning uchun rastrli grafikada tahrir qiluvchi dastur vositalaridan

keng foydalaniladi. Bu dasturlar odatda, tasvirlarning aniqroq ko‘rinishda bo‘lishini ta’minlaydi.

*Vektorli grafika.* Vektorli grafikada tasvirning asosiy elementi sifatida chiziq qaraladi. Chiziq sifatida to‘g‘ri chiziq yoki egri chiziq olinishi mumkin. Rastrlı grafikada bunday chiziqlar nuqtalar (riksellar) yordamida yaratilsa, vektorli grafikada esa tasvirlarni yaratishda nuqtaga nisbatan umumiyoq bo‘lgan chiziqlardan foydalaniladi va shuning hisobiga tasvirlar aniqroq ko‘rinishga ega bo‘ladi.

Vektorli grafikaning afzallik tomoni tasvirning xotirada kamroq joy olishidir, chunki bu holda xotirada joy chiziq o‘lchoviga bog‘liq bo‘lmagan ravishda bo‘ladi. Buning sababi xotirada chiziqning o‘zi emas balki uni ifodalovchi formula yoki parametrlar saqlanishidadir. Vektonli grafikaning ixtiyoriy tasviri chiziqlardan tashkil topadi va oddiy chiziqlardan murakkabлari hosil qilinadi. Ko‘pincha vektorli grafikani ob‘ektga mo‘ljallangan deyish mumkin. Chunki bunda, masalan, uchburchak hosil qilish uchun 3 ta chiziq (kesma)dan foydalanilsa, piramida hosil qilish uchun uchburchaklardan foydalanibgina hosil qilish mumkin. Vektorli grafikani hisoblanadigan grafika deb hamatash mumkin, chunki tasvirni (ob‘ektni) ekranga chiqarishdan avval uning koordinatalari hisoblanadi va mos nuqtalar hosil qilinadi.

Vektorli grafikaning matematik asosini geometrik figuralarning hossalarini o‘rganish tashkil etadi. Ma’lumki. Nuqta tekislikda 2 ta ( $x, u$ ) koordinatasi bilan, to‘g‘ri chiziq kanonik ko‘rinishida  $y=kx+b$  (bunda  $k$  va  $b$  ixtiyoriy sonlar), kesma esa mos ravishda boshlang‘ich va oxirgi nuqtasini berish bilantasvirlanadi. Egri chiziqlar ham mos ravishda o‘z tenglamalariga ega.

Vektorli grafika asossan illyustratsiyalar yaratish uchun yo‘naltirilgan. Vektorli grafika reklama agentliklarida, loyihalash buyurolarida, nashriyotlarda va boshqa joylarda keng qo‘llaniladi.

Vektorli grafika bilan ishlaydigan dasturlarga misol sifatida **Adobe Illustraratot, Macromedia Freehand va Corel Draw**larni keltirish mumkin.

*Fraktal grafika* ham hisoblanuvchi grafika bo‘lib, uning vektor grafikadan farqi shundaki, bunda hech qanday ob‘ektlar kompyuter xotirasida saqlanmaydi. Chunki tasvirlar tenglamalar yoki ularning tizimlarida hosil qilinadi. Shuning uchun ham xotirada tenglamalargina saqlanadi. Tenglamalarga oid parametrlar o‘zgartirilishi natijasida turli tasvirlar hosil qilinadi.

Fraktal grafika matematik hisoblashlar asosida tasvirlarni avtomatik yaratish uchun qo‘llaniladi. Shuning uchun ham uning asosi sifatida rasm, shakl, tasvir hosil qilishning dasturlash usuli tanlangan.

Bu grafika odatda, turli jarayonlarni modellashtirish, tahlil qilish, turli qiziqtiruvchi dasturlar yaratishda keng qo‘llaniladi.

Kompyuter grafikasining quyidagi turkumlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- ❖ Tijoratga oid;
- ❖ Namoyishlarga oid;
- ❖ Muhandislikka oid;
- ❖ Ilmiy

- ❖ Ko‘rgazmaviy;
- ❖ Animatsion.

*Tijoratga oid grafika* elektron jadvallarda yoki berilgan bazasidagi axborotlarni aks ettirish uchun xizmat qiladi. Bu axborotlar kompyuter monitor ekranida grafik, gistogramma, diagramma va xohlagan boshqa ko‘rinishlarda aks ettirilishi mumkin. Bunda grafiklar matn izohlari va ma’lum joylardashartli belgili izohlar bilan ta’milnadi.

Tijorat grafikasiga tegishli bo‘lganamaliy dasturlarpaketi tasvirni ekranda tezda va qulay ifodalashga qaratilgan, chunki tijoratchining asosiy maqsadi axborotlarni qayta ishlash jarayonidagi o‘zgarishlarni tezda muhokama qilib, tegishli qarorlar qabul qilishdan iborat.

*Namoyish qilish grafikasi* – matn, sxema, eskiz kabi hujjatlarning mashinaviy tasvirini hosil qilib uni namoyish etishga tayyorlash uchun xizmat qiladi. Bu yerda eng asosiy vazifa – yuqori sifatli va chiroyliko‘rinishdagi tasvirlar hosil qilishdan iborat. Bu turdagи grafikaning eng afzal tomoni shundaki, undagi tasvirlar to‘plami va ko‘rinishini o‘zgartirish mumkin.

*Muhandislik (injenerlik) grafikasi* – bunday grafika chizmachilik, loyihalash va konstrukturlik ishlarini avtomatlashtirishda keng qo‘llaniladi. Injenerlik grafikasi analiz, sintez, modellashtirish, chizmachilik, boshqarish va shu kabi loyihalash ishlarini avtomatlashtirishning hamma bosqichlarini o‘z ichiga oladi.

*Ilmiy grafika* – ilmiy izlanishlar uchun xizmat qiladi va geografik, fizik, biologik va boshqa jarayonlarni tadqiq qilishda qo‘llaniladi. Ilmiy grafikaning eng asosiy maqsadi ilmiy izlanishlarda hosil bo‘ladigan axborotlprni vizuallashtirish – ko‘zga ko‘rinarli shaklda ifodalashdir. Shuningdek, ilmiy izlanishlar natijalarini kerakli shaklda diagrammalar, haritalar, jadvallar va turli matematik formulalar shaklida tasvirlashda ishlatalishi mumkin.

*Ko‘rgazmaviy grafika* – namoyish va tijorat grafikalarining rivoji bo‘lib, shu ikkala grafika imkoniyatlarining yig‘indisini tashkil etadi. Bu grafika ayrim grafikalarni slaydlar ketma – ketligidan iborat slaydfilm qilib yaratib, so‘ngra uni ma’lum vaqt ichida ekranda ketma – ket ko‘rgazma shaklida namoyish etadi. Har bir slaydning ekrandagi tasviri ovoz va vizual effektlar bilan qo‘sib olib borilishi mumkin. Bundan tashqari, tayyor grafikni tahrir qilish imkoniyati ham mavjud.

*Animatsion grafikada* - rang bilan ishlashdagi muvaffaqiyatlar muhandislik grafikasidagi uch o‘lchovli ob‘ektlarni modellashtirishdagi yutuqlar bilan (masalan reklama e’lonlari va teleko‘rsatuvdagi bir tasvir ichiga ikkinchisini kiritish) qo‘sib uyg‘unlashtirilgan.

*Mashina grafikasi* – bu kompyuter yordamida ob‘ekt shakllari, uning modelini yaratish va saqlash uchun xizmat qiluvchi kompyuter grafikasining bir bo‘limi. Kompyuterda turli grafik tasvirlarni hosil qilish mumkin, biroq ular bir – biridan farqlanadi, chunki hozirgi zamon kompyuterlari o‘tgan asrning 90 – yillaridagi tizimlarga nisbatan shakllarni aniq tasvirlash imkoniyatiga va maxsus dasturlar bilan kengaytiriladigan tizimlarga ega.

*Inrefaoi grafika* – kompyuter grafikasining eng asosiy bo‘limlaridan biri bo‘lib, unda foydalanuvchi tasvirni dinamik boshqarish imkoniyatiga ega bo‘ladi,

ya'nitasvirning shakli, o'lchamlari va monitor yuzasidagi ranglarni o'zaro tasir qiluvchi moslama (klaviatura yoki sichqoncha) yordamida boshqaradi.

Kompyuter grafikasida aniq va mavhum ob'ektlar tasvirini yaratish va bu tasvirlarni ikki ko'rinishda kuzatish mumkin:

- ⦿ Kuzatuvchi qo'zg'almas bo'lib, oldidagi ob'ektni xohlaganicha aylantirib kuzatishi mumkin – bu panorama effekti
- ⦿ Ob'ekt ko'zg'almas bo'lib, kuzatuvchi uning atrofida aylanib tomosha qilishi mumkin – bu kamera effekti.

Interfaol grafika yaratilgandan keyin u televideniya va fotografiyada tasvirni yaratish va tayyorlashdagi eng asosiy texnik moslamalardan biri bo'lib qoldi.

### Test savollari

#### 1. Qaysi grafik faylni kengaytmasi emas?

- a) bmp
- b) jpeg
- c) gif
- d) \*rtf

#### 2. Windows OT da qaysi dastur orqali grafik fayllar tayyorlanadi?

- a) WordPad
- b) \*Paint
- c) Adobe Photoshop
- d) Image

### 27-MAVZU: AMALIY DASTURLAR PAKETI VA ULARNING KASBIY SOHALARDA QO'LLANILISHI (2 SOAT AMALIY).

#### Reja:

1. Amaliy dasturlar paketining asosiy turlari
2. Amaliy dasturlar paketidan moliyalash va kredit sohalarida foydalanish

**Amaliy dasturiy ta'minot** foydalanuvchi aniq bir vazifalari (ilovalari)ni ishlab chikish va bajarish uchun mo'ljallangan. Amaliy dasturiy ta'minot tizimli DT, xususan, operatsion tizimlar boshqarilushi ostida ishlaydi. Amaliy DT tarkibiga quyidagilar kiradi:

- turli vazifalardagi amaliy dasturlar paketlari;
- foydalanuvchi va AT umumiy ish dasturlari.

Amaliy dasturlar paketlari (ADP) foydalanuvchi xal etayotgan vazifalarini avtomatlashtirishning kuchli kurolidir, u axborotni qayta ishlash buyicha kompyuter biror ishni kanday bajaryotganini bilish zaruriyatidan amalda to'liq ozod etadi. Amaliy dasturiy ta'minot – bu foydalunuvchilarning uzlari uchun uzlari tomonidan yaratiladigan dasturlardir.

Tizimli dasturiy ta'minot – bu barcha uchun yaratilgan va universal bulgan dasturlardir. U xam ikki bulakka bulinadi.:

Umumiy tizimli dasturiy ta'minot;

Maxsus tizimli dasturiy ta'minot.

Maxsus tizimli dasturiy ta'minot xisoblash tizimining anik spetsifik masalalarini yechish uchun umumiy dasturiy ta'minotga kushiladi (uchishni boshkarish, xarbiy masalalar va x.k.).

Umumiy tizimli dasturiy ta'minot universal bulib keng ommaviy masalalarni yechish uchun muljallangan.

U kuyidagi tarkibdan iborat:

tizimli kayta ishlovchi dasturlar;

tizimli boshkaruvchi dasturlar;

kushimcha 1 va 2 kabi dasturlar;

tekshiruvchi –diagnostik dasturlar;

amaliy dasturlar paketi;

Tizimli dasturiy ta'minot xujjalari majmuasi.

Amaliy dasturiy ta'minot – bu foydalunuvchilarining uzlari uchun uzlari tomonidan yaratiladigan dasturlardir.

Tizimli dasturiy ta'minot – bu barcha uchun yaratilgan va universal bulgan dasturlardir. U xam ikki bulakka bulinadi.:

Umumiy tizimli dasturiy ta'minot;

Maxsus tizimli dasturiy ta'minot.

Maxsus tizimli dasturiy ta'minot xisoblash tizimining anik spetsifik masalalarini yechish uchun umumiy dasturiy ta'minotga kushiladi (uchishni boshkarish, xarbiy masalalar va x.k.).

Umumiy tizimli dasturiy ta'minot universal bulib keng ommaviy masalalarni yechish uchun muljallangan.

U kuyidagi tarkibdan iborat:

tizimli kayta ishlovchi dasturlar;

tizimli boshkaruvchi dasturlar;

kushimcha 1 va 2 kabi dasturlar;

tekshiruvchi –diagnostik dasturlar;

amaliy dasturlar paketi;

Tizimli dasturiy ta'minot xujjalari majmuasi.

Tizimli boshkaruvchi dasturlarni operatsion tizimlar (OT) deb ataladi.

**OT** interfeysning kuyidagi variantlarini ta'minlashi mumkin:

- komanda interfeysi;
- dastur interfeysi (chakiriklar tizimi yoki ba'zi bir tizimli funktsiyalarni bajarish uchun kism dasturlar kurinishida);
- foydalanuvchi interfeysi (darcha, menu, klavishalar va x.k.)

Kushimcha tizimli dasturlar kayta ishlovchi va boshkaruvchi dasturlarni imkoniyatlarini kengaytirish uchun muljallangan.

Ular tarkibiga :

- servis dasturlari;

- instrumental dasturlar kiradi.

Servis dasturlarga:

- dastur kobiklari (nadstroyki);
- utilitalar kiradi.

Dastur kobigining yaxshi tomoni – bu xisoblash tizimining zaxiralariga murojatni yaxshilashdan iborat ( Windows provodnigi v ax.k.).

Utilitalar (yordamchi xizmat kursatuvchi dasturlar) foydalanuvchini kushimcha imkoniyatlar bilan ta'minlash (arxivlash, ma'lumotlarni tiklash, disklarga xizmat kursatish, virusga karshi dasturlar).



### Test savollari

#### 1. Amaliy dasturlar paketi nima?

- Kompyuterni ishga tayyor holatga keltiruvchi dasturlar
- \*Aniq masalalarni yechishga qaratilgan dasturlar
- Kompyuterning asosiy qurilmalari bilan tashqi qurilmalar o'rtasidagi aloqani o'rnatuvchi dasturlar
- Kompyuter qurilmalarini tekshirishga qaratilgan dasturlar

**2. Axborotlar oqimini qayta ishlash jamiyat rivojlanishining qaysi yo‘nalishlariga ta’sir ko‘rsatadi?**

- a) Taraqqiyot yo‘nalishiga
- b) Rejalashtirish yo‘nalishiga
- c) \*Strategik yo‘nalishga
- d) Munosabat yo‘nalishiga

**28-MAVZU: NASHRIYOT TIZIMIDA QO’LLANILARIGAN PAGE MAKER DASTURI VA UNING IMKONIYATLARI (4-SOAT LABORATORIYA ISHI).**

**Reja**

1. *Dasturning asosiy oynasi va menyusi.*
2. *Hujjatlar oynasi. Hujjatlarni mashtablash va tasvirlash*
3. *PageMaker instrumentlari*
4. *Boshqarish palitrasи*
5. *Maxsuslashtirilgan palitralar*

Keyingi paytda turli korxonalarda kichik nashriyotlar paydo bo‘la boshladи. Kichik nashriyot deganda, shaxsiy kompyuter bazasida, turli tez chop qiluvchi va boshqa qo‘shimcha qurilmalar orqali bosma mahsulotlari (kitob, oynoma, jurnal, broshuralar, prospektlar va hokazo) chiqarish tushuniladi. Bunda bo‘lajak bosma mahsulotlari kompyuterda tayyorlanadi, ya’ni kompyuter varaqlash, asl maketlash ishlari ham kompyuterda bajariladi.

Rizograf esa asl maket shaklida kompyuterda tayyorlangan, chop qilish uchun ishlatiladi va u minutiga o‘rtacha 130 sahifani chop qilishi mumkin. Rizograflarning ham turli xillari mavjudligi va turli chop qilish tezligiga egal va asosan rangli tasvirda bo‘ladi.

Rizograflardan tashqari, kichik nashriyotda lazerli printer ham bo‘lishi lozim. Undan mashinka sifatida foydalanish mumkin emas. U faqat kompyuterda tayyorlangan asl maketni bir nusxada lazerli printerda chop qilish (sifati yaxshi bo‘lganligi sababli) va so‘ngra uni rotariatda, rizograflarda, katta bosma qurilmalarida chiqarish uchun ishlatiladi.

Bundan tashqari, kichik nashriyotda muqovalovchi, qog‘ozlarni kesuvchi, broshyuralovchi va boshqa qurilmalar bo‘lsa, u to‘la qonli nashriyot bo‘ladi.

Kichik nashriyotda kam nusxada (200-300) mahsulot chiqarish qimmatga tushadi. Shuning uchun nusxalar soni 2000 dan ko‘proq bo‘lgani yaxshi. Aks holda, bo‘yoq masalasi, qimmatbaho plyonkalarni har safar sotib olish muammosi tug‘iladi. Bundan tashqari, rizograf va lazer printerlarda sifatli qog‘oz ishlatilishi lozim.

Asl maketlarni tayyorlashda hozirgi zamon dasturlash vositalari [CuarkXpress](#), [PostCeript](#), [PageMaker](#) nashriyot tizimlaridan foydalaniladi. Turli formulali matnlarni (matematika, fizika, ximiya) tayyorlashda [Tex](#) va [Latex](#) tahrirlovchi dasturlardan foydalanish dunyo ilmiy amaliyotida keng qo‘llaniladi. Bunday tahrirlovchilar kompyuter xotirasida ko‘p joy olmaydi. [CuarkXpress](#), [PageMaker](#)

tizimlari katta hajmdagi xotiraga ega bo‘lgan kompyuterda ishlashi mumkin bo‘lsa, **Latex** tizimi hatto 286 protsessorida ham bemalol ishlataladi. Bu esa uning juda katta afzalligidir.

PageMakerni dasturi bosh menyuda joylashishi mumkin bo‘lgan Adobe guruhidagi — TypeManager 4.0, Photoshop, Illustrator va boshqa dastur maxsulotlari tarkibiga kiradi. Bu guruhda PageMaker paketining o‘rnatish komponentalarining ko‘rsatkich yorliqlari joylashgan

Agar bosh menyuda PageMaker yorlig‘i bo‘lmasa, dastur kompyuterga o‘rnatilmagan yoki yorliq boshqa menu guruhiга o‘tkazilgan bo‘lishi mumkin.



**1-Rasm.** PageMaker dasturi yorlig‘i

Dastur ishga tushgandan so‘ng ekranda dastur oynasi paydo bo‘ladi. Oynaning yuqori qismida menyular satri, va boshqaruv paneli joylashgan.




Boshqaruv paneli PageMaker interfeysining yangi elementi bo‘lib, ynda ko‘p ishlataladigan buyruqlarning tugmasi piktogrammalari joylashgan. Tugma ustida bosilganda kerakli buyruqning bajarilishini ta’minlaydi. Asosiy oynaning yuqori o‘ng burchagida joylashgan quyidagi tugmalar yordamida Oyna o‘chmlarini o‘zgarnibish mumkin:



**Rasm 2.** PageMaker 7.0 oynasiningasosiyoynasi.


Dasturishgatushgandanso ‘ngasosiyoynadato ‘rttupalitra: instrumentlari **Templates**, **Colors** vanomsizto ‘rttupalitrapaydobo ‘lib, uniboshqaruvchpalitradebatshumumkin.

Oynaningesosiyqismistandartfonrangigabo‘yalgan.  
Ishniboshlashchunmavjudnashrniochishmumkinyokiyangisiniyatishmumkin.



### -RasmOpen Publicationning muloqat oynasi

File (Fayl) menyusidan **Open** (Otkryt) (klavishlar kombinatiyasi <Ctrl>+<O>), buyrug‘ini tanlab, fayllar ro‘yxatining standart muloqat oynasi ochiladi:



### 5-Rasm.Document Setup moloqat oynasi.


Yangi nashrni yaratish uchun, **File** (Fayl) (klavishlar kombinatsiyasi <Ctrl>+<N>), menyusidan **New** (Noviy) buyrug‘i tanlanadi. Dokument Setup (Hujjat arametric) muloqat oynasida quyidagilar ko‘rsatiladi: nashr formati, betlar bo‘yicha opintatsiya, ikki tomonlama chop etishni ishlatalishi, ekranda nashrni aks ettirilishi yoki sahifadako‘rinishi, betl;ar soni, birinchi betning nomeri, maydon o‘lchami, mo‘ljallanayotgan chiqarish qurilmasi, chiqarish qobilyati kabilalar o‘z aksini topgan. Bu axborot **PageMaker** uchun juda muhim bo‘lib hisoblanadi.

Yangi hujjatlarni yaratish uchun **Templates** palitrasida joylashgan tayyor shablonlardan ham foydalanish mumkin. Dastur yuklanishi bilan ham bu palitra

ochilishi mumkin. Hosil bo‘lgan ro‘yhatdan kerakli shablon guruhlarini tanlab, co‘ngra talab qilingan shablon ajratiladi va asosiy oyna maydoniga sudrab olib chqiladi. Natijada shablon tarkibiga kiruvchi barcha elementlardan tashkil topgan yangi hujjat hosil bo‘ladi. Boshqaruvchi panelida yangi hujjatni yaratish uchun chap burchagida bo‘sh qog‘z pasimi joylashgan tugama ham yangi hujjat yaratish uchun hizmat qiladi. Ochiq papka pasmli tugma mavjud bo‘lgan nashrni ochish uchun xizmat qiladi.


### Hujjatlar oynasi

Yangi hujjatning parametrlarini bergandan so‘ng **OK, tugmasi ustida shiqillatiladi**, PageMaker hujjat oynasini yaratadi va uni asosiy oyna ichiga joylashtiradi.



6-Rasm. PageMaker hujjatoynasiningko‘rinishi.

Sahifalar bo‘yicha o‘tishda shuningdek **Layout** (Maket) menyusida **Go To Page** (Pereyti k stranitse) bueug‘I ishlataladi . Buyruq tanlanganda yagona qiymat kiritish maydonidan iborat muloqat oynasi paydo bo‘ladi, unda sahifa nomeri kiritiladi.



7-Rasm. Go To Page ningmuloqatoynasi.

### Palitralar

**Palitralar**-bu uncha katta bo‘lmagan oyna bo‘lib, unda dasturning boshqarish elementlari yoki qandaydir joriy axborot tasvirlanadi. Palitrani ihtiiyoriy holatda berkitib va yana qaytarib qo‘yish mumkin. Palitrani qo‘yish uchun: **Window** (Okno) menyusidan **Show <imya palitry>**(Pokazat <imya palitry>) buyrug‘I yordamida amalga oshiriladi. Agar palitra ekranda mavjud bo‘lsa, palitra nomioldiga **Hide**(Spryatat) sozi bilan beriladi. Ushbu punktni tanlab palitrani ekrandan olib qo‘yish mumkin yoki <Shift>+<Tab> tugmalarni bosish natijasida.

PageMaker dasturida quyidagi palitralar ishlataladi:

- *Instrumentlar palitrası (palitra instrumentov)*. Bajariladigan ishlarning nurini aniqlaydi;
- *Boshqarish palitrası (upravlyayuuçaya palitra)*. Abzast va belgilarni bichimlshni tezlikda amalga oshirishni ta'minlaydi;
- *Ranglar palitrası (palitra tsvetov)*. Maket elementlarining ranglarini ta'minlaydi;
- *Qoliplar palitrası (palitra stiley)*. Qoliplar yordamida abzastlarni formatlashni tezlashtiradi;
- *Qatlamlar palitrası (palitra sloev)*. Ko‘p qatlamlı maketlar yaratish imkoniyatini yaratadi va ularni boshqaradi ;
- *Shablon sahifa palitrası (palitra shablon-stranits)*. Shablon cahifani yaratish va uni joriy etishga mo‘jallangan;
- *Murojaatlar palitrası (palitra giperssyulok)*. Nashr elementlari bo‘yicha ichki va o‘zaro murojaatlarni ta’minlaydi.

Qoshimcha palitralar **Window** (Okno) menyusining **Plug In Palettes** (Dopolniteln̄ye plitry) ro‘yhatida yig‘ilgan

PageMakerning instrumentlar palitrası va boshqarish palitrası asosiy funktsiyalarga ega

### Instrumentlar palitrası

Instrumentlar palitrası quyidagi ko‘rinishga ega:



### 8-Rasm. Instrumentlar palitrası

Palitra quyidagi elementlardan tashkil topgan:

- **Pointer** (Strelka). Maket elementlarini joylashtirishda ishlataladi.
- **Text** (Tekst). Matinni formatlashda ishlataladi.
- **Rotating Tool** (Povorot). Maket elementlarini og‘dirish.
- **Cropping Tool** (Ramka). Nashirdagi tasvirni qirqish.
- **Line** (Liniya). Og‘ish burchagi bo‘yicha chizish.
- **Constrained Line** (Perpendikulyar). Vertikal va grizontal chiziqlarni chizish.
- **Rectangle** (Pryamougolnik). To‘g‘rito‘rtburchaklarni chizish.
- **Ellipse** (Ellips).
- **Polygon** (Mnogougolnik). Ko‘pburchaklarni chizish.
- **Rectangle Frame** (Pryamougolnyiy freym). Sozdaet To‘g‘rito‘rtburchak freymi.


- **Ellipse Frame** (Ovalnyiy freym). Egri freymlar.
- **Polygon Frame** (Mnogougolnyiy freym). Ko‘pburchak freymlarni yaratadi.
- **Hand** (Ruka). Qo‘l. Ish davomida hujjat bo‘yicha harakatlanish.
- **Zoom** (Masshtab). Mashtabni o‘zgartiradi.

Mashtablashtirish- tez-tez bajariladigan amallardan biri bo‘lib hisoblanadi. Buning uchun tugmalar kombinatsiyasidan foydalanish qulay:

- <Ctrl>+<5> — 50% mashtab uchun;
- <Ctrl>+<7> — 75% mashtab uchun;
- <Ctrl>+<1> — 100% mashtab uchun;
- <Ctrl>+<2> — 200% mashtab uchun;
- <Ctrl>+<4> — 400% dlya masshtaba
- <Ctrl>+<+> — **Zoom In** (Uvelichit) buyrug‘I uchun;
- <Ctrl>+<-> — **Zoom Out** (Umenshit) buyrug‘I uchun;

### Boshqarish palitrasini

Bu palitra odatda ekranda joylashgan bo‘lib, uning yordamida islash juda qulay. Boshqarish palitrasini yordamida dastur funksiyalariga tez kirish mumkin. Bundan tashqari bu palitradada ajratilgan elementlar parametrlari haqida axborotlar aks ettiriladi. Chunki palitradada qiymotlar sonlarda kiritiladi. Boshqarish palitrasini chiqarish uchun **Window(Okno)** menyusi orqali yoki <Ctrl>+<h> tugmalar kombinatsiyasidan faoydalanib **ShowControl Palette** (Pokazat upravlyayuviyu palitru) buyrug‘I yordamida amalga oshiriladi. Qanday instrumentlarni aktivligiga qarab, boshqarish palitrasini tegishli parametrlarni o‘zgarishini ko‘rib chiqish imkoniyatini yaratadi.




9-Rasm. Boshqarish palitrasining Pointer inustrumenti va ajratilgan matin bloki.



10-Rasm. Boshqarish palitrasida Textinstrumentiva ajratilgan matin fragmenti

### O‘lchov lineykalarini va yo‘naltiruvchilarini

Makettlarni rasmiylashtirishda joylashtiriladigan ob’ekt kordinatalari aniqlashtirish juda muhim. Bu maqsadda lineykaldan foydalanish juda qulay. Agar ekranda mavjud bo‘lmasa, menuy **View(Prosmotr)** menyusidan yoki <Ctrl>+<R>.tugmalari yordamida **Show Rulers** (Pokazat lineyki) buyrug‘ini tanlab ekranga chiqarish mumkin.



## 11-Rasm. Oknodokumenta

### PageMaker hujjatlaroynasiningo‘lchashlineykasivayo‘naltiruvchilari

Lineykaning o‘lchov birligini suzub chiquvchi menyudan onsonlik bilan aniqlash mumkin. Buning uchun sichqonchaningo‘ng tugmasinilineyka ustida shiqillatiladi va ochilgan ro‘yhatdan kerakli o‘lchov birlagi tanlanadi. O‘lchov birligi gorizontal va vertical lineykalar uchun alohida tanlanadi.

Koordinata boshi berilgandan so‘ng, tasodifiy siljishlardah himoya qilish uchun **View** (Prosmotr) menyusidan **Zero Lock** (Zakrepit nol) buyryg‘ini berish maqsadga muofiq. Obektni to‘g‘ri joylashtirish uchun **View** (Prosmotr) o‘chirib-yoquvchi **Snap to Rulers** (Vylrovnyat po lineykam) buyrug‘idan foydalanish mumkin.

Kop hollarda lineykaga qaraganda obektlarni joylashtirishda va tekislashda yo‘naltiruvchilar ko‘proq ishlatiladi. Bular yordamchi chiziqlar bo‘lib. Pechatga chiqarilmaydi. Yonalyiruvchilar o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ular sudrash amalini bajarish vaqtida obektni yo‘naltiruvchi chizig‘iga magnitlagandek bog‘lab qo‘yish qobiliyatiga ega. Bu narsa obektlarni joylashtirishda va tekislashda ahiqlikni ta’minlab beradi. “Magnetizim” ga ruxsat berish / man etish buyrug‘i **Snap to Guides** (Vylrovnyat po napravlyayuqim) **View** (Prosmotr) menyusida joylashgan . Sahifada ihtiyyoriy miqdorda vertical va gorizontal yo‘naltiruvchilar bo‘lishi mumkin. Shablon sahifalarida yo‘naltiruvchilar to‘rini joylashtirish nashir sahifalariga yagona stil ko‘rinishlarda bo‘lishini ta’minlab beradi.

**Belgilarni formatlash.** Belgilar matinning tashkil etuvchilari bo‘lib, — bu ma’lum bir qiyosiy ma’noda yangi yaratilayotgan murakkab nashirning “gishtlari” deb atash mumkin. Nashityotda belgililar bilan ishlaganda Quyidagilarga amal qilish kerak:

- Sirft va garniturlar
- Belgilarni formatlash usullaru va atributlari
- Kegel – bu shiriftning vertical o‘lchovi
- Interlinyaj- nashir sahfasidagi qatorlarning zichligi.
- Belgilar va so‘zlar orasidagi intervallar va boshqalar.

Nashirni yaratib bo‘lgandan so‘ng uning tirajini taylorlanadi. Natijada kitob, broshyura, jurnal ko‘rinishlariga ega bo‘ladi. Bu bosqichda quyidagilarga ahamiyat berish kerak:

- Tipografiyani tanlash tipografii

- Tipografiya bilan ishlashning strategiya va taktikalari
- Qog‘oz va chop etish usullarini tanlash
- Maketga qo‘yiladigan talablar.

### Test savollari

#### **1. Axborotni grafik ifodasidan maqsad nima?**

- Axborotni sifat jihatidan taxlash uchun
- \*Axborotni miqdoriy tahlil qilish uchun
- Axborotni qiymatni baholash uchun
- Axborotni uzatish tizimini aniqlash uchun

#### **2. Paint muxarriri qanday maqsadda foydalaniladi?**

- Ilmiy, muhandis-texnik axborotlarni qayta ishlash uchun
- \*Tasviriyl axborotlarni qayta ishlash uchun
- Barcha turdag'i matnli axborotlarni qayta ishlash uchun
- Dastur tuzish uchun

### **29-MAVZU: MATEMATIK MASALALARINI YECHISH VA ULARNING GRAFIKLARINI YARATISHGA MO’LJALLANGAN MAPLE 5, MATH CAD DASTURLARI VA ULARDA ISHLASH (6 SOAT LABORATORIYA ISHI).**

#### **Reja:**

1. *Maple oynasining strukturasi*
2. *Arifmetik amallar. Maple tizimining o‘zgarmaslari, butun va ratsional sonlar*
3. *MatCad haqida tushuncha.*
4. *MatCad ning arifmetik imkoniyatlari*

*Maple* – bu kompyuterda analitik hisoblashlar bajarish uchun paket, o‘zida algebra, geometriya, matematik analiz, differentsiyal tenglamalar, statistika, matematik fizika masalalarini yechish imkonini beruvchi ikki mingdanortiq komandalarni saqlaydi.

*Mapleni* ishga tushirish uchun Windowsning *Bosh menyusidagi Programmy* bandidan *Maple* ni tanlaymiz.

*Maple* Windowsning tipik oynalariga o‘xshaydi. *Maple* oynasi Sarlavha satri (*Stroki nazvaniya*), Bosh menu (*Osnovnoy menu*), Asboblar paneli (*Paneli instrumentov*), Ishchi maydon (*Rabochee pole*), Holatlar satri (*Stroka sostoyaniya*), Chizg‘ich (*Lineyki*), shuningdek, O‘tkazish yo‘lakchasi (*Polosa prokrutki*) dan tashkil topgan.

*Maple* oynasining Sarlavha satri, Bosh menu, Asboblar panelining ko‘rinishi:



Bosh menyu tarkibi:

**File** (Fayl) – fayllar bilan ishlash uchun standart buyruqlar yig‘indisidaniborat, masalan:faylni saqlash,faylni ochish, yangi fayl yaratish va h.k.

**Edit** (Pravka) –matnni tahrirlash uchun standart buyruqlar yig‘indisidaniborat, masalan: nusxa olish, belgilangan matnni qirqib olish, buyruqni rad yetish va h.k.

**View** (Vid) – *Maple* oynasi strukturasini boshqaruvchi buyruqlar yig‘indisidaniborat.

**Insert** (Vstavka) – turli tipdagi maydonlarni kiritish, matematik palitralar, ikki va uch o‘lchamli grafik tasvirlaruchun xizmat qiladi.

**Format** (Format) – xujjatni tuzish uchun xizmat qiladigan buyruqlar yig‘indisidan iborat, masalan:shriftning turini, o‘lchamini, stilini tanlash.

**Options** (Parametrlari) – ma’lumotlarni ekranga, printerga kiritish va chiqarish parametrlarini rostlash uchun mo‘ljallangan buyruqlar yig‘indisidan iborat, masalan, chop qilish soni.

**Windows** (Okno) – bir ishchi varaqdan boshqasiga o‘tish uchun xizmat qiladi.

**Help** (Spravka) – *Maple* haqida to‘liq ma’lumotlarni saqlaydi.

*Mapleda* ish sessiya tartibida o‘tadi – foydalanuvchi matn (buyruqlar, ifodalar, protseduralar) ni kiritadi, ular shartli ravishda hisoblanib, *Maple* bilan qayta ishlanadi. Ishchi maydon uchga bo‘linadi:

1) Kiritish sohasi – buyruqlar satridan iborat. Har bir buyruq satri >belgisi bilan boshlanadi;

2) Chiqarish sohasi – kiritilgan buyruqlarning qayta ishlanganining natijalarini analitik ifodalar, grafik ob’ektlar yoki xatolar xabarları ko‘rinishida chiqaradi;

3) Matnli izoxlar sohasi – bajarilayotgan protseduralarni izohlaydigan turli hil matnli ma’lumotlarni chiqaradi. Matnli satrlar *Mapletonidan* qabul qilinmaydi va qayta ishlanmaydi.

Buyruq satrini matnli satrga o‘tkazish uchun asboblar panelidagi tugmani sichqoncha bilan bosish kerak.

Matnli satrni buyruq satriga qayta o‘tkazish uchun asboblar panelidagi tugmani sichqoncha bilanbosish kerak.

## Matematik o‘zgarmaslar va arifmetik amallar.

Asosiy matematiko‘zgarmaslar: **Pi** –  $\pi$  soni; **I** – mavhumbirlik; **infinity** – cheksizlik; **Gamma** – Eylero‘zgarmasi; **true**, **false** – mantiqiyifodalarningchinyokiyolg‘onliginibildiruvchimantiqiyo‘zgarmaslar.

Arifmetik amallar belgilari:

+ - qo‘shish; – - ayirish;  
 \* - ko‘paytirish; / - bo‘lish;  
 ^ - darajaga ko‘tarish; ! – faktorial.

Taqqoslash belgilari: <, >, >=, <=, <>, =

**Kompleks, butun va ratsional sonlar.** *Maple* da sonlar haqiqiy (real) va kompleks (complex) sonlarga bo‘linadi. Kompleks sonlar  $z=x+iy$  algebraik ko‘rinishda yoziladi, buyruqlar satrida quyidagicha kiritiladi:

>z:=x+I\*y;

Haqiqiy sonlar butun va ratsional sonlarga bo‘linadi. Butun sonlar (integer) o‘nlik sistemada yoziladi. Ratsional sonlar uch xil ko‘rinishda berilishi mumkin:

- 1) Ratsional kasr ko‘rinishida, masalan: 28/70;
- 2) Suzuvchi vergul yordamida (float), masalan: 2.3;
- 3) Ko‘rsatkichli shaklda, masalan:  $1,602 \cdot 10^{(-19)}$  soni  $1,602 \cdot 10^{-19}$  ni bildiradi.

Ratsional sonning taqribiy qiymatini olish uchun sonlarning butun qismiga .0 qo‘shib yozish kerak. Misol:

> 75/4;

$$\frac{75}{4}$$

> 75/4.0;

18.75000000


*Maple* tizimida grek alfaviti harflarini poligrafik ko‘rinishda yozish mumkin. Buning uchun buyruqlar satrida harfning nomi kiritiladi. Masalan,  $\alpha$  belgisini hosil qilish uchun **alpha** so‘zini kiritish kerak.

Grek alfaviti xarflari va ularning nomlari:

$\alpha$ - alpha	$\nu$ - nu
$\beta$ - beta	$\mu$ - mu
$\gamma$ - gamma	$\xi$ - xi
$\delta$ - delta	$\pi$ - pi
$\varepsilon$ - epsilon	$\rho$ - rho
$\zeta$ - zeta	$\sigma$ - sigma
$\eta$ - eta	$\upsilon$ - upsilon
$\theta$ - theta	$\phi$ - phi
$\iota$ - ita	$\chi$ - chi
$\kappa$ - kappa	$\psi$ - psi
$\lambda$ - lambda	$\omega$ - omega


## MatCad haqida tushuncha.

- Zamonaviy kompyuter matematikasi matematik hisoblarni avtomatlashtirish uchun butun bir birlashtirilgan dasturiy tizimlar va paketlarni taqdim etadi. Bu tizimlar ichida Mathcad oddiy, yetarlicha qayta ishlangan va tekshirilgan matematik hisoblashlar tizimidir.
- Umuman olganda Mathcad – bu kompyuter matematikasining zamonaviy sonli usullarini qo'llashning unikal kollektsiyasidir. U o'z ichiga yillar ichidagi matematikaning rivojlanishi natijasidayig'ilgantajribalar, qoidalar va matematik hisoblash usullarini olgan.




1-rasm. Mathcad paketioynasivauning matematik panel vositalari.

- Colculator (Kolkulyator) – asosiy matematik operatsiyalar shabloni; Graph (Grafik) – grafiklar shabloni; Matrix (Matritsa) – matritsavamatsitsa operatsiyalarini bajarish shabloni; Evaluation (Baholash) – qiymatlarni yuborish operatori vanatijalarni chiqarish operatori; Colculus (Hisoblash) – differentialsallash, integrallash, summanihi hisoblash shabloni; Boolean (Mantiqiy operatorlar) – mantiqiy operatorlar; Programming (Dasturlashtirish) – dasturtuzish chunkerak limodullaryaratish operatorlari; Greek (Grekharflari) – simbolik belgililar ustida ishlash huchun operatorlar.
- Boshlang'ich holatda ekranda kursor krestik ko'rinishda bo'ladi. Ifodani kiritishda ukiritilayotgan ifodani egalla bolgan ko'k burchakli holat gao'tadi. Mathcadning har qanday operatorini kiritishni uchta usulda bajarish mumkin:
- Menyu buyrug'idan foydalanib;
- Klaviatura tugmalaridan foydalanib;



## 2-rasm. Oddiy matematikifodalar ni hisoblash.


- Mathcad 200 danortiqo 'zidaqurilgan funktsiyalariga egabo 'lib, ularni matematikifodalarda ishlatalishchun standart panel vositasidagi Insert Function (Funktsiyaniqo 'yish) tugmasiga bog 'langan muloqotoynasidan foydalaniladi.
- Mathcad hujjatiga matn kiritishchun bosh menyudan Insert → Text Region (Qo 'yish → Matn maydoni) buyrug 'iniberish yoki yaxshisiklaviaturadanikkitalikavichka ("") belgisini kiritish kerak. Bundamatnmaolumotinik kiritishchun ekranda matn kiritish maydoni paydobo 'ladi. Matn kiritish maydoniga matematikifodaniyo zishchun matematikmaydonni ham qo 'y ishmumkin. Buninguchun shumatnmaydoni daturib Insert → Math Region (Qo 'yish → Matematikmaydoni) buyrug 'iniberish kifoya. Bumaydondagi kiritilgan matematikifodalar ham oddiy kiritilgan matematikmaydonka bihisoblashni bajaradi.



## 3-rasm. Hisoblashlarda foydalananuvchi funktsiyasi inituzish.

- Ikkio 'lchamli funktsiyagrafigini qurishchun quyidagi protseduralarni bajarish kerak.
  - 1.Qaysi joyga grafik qurishkerakbo 'lsa, shu joyga restlik kursov qo 'yiladi.
  - 2.Matematikpanelining Graph (Grafik) panelidan x-y Plot (Ikkio 'lchovligrafik) tugmasi bo siladi.


- 3.Hosilbo‘lganikkio‘lchamligrafikshablonigaabstsissō‘qiargumentinomi, ordinatao‘qigafunktisiyanomikiritiladi.
- 4.Argumentningberilgano‘zgarishdiapazonidagrafikniqurishuchungrafikshablonita shqarisisichqonchadabosiladi. Agar argumentningdiapazonqiymatiberilmassa, uholdaavtomatikholdaargumentdiapazonqiymati 10 dan 10 gachabo‘ladivashudiapazondagrafikquriladi




*5-rasm. Funktsiyagrafiginiqurish.*

Limitlarnihisoblash. Mathcadda limitlarnihisoblashninguchtaoperatoribor.


- 1.Matematikapanelidan Calculus Toolbar (Hisoblashpaneli) tugmasibasilsa, Colculus (Hisoblash) paneliochiladi. Uyerningpastkiqismidalimitlarnihisoblashoperatorlarinikiritishuchunuchtatugmach amavjud. Ularningbiriniboshishkerak.
- 2.lim so‘ziningo‘ngtomonidagikiritishjoyigaifodakiritiladi.
- 3.lim so‘ziningostkiqismigao‘zgaruvchinomivauningintiladiganqiymatikiritiladi.
- 4.Barchaifodalarburchaklikkursordayokiqorarangaajratiladi.
- 5.Symbolics→Evaluate→Symbolically (Simvollihisoblash→Baholash→Simvolli) buyruqlariberiladi. Mathcad agar limit mavjudbo‘lsa, limitningintilishqiymatiniqaytaradi.





Dastur qatorini kiritish. Dasturni tuzish uchun uning qatorlarini kiritish kerak bo‘ladi. Bu quyidagi keltirilgan protsedurada bajariladi:

1. Dastur ifodasi nomini kiritish.
2. Yuborish operatorini ( $:=$ ) kiritish.
3. Dasturlash panelidan Add Program Line (Dastur qatorini qo‘shish) tugmasini bosish.
4. Paydo bo‘lgan kiritish joyiga kerakli operatorlarni kiritish, ortiqcha kiritish joyini olib tashlash.



### Test savollari

**1. Mathcad da vektor elementlarining medianasi qanday topiladi?**

- a) mode(v)
- b) stdev(v)
- c) mean(v)
- d) \*median(v)

**2. Mathcad da vektor elementlarining o‘rtacha garmonik qiymati qanday topiladi?**

- a) cvar(a,b)
- b) corr(a,b)
- c) \*hmean(v)
- d) gmean(v)

## **30-MAVZU: BUXGALTERIYA, IQTISOD VA BOSHQA SOHALARDA QO'LLANILADIGAN DASTURLAR (4-SOAT LABORATORIYA ISHI).**

**Reja:**

- *Matn, grafik muharrirlari va protsessorlari.*
- *Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi. Elektron jadvallar.*
- *Avtomatlashtirilgan loyihalashtirish tizimlari (ALT).*
- *Doimiy nashriyot tizimlari. Ekspert tizimlari.*
- *HTML muharrirlari (Web-muharrirlari). Brouserlar (sharhlovchilar, Web hujjatlarni ko'rib chiqish vositalari).*
- *Ish yuritishning integrallangan tizimlari.*
